Shuningdek, "Nukus-farm", "Zomin-farm", "Kosonsoy-farm", "Sirdaryo-farm", "Boysun-farm", "Bo'stonliq-farm", "Parkent-farm" singari farmatsevtika sohasiga ixtisoslashgan 7 yangi erkin iqtisodiy zonalarini rivojlantirish bo'yicha ham barcha choratadbirlar ko'rilyapti. Shu bilan birga, erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish, xorijdan yuqori texnologik uskunalarni xarid qilish uchun O'zbekiston tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'i hisobidan 100 million \$ miqdorida chet el valyutasidagi kredit liniyasi ochilgan. Shuningdek, maxsus industrial zonasi Toshkent viloyatining ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan kompleks hamda samarali foydalanish, shu asosda yangi ish joylarini yaratish va aholi daromadlarini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki. Kichik sanoat zonalaridagi direksiyalar kredit olish va bank xizmatlaridan foydalanishda har bir zonaga birlashtirilgan tijorat banklari bilan hamkorlikda ish olib borayotganligi ham muammolarni bartaraf etishda ayni muddao bo'lmoqda. Bozor talablari va import nomenklaturasini o'rganish asosida tadbirkorlar uchun takliflar, istiqbolli loyihalar ro'yxati shakllantirilgan. Imtiyozlardan yana biri shuki, kichik sanoat zonasida ishlaydigan subyektlar 2 yil barcha soliqlardan ozod etilgan.

FOYDANANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz." Toshkent: O'zbekiston, 2016
2. Shaakramov Q. Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash. // Jamiyat va boshqaruv, - T.:2008. №3.
3. Karimov F. O'zbekiston jahon hamjamiyati safida. // Jamiyat va boshqaruv, - T.: 2004. №1
4. Ismailov O.Sh., Umarov B. XXI asrda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning o'ziga xos xususiyatlari. // Iqtisod va moliya., -T.:2010. №11-12

IJTIMOYIY TARMOQLAR VA INTERNETNING YOSHLAR HAYOTIGA TA`SIRI

Z.I.ahmadjonova

talaba, FDU

I.N.Tojimatov

o`qituvchi, FDU

Bugungi kunda kamdan-kam hollarda hozirda mashhur bo`lgan ijtimoiy tarmoqlarning kamida bittasida ro'yxatdan o'tmagan yoki shaxsiy sahifasi bo'lmagan odam bilan uchrashish qiyin.

Ayni vaqtda ijtimoiy tarmoqlar yoshlar va bolalarning, bazan katta yoshli insonlarning bo'sh vaqtlarini deyarli egalladi. Dunyo statistika ma'lumotlariga ko'ra, rivojlangan davlatlarning aholisining 70% dan ortig'i ijtimoiy tarmoqlardan birida ro'yxatdan o'tgan. O'smirlarning 95% dan ortig'i esa bir-biri bilan internet orqali muloqot qiladi.

Zamonaviy yoshlar o'z vaqtlarini virtual muloqotsiz tasavvur qila olmaydi. Agar ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni maqsadsiz va no`rin narsalarga sarf qilinmasa, unda ijtimoiy tarmoq ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy tarmoq ko`plab imkoniyatlar yaratib, jumladan uzoq vaqtdan beri uchrashmagan odamlar bilan qayta bog'lanishingiz, do'stlaringizning fotosuratlarini va videolarini ko'rishingiz va o'zingizni ma'lumotlaringizni yuborishingiz, uzoqda bo'lganlar bilan real vaqtda rejimida suhbatlashishingiz mumkin.

Ammo, aksariyat hollarda ko'pchilikni tarmoqdagi aloqaga bevosita bog'liqligini kuzatish mumkin. Yoshlarning yarmidan ko'pi kuniga kamida bir marta veb-saytga kirishi va o'smirlarning deyarli to'rtidan bir qismi ijtimoiy tarmoqlarda kuniga bir necha marta, xattoki uzluksiz kirishlarini ko'ramiz. Internet yo'qligi (uzilish bo'lganda) qo'zg'aluvchanlikning kuchayishi, virtual olamga sho'ng'ish istagi, Internetga qaramlik kabi salbiy oqibatlar namoyon bo'lishida asosiy muammo yuzaga kelmoqda.

K.Yangning "Diagnoz - Internetga qaramlik" maqolasida batafsil tavsiflangan va so'rov natijalariga ko'ra statistik ma'lumotlar keltirilgan. Bu shuni ko'rsatadiki, internetga qaram bo'lganlarning qariyb 60 foizga yaqini bu ularning sog'lig'i va ruhiyatiga zarar yetkazishini bilsalarda, tarmoqlarda onlayn vaqtini o'tkazishdan voz kechmayaptilar. Ularni ko'pchiligi bu yomon odatidan voz kecha olmayman deb o'ylashmoqda. Qolgan 40% internetga qaramlikdan huddi giyohvandlikdan xalos bo'lishga harakat qilish kabi harakat qilishadi, biroq bundan qutila olmayaptilar. Avvaliga ular Internetda o'tkazish mumkin bo'lgan vaqtni cheklashga harakat qilishdi, lekin ular o'zlarini nazorat qila olmadilar, keyin modemlarni uloqtirishdi, simlarni uzishdi, lekin bir muncha vaqt o'tgach, ular Internetda bo'lmaganligini anglab, yana onlayn bo'lishga intilishdi. Ko'pchilik onlayn muloqot xavfli emasligini aytishmoqda. Ammo so'nggi paytlarda ko'pchilik odamlar bo'sh vaqtini ko'proq o'tkazadigan ijtimoiy tarmoqda turli guruhlar va tematik jamoalar tarqalib ketganligi sababli ularni bu salbiy holatni oldini olish bo'yich ogohlantirishni boshlash kerak.



Ijtimoiy tarmoqni ishtirokchisi, ya'ni shaxs haqiqiy hayotda o'z muammolaridan qochib, to'g'ridan-to'g'ri ijtimoiy tarmoqlarga kiradigan, u yerda u buni unutishi hamda yangi hayot, yangi nom o'ylab topishi, har qanday narsadan "qutilishi" mumkin bo'lgan muhit deb o'ylay boshlaydi. Bu "virtual qiyofaning" real hayotda yetishmayotganini ijtimoiy tarmoqlardan izlayotgan insonning o'ziga hech qanday aloqasi yo'qligi, bu "ideal hayot" uning uchun haqiqiydan ko'ra qimmatroqqa tushib qoladi.

So'nggi paytlarda internetdan foydalanish muammosi o'smirlar muhitiga keskin ta'sir qilmoqda. O'qituvchilar bolalarning rivojlanishida keskin pasayishni kuzatishmoqda. Ota-onalar esa buni kompyuterni bola maktabdan kelganida darhol yoqishi va faqat yotishdan oldin o'chirish bilan izohlashdi. Bazi ota-onalarni farzandlari ma'lum vaqt davomida repetitor uchun muntazam ravishda pul olib, lekin repetitorga yetib bormaganini va barcha pulni onlayn o'yinlarga sarflab yuborganini ham bilishmaydi.

O'qituvchilar dars paytida bazi talabalarning telefondan foydalanayotganini, onlayn o'yinda yozishmalar aniq amalga oshirilayotganligini, o'yindan pulga sotib olinadigan turli xil qurilmalar faol muhokama qilayotganligini aytishmoqda.

Bu shuni ko'rsatadiki o'quvchilar, o'smirlar va talabalarning turli ijtimoiy guruhlardagi ishtiroki taxminan bir xil ekanligi, ular turli xil o'zlari bilmagan holda salbiy nomlar va tushunchalardan foydalanayotganligi, jinoyatchilar, o'g'rilar hayotni targ'ib qiluvchi jinoiy strukturalar amalga oshorilayotganligini ko'rish mumkin.

Yana bir juda bezovta qiluvchi mavzu – bu kompyuterli psixologik o'yinlardir. Bular faqat o'yin emas, balki o'z joniga qasd qilish o'yilaridir. Masalan, "Viber", "VK" ijtimoiy tarmoqlaridagi o'smirlar halokatli o'yinlari "Moviy kit" jamoasi o'yinlariga kiradi.

Umuman, yuqoridagi fikrlarda kelib chiqib, shuni ta'kidlash lozimki bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar va internetning yoshlar hayotiga ta'siri ijobiy tomondan qaralganda, ularning chuqur bilim olishi, dunyo ma'lumotlarida foydalanishi yoki o'zlarini bizneslarini yo'lga qo'yishlari uchun juda ham foydali texnologiyadir. Biroq, salbiy tomonlari mavjud bo'lib, o'quvchilar, o'smirlar, talabalar va yoshlar ijtimoiy tarmoqlarga qaram bo'lib qolmoqdalar. Bundan tashqari, turli pul bilan bog'liq o'yinlarga (qimor), odam savdosi guruhlariga, jinoyatchilikka moyilligini oshiradigan o'yinlarga bog'lanib qolmoqdalar.

Bu salbiy oqibatlarni oldini olish uchun, mutaxassislardan sohada ilmiy ishlar olib borish, o'quvchilar, o'smirlar, talabalar va yoshlar xattoki katta yoshdagi insonlarga ijtimoiy tarmoq va internet tushunchalarini shakllantirish, ulardan to'g'ri foydalanish, axborot madaniyati kabi qator dolzarb masalalarni o'rgatish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Роль социальных сетей в жизни молодежи Режим доступа –URL: <https://infourok.ru/uchebniy-proekt-po-obschestvoznaniyu-rol-socialnih-setey-v-zhizni-sovremennoy-molodyozhi-3113564.html> (Дата обращения: 26.11.2018)

2. Социальные сети и молодежь: за и против? Режим доступа –URL: <http://salschool24.ucoz.ru/programma/lavrentev.docx> (Дата обращения: 16.01.2019)



3. Субкультура АУЕ Режим доступа –URL: <http://obozrenie-chita.ru/article/subkultura-ae> (Дата обращения: 18.12.2018)
4. Рослякова, Л. А. Роль социальных сетей в жизни молодежи / Л. А. Рослякова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2019. — № 3 (241). — С. 375-376. — URL: <https://moluch.ru/archive/241/55766/> (дата обращения: 18.03.2022).



O'RTA MAXSUS HARBIY TA'LIM MUASSASALARIDA QUOLLI KUCHLARNING JANGOVAR SHAYLIGI, UNING IMKONIYAT VA QOBILIYATLARINI KUCHAYTIRISH ISTIQBOLLARI

O'rinbaeva Dilfuza Abdumannobovna

O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi Toshkent "Temurbeklar maktabi" xarbiy akademik
litseyi tarix fani katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqola keying yillarda O'zbekistonda Qurolli Kuchlar sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar tahliliga bag'ishlangan. O'zbekistonda harbiy soha huquqiy bazasining yaratilishi, sohada olib borilgan o'zgarishlar, harbiy xizmatchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash mexanizmining yaratilishi, shuningdek, O'zbekiston armiyasining jahon jamoatchiligi tomonidan e'tirof etilishi va Yangi O'zbekistonni 2022-2026-yillarda rivojlantirishga qaratilgan Taraqqiyot strategiyasi doirasida kelgusida harbiy sohada bajarilishi lozim bo'lgan ishlar o'z ifodasini topgan.

Kalit so'zlar: qurolli kuchlar, millatlararo xavfsizlik, harbiy islohatlar, harakatlar strategiyasi, harbiy bilim yurtlari, muddatli harbiy xizmat, zamonaviy armiya

Аннотация: В статье анализируются проводимые в последние годы реформы в Вооруженных Силах Узбекистана. Создание правовой базы военной сферы Узбекистана, изменения в сфере, создание механизма всесторонней поддержки военнослужащих, а также признание узбекской армии мировым сообществом и Новым Узбекистаном 2022-2026 гг.- Предстоящая работа в перспективе в военной сфере находит свое отражение в рамках Стратегии развития, которая направлена на развитие страны на ближайшие годы.

Ключевые слова: вооруженные силы, межнациональная безопасность, военные реформы, стратегия действий, военные учебные заведения, срочная военная служба, система аутсорсинга, современная армия.

O'zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlarida olib borilayotgan islohotlarni davom ettirib, davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyev: "Ko'zlangan strategik maqsadlarga yetishishda va ulami hayotga to'liq tatbiq etishda har tomonlama va puxta tayyorlangan, o'z Vatanga sodiq, yuksak tajribali harbiy kadrlarni tarbiyalash, davlat tomonidan ularning ijtimoiy himoyasini kafolatlash hal qiluvchi va asosiy omildir. Shu bois respublikaning hamma o'quv muassasalarida vatanparvarlik tarbiyasi to'g'risidagi fanlarni tatbiq qilish va kuchaytirish bo'yicha amaliy ishlar boshlandi" deya ta'kidlab o'tdi.

Yoshlarga harbiy ta'lim berishda ularga qo'shinlarning o'quv-jangovar faoliyatida bajariladigan mashqlar, harakatlar va amallarni harbiy qismlardagiga mumkin qadar yaqinlashtirilgan holda o'rgatish nazarda tutiladi. Bu mashqlarni ko'p marotaba takrorlash natijasida yoshlarda zamriy harbiy bilim va ko'nikma yuzaga keladi. Tinchlik va harbiy davrda aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

respublika hududidagi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarni prognozlashtirish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini baholash; favqulodda vaziyatlarning oldini olishga, odamlar xavfsizligini ta'minlashga, xavfli texnologiyalar va ishlab chiqarishlarning tavakkalchiligini pasaytirishga, iqtisodiyot tarmoqlari va boshqa tashkilotlar faoliyat ko'rsatishining barqarorligini oshirishga qaratilgan maqsadli va kompleks ilmiy-texnik dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish; boshqaruv organlari va favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ularni bartaraf etish uchun mo'ljallangan kuch va vositalarning doimiy tayyorligini ta'minlash; aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi axborotlarni yig'ish, ishlab chiqish, ayirboshlash va berish; aholini, boshqaruv organlarining mansabdor shaxslarini, FYDT kuchlari va vositalarini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash; favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zaxiralarini yaratish; aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida davlat ekspertizasi, nazorati va tekshimvini amalga oshirish; favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish harbiy sohaning birlamchi vazifalaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 18-dekabr kuni zamonaviy kadrlarga bo'lgan ehtiyojni to'ldirish, bilimli yoshlarni strategik sohalarga jalb etish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishda "...zamon talabi, islohotlar shiddatiga mos kadrlarni tarbiyalashimiz kerak. Bu masala bizning kelajagimiz, bizning ertangi kunimiz"[1] – deya ta'kidlaganlari ham iqtisodiyotimiz turli sohalarida izlanuvchan, tashabbuskor kadrlarga bo'lgan ehtiyojni ko'rsatib berdi.

O'rta maxsus harbiy ta'lim muassasalarida qurolli kuchlarning oliy ta'lim tizimiga kirish imkoniyatlari va imtiyozlari hamda ularning qobiliyatlarini kuchaytirish istiqbollari bo'yicha har yili Prezidentimiz tomonidan me'yoriy- huquqiy hujjatlar qabul qilinadi. Bularni e'tiborimizga olib o'tadigan bo'lsak,

"Temurbeklar maktabi" bitiruvchilari bugungi kunda oliy harbiy ta'limni olishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratib berilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 28-iyundagi PQ-4375-son qarori asosida amalga oshiriladi.

"Temurbeklar maktabi" bitiruvchilariga¹ O'zbekiston Respublikasi oliy harbiy va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga o'qishga kirishda Davlat test markazi tomonidan o'tkaziladigan test sinovlarida o'zlari to'plagan ballarning 30 foizi miqdoridagi, respublikaning boshqa davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishda esa o'zlari to'plagan ballarning 15 foizi miqdoridagi qo'shimcha ballar ko'rinishida imtiyoz beriladi. To'plangan ballga nisbatan qo'shimcha ballar ko'rinishida imtiyoz abituriyent tanlagan barcha ta'lim yo'nalishlari uchun o'rinli hisoblanadi. Mudofaa vazirligi, Milliy gvardiya, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Favqulodda vaziyatlar vazirligi javobgarligi asosida.

¹ J.T.Odilov. Oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun beriladigan imtiyozlar bo'yicha Ma'lumotnoma.(2022-2023-o'quv yili uchun). Toshkent-2022.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy musiqa akademik litseyini tashkil etish to'g'risida" 2022-yil 16-fevraldagi PQ-129-son qarori asosida tashkil etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy musiqa akademik litseyi bitiruvchilariga O'zbekiston Respublikasi oliy harbiy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishda Davlat test markazi tomonidan o'tkaziladigan test sinovlarida o'zlari to'plagan ballarning 30 foizi miqdoridagi, respublikaning boshqa davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishda esa o'zlari to'plagan ballarning 15 foizi (shu jumladan, ijodiy imtihonlar bo'yicha) miqdoridagi qo'shimcha ballar ko'rinishida imtiyoz beriladi. To'plangan ballga nisbatan qo'shimcha ballar ko'rinishida imtiyoz abituriyent tanlagan barcha ta'lim yo'nalishlari uchun o'rinli hisoblanadi².

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilari va ularning oila a'zolarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2018-yil 14-maydagi PQ-3726-son qarori asosida ham imtiyozlar berib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlari xodimlari va ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoya qilishni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 26-fevraldagi PQ-4212-son qarori asosida ham imtiyozlar berib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o'tab bo'lgan fuqarolarga imtiyozlar tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2012-yil 31-maydagi PQ-1765-son qarori asosida ham imtiyozlar berib o'tilgan.

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17-avgustdagi 681-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o'tab, harbiy qism qo'mondonligining tavsiyanomalariga ega bo'lgan fuqarolarni oliy ta'lim muassasalariga qabul qilish tartibi to'g'risida" nizom asosida ham imtiyozlar berib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2017-yil 17-noyabrdagi PQ-3394-son qarori asosida ham imtiyozlar berib o'tilgan.

Yuqoridagi keltirib o'tilgan normativ-huquqiy hujjatlardan kelib chiqib, ta'kidlash lozimki, Bo'lajak harbiy ta'lim kursantlari kasbiy kompetentligini shakllantirilib, harbiy sohaga bo'lgan qiziqishini yanada orttirishga katta imkoniyat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 30 yilligi munosabati bilan harbiylarni tabrikladi. Xalq so'zi gazetasi 2022 yil 14 yanvar №9 (8071).

² J.T.Odilov. Oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun beriladigan imtiyozlar bo'yicha Ma'lumotnoma.(2022-2023-o'quv yili uchun). Toshkent-2022



2. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 30-sentabrdagi O'RQ-718-sonli Qonuni 13-moddaning birinchi qismi, 30.09.2021-y., 03/21/718/0920-s
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni, "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili" davlat dasturi. Xalq so'zi gazetasi 2022 yil 1 fevral №23 (8085).
4. Temur tuzuklari. -T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991. -64-b
5. Marsel Brian. Menkim, Sohibqiron-Jahongir Temur. "Yangi asr avlodi". T.: 2016

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MILLIY XARAKATLI
O'YINLARINING KELIB CHIQISHI VA BOLA HAYOTIDAGI O'RNI.

Nabiyeva Dilnoza Midhadovna
Toshkent pedagogika kolleji o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada O'zbek xalq milliy o'yinlarini o'rganish, tadbqiq qilish va uni yoshlarni tarbiyalash amaliyotiga joriy qilish, o'z qadriyatlarimiz, madaniyatimiz va ma'naviy boyliklarimizning yuksaklikka ko'tarilishida asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Xalq yaratgan buyuk xazinani ehtiyot qilib saqlashimiz, milliylik bo'yog'ini asrashimiz hamda uni kelajak avlod uchun bekamu ko'st yetkazishimiz zimmamizdagi asosiy vazifadir. Xalq milliy o'yinlari sog'lom avlod tarbiyasidagi samarali usullardan biri sifatida tadbqiq qilingan bo'lib, halq o'yinlarini ta'lim-tarbiya jarayonida tashkil qilish va samaradorligini oshirish yuzasidan pedagogik tavsiyalar berilgan.

Tayanch tushunchalar: Sog'lom avlod tarbiyasi, uzluksiz ta'lim tizimi, sog'lom turmush tarzi, milliy halq o'yinlari, ta'lim-tarbiya jarayoni, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, milliy va madaniy qadriyatlar.

O'zbek milliy xalq o'yinlarining tarixi

Xalq o'yinlari xalq ijodiyotining o'ziga xos janri bo'lib, ko'p asrlik tarixga ega. Ularda jamiyat rivojlanishining u yoki bu bosqichiga xos, ijtimoiy voqealar aks etadi.

O'zbek xalq o'yinlari qadim zamonlarda, bizning eramizgacha bo'lgan davrda vujudga kelgan. Buni arxeologik qazilmalar va qadimgi rim yozuvchisi Elianning etnografik hujjatlari ham tasdiqlaydi. Chunki ularda o'yin-musobaqalar juda keng tarqalganligi va ular xalqning sevimli odati bo'lgani haqida ma'lumotlar bor. Yunon tarixchisi Pomney Trog (eramizning I asri) yozuvlarida bir vaqtlar hozirgi O'zbekiston hududida yashagan qabilalar mohir jangchilar, chavandoz, mergan, nayzaboz va kamonchi, ya'ni harbiy ishlarga usta kishilar bo'lgani qayd qilinadi.

Qadimda hozirgi O'zbekiston hududida asosan ko'chmanchi, yarim ko'chmanchi va o'troq qabilalar yashagan. Ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi qabilalarning asosiy mashg'uloti chorvachilik bo'lgan. O'troq qabilalar esa dehqonchilik bilan bug'doy yanchishda, daryo va quduqlardan suv tortishda mollardan shuningdek, chorva mollaridan hunarmandlar va savdogarlar ham foydalanganlar.

"Oqsoq bo'ri va qo'ylar", "Echkilar va cho'ponlar", "Oq tuya", "Bo'ri keldi" singari qator xalq o'yinlarining kelib chiqish tarixi shu manbalarga asoslanadi.

O'zbek xalq o'yinlari rivojlanishining har bir bosqichida mazmunan o'zgarib turli ijtimoiy vazifalarni bajargan ko'pgina xalq o'yinlari ota-bobolardan bolalar va nabiralarga o'tgan.

O'zbek xalqida hayvonlar va qushlar mavzusidagi juda qiziqarli raqslar "Kaptar o'yini", "Ot o'yin" va hokazolar keng rasm bo'lgan. Shuningdek, o'zbek orasida "Karnayli-

surnayli", "Xo'roz va tovuq", "Qoch bolam qush keldi", "Oq terakmi ko'k terak" kabi o'yinlar mashhur bo'lgan.

O'zbek xalq o'yinlari qadimgi tomosha sifatida yuzlarcha yillar muqaddam maydonlarda vujudga kelgan. Ular xalq tantanalari va tomoshalarining eng yaxshi an'analarini o'zida jamladi, betakror o'ziga xosligi va xususiyatlari bilan milliy ma'daniyatini nihoyatda boyitdi, o'z avlodlarining xalq an'analarini mujassamladi. Ilgari aholi o'rtasida sayillar, "Ramazon hayiti"- "Qurbon hayiti" kunlarida o'tkazilgan. Har yili bahor va kuzda ommaviy tomosha lar o'tkazish odat bo'lgan. Mana shu bayramlarda o'yinlar, sport o'yinlari, musobaqa, qo'g'irchoq, dorbozlar o'yinlari, kurash musobaqalari o'tkazilgan.

Dorbozlar o'z san'atlarining vujudga kelishi haqidagi rivoyatlarni maroq bilan hikoya qiladilar. Ularda yetilishicha, payg'ambar Ali doimo Haybar mamlakatidagi g'ayridinlarga qarshi kurashgan. Ularning Haybar shahridagi mustahkam qal'asini hech kim zabt eta olmagan. Qal'aning atrofi qoyatoshlar va suv bilan o'ralgan bo'lib, ulardan o'tish nihoyatda qiyin ekan. Ali qo'shinlarini boshlab kelib, qal'aga kirish yo'lini bilmagan. Shunda dor qurdirib, unga arqonlar torttirgan va uning barcha jangchilari ana shu arqonlar orqali qal'aga o'tgan. Ali g'ayridinlarni yengib, Haybarni zabt etgan va mazkur g'alabani nishonlashda dor inshoatini va darbozlarni olqishlagan. Xuddi shuning uchun O'zbekstonda darbozlarga alohida hurmat-e'tibor bilan qaraladi. Rivoyatlarda darbozlarning shaharlarga kelishi osoyishtalikka, qishloq joylarga kelishi mo'l hosil olinishiga sabab bo'ladi, degan naql bor. Bir vaqtlar O'zbekiston yog'ochoyoq o'yini keng tarqalgan. Yog'ochoyoqlar yugurib, sakrab, raqsga tushub va milliy cholg'u asboblarida, karnay, surnay va hokazolarda kuylar ijro etib ajoyib tomosholar ko'rsatgan. Mana shular haqida "Boburnoma"da anchagina ma'lumotlar bor. Xorazmda "Tayoq" o'yini keng tarqalgan. O'zbek xalq o'yinlarini mazmuniga ko'ra quyidagi tasniflash mumkin:

O'zbek xalq o'yinlarining tarixan vujudga kelishini tahlili qilib, dramalashgan o'yinlar o'zbek qo'g'irchoq teatrining negiziga aylangan qadimiy xalqning "Qo'g'irchoq o'ynatish" san'ati asosida paydo bo'lgan degan xulosa chiqarsa bo'ladi.

Muayyan badiiy obrazni ifodalaydigan qo'g'irchoq mamlakat va kishilar hayotidagi tarixiy turmush voqealarini aks ettiradi, madaniy maishiy o'zgarishlarni, odamlarning amalga oshirgan ishlarini, go'zalligi va kamchiliklarini ifodalaydi.

Dramalashgan o'yinlar va ko'pincha musiqa jo'rligida va qahramonlarning raqslari bilan o'tkaziladi. Bolalar katta yoshli kishilarning hayotini, mehnat faoliyatini, tabiat hodisalarini, odamlar, hayvonlar va qushlarning hatti harakatlarini kuzatib hamda xalq tomoshalarida qatnashib, o'zlari ko'rgan narsalar o'yinlarida tasvirlaganlar. Hayotni tasodifiy ravishda aks ettirish mazmunli-rolli, mazmunli-harakatli sport o'yinlariga asos bo'lgan.

Dramalashgan o'yinlarga o'zbek xalq ertaklari va afsonalari asos qilib olingan. Mana shunday o'yinlarning maqsadi ertaklar va afsonalarni ijro etishdir. Dramalashgan o'yinlar o'z mazmuniga ko'ra juda yorqin bo'ladi. Ularda ishtirok etuvchilar esa xoh hayvon yoki qush bo'lsin, xoh odam bo'lsin badiiy obrazning barcha xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirilgan personajlardir. Bunda hayvonot olami insonning xususiyatlariga ham

ega bo'ladi. Ertakning mazmuni, qatnashuvchi shaxslar o'rtasidagi kurash bolani qiziqtiradi va uning qalbini rom qiladi.

Kulgili o'yinlar xarakter va fe'l-atvorlarini mohirlik bilan yoritishga kishilardagi ayrim salbiy hatti-harakatlar ustidan kulishga asoslangan o'yinlardir. Bunday o'yinlar ayibdorlarni "jazolash" va shu bilan birga kutilmagan hamda tasodifiy elemertlarni kiritish maqsadida tashkil qilinadi.

Ularda o'zbek xalqi madaniyatining askiyachi va masxarabozlar keng shuxrat qozongan tarixi aks ettiriladi.

Qo'shiq va raqs o'yinlari xalq madaniyatining o'ziga xos janri, o'zbek xalqining milliy og'zaki, teatr va musiqa an'analari targ'ibotchisi sifatidagi folklorga asoslanadi. Ular o'zbek xalqining ma'naviy boyligini, estetik didini ifodalaydi.

Harakatli, sport musoboqasi o'yinlari bolalarning harakat faolligiga asoslanadi va ularning mushaklarini, harakat a'zolarini rivojlantiradi, shuningdek, sezgilarini shakllantiradi. Mazmunli-rolli va mazmunli-harakatli o'yinlar o'zicha jozibador va qiziqarli bo'lib, mukammal mazmun hamda turli harakatlarga ega. Bu o'yinlar bolalarni atrofdagi olam, tabiat, ayrim narsalarning sifatlari bilan tanishtiradi.

Ijodiy o'yinlarga quyidagilar kiradi:

- o'quvchilarning o'zlari o'zbek xalq ertaklari va afsonalari asosida yaratadigan o'yinlar;
- o'quvchilarning ijodiy qobiliyatkarini faollashtiradigan she'r to'qish, qo'shiq, raqs, imo-ishoralar, taqlid qilish va hokazolar bajariladigan o'yinlar;
- tasviriy ijodkorlikka, o'yinlar uchun kerakli narsalarni bajarishga doir o'yinlar.

Shaklan milliy va mazmunan zamonaviy o'zbek o'yinlari yosh avlodni tarbiyalash va har tomonlama kamol topshirishning asosiy omillardan biri bo'lib hisoblanadi.

Yosh avlodni har tomonlama kamol topgan jismonan sog'lom, baquvvat qilib tarbiyalash hozirgi davrimizning eng muhim vazifalaridan biridir. Shunday ekan, kelajagimiz bo'lmish bolalarimizning ilk yoshlik chog'idan boshlab, ularning jismoniy o'sishi va tarbiyasi bilan jiddiy shug'ullanish, ta'lim tarbiya metod va vositalaridan unumli foydalanish joizdir.

O'zbek xalq milliy harakatli o'yinlari bolalar folklorining kichik janrlaridan biri bo'lib sanaladi. Xalq og'zaki ijodi boshqa janrlari kabi milliy harakatli o'yinlar uzoq tarix osha bizgacha yetib kelgan. Milliy harakatli o'yinlarning uzoq umr ko'rib kelayotganining o'zi milliy harakatli o'yinlarning qudratli tarbiyaviy kuchga ega ekanligidan dalolat beradi. O'zbek xalqi milliy harakatli o'yinlarni o'ynash orqali bolalarni o'z xalqini hayoti, o'tmish tarzi, madaniyati, kasb-kori, hunarmandchiligi, ota-bobolarimizning aql-zakovati bilan tanishtiradi.

Demak, o'yinlar bolalarni o'z xalqining boy milliy an'analari, urf-odatlarini, yashash sharoitlari, ruhiy kayfiyatlari, ma'naviy qiyofasi, til xususiyatlarini tanishtiruvchi bir manbaadir.

O'zbek xalq milliy harakatli o'yinlari o'zining obrazlilik, sodda, aniq va ravonligi bilan bolalarga zavq beradi.

O'yin o'ynash jarayonida bolalar turli asosiy hayot uchun zarur bo'lgan harakatlarni bajaradilar. O'yinlar bolalarni jismonan o'stirish, chiniqtirish, rivojlantirishdan tashqari

ularni to'g'rilik, halollik, o'zaro yordam, mustaqillik va tashkilotchilik kabi chin insoniy fazilatlar egasi qilib tarbiyalashda juda muhimdir. Bolalar mustaqil ravishda o'yinlarni tashqil qilish, rollarni taqsimlash, o'z o'rtoqlarining hatti-harakatlariga baho berish kabi ko'nikma va malakalarga erishib boradilar. Shuningdek ularda chaqqonlik, epchillik, tezkorlik, kuchlilik tarkib topa boradi.

O'yinlar bolalarning barcha qiziqishlariga javob beradi, ana shuning uchun ham bolalar o'yinlarni juda-juda qiziqish bilan takror-takror o'ynaydilar.

Harakatli o'yinlarni o'tkazish bolalar bog'chasini kun tartibiga binoan kunning birinchi va ikkinchi yarmida sayrda rejalashtiriladi. O'zbek milliy o'yinlarni ochiq keng maydonda bog'cha maydonchasida o'tkaziladi. O'yin uchun tegishli jihozlarni oldindan tayyorlash talab etiladi. Jihozlar sifatida: to'plar, arqonchalar, chambaraklar, niqoblar va shu kabilardan foydalanish mumkin. O'yinlar kichik guruhlarda 10-15 minut, katta va tayyorlov guruhlarda 25-30 minut davom etadi.

O'yinlarni tashkil etish va qiziqarli ravishda o'tkazish uchun ko'p jihatdan tarbiyachiga bog'liq. Kichik va o'rta guruhlarda asosan soda qoidali syujetli o'yinlar o'tkaziladi. Masalan "Oq terakmi-ko'k terak", "Chitti gul", "Qoch bolam qush keldi". Bu guruhlarda tarbiyachi asosiy rolni o'zi bajaradi.

Kata va tayyorlov guruhlarda tarbiyachi o'yindagi asosiy rolni bolalarga bajarishni taklif etadi. Bolalar o'yinni boshlanishini chorlamalar bilan boshlashadi. Chorlamalar harakatli o'yinni tashkil etishning eng qulay metodi bo'lib, bunda bolalar bir-birini qo'shiq aytib o'yinga chaqiradilar.

Ular bolalarning o'yinga chorlovchi kechinmalarni konkret vaziyatga bog'liq holda ifodalaydi va hamisha o'yinga da'vat etish, chaqirish vazifasini bajaradi:

Bola bo'lsang, kelaver,
O'ynab-o'ynab ketaver,
Kel-ho, kel
Kel-ho, kel

O'yinning ikki qarama-qarshi tarifiga bo'lish asosida tashkil etishmoqchi bo'lishsa, masalan, "Oq terakmi, ko'k terak" kabi o'yinlarda cheklashmashoq aytiladi. Cheklashmashoq odatda, ikki bolaning o'zaro yashirincha kelishib til bitiktirib o'zlariga yasama "ot qo'yish"lari asosida yuzaga keladi. Bu hol ularning ona boshi bilan qiladigan savol-javoblarning sirliligini ta'minlaydi. Cheklashmashoqlar aksariyat hollarda ona boshiga murojaat qilish bilan boshlanadi:

-Mati, mati,
-kimning navbati?
-Meniki ona boshlaridan biri.
-Toji tillo xo'rozni olasanmi? Yo
-Chala mullo tovuqni?
-Toji tillo xo'roz!
-O't men tomonga!

Bunday chekishmashoqlar murojaat va savoldan iborat bo'lsada, savol hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bolalar onaboshiga murojaatida uning tashqi ko'rinishini ta'riflashni ham unitishmaydilar.

Ona boshi, ona boshi,
Yigitlarning qalam qoshi,
Nima eysan? Ne olasan?
Atalami? Palov oshmi?

Bolalar o'yinini tashkil eitshda navbatda turuvchi aniqlashga ehtiyoj sezsalor, sanama aytib, galda qoluvchini belgilaydilar.

Sanamalar keng tarqalgan o'yinboshi turlaridar bo'lib o'yin boshlanishini oldindan, navbatda turuvchini aniqlash, galda qoluvchini belgilash vazifasini bajaradi.

Sanamalaridagi sanash ohangi qo'l yoki oyoq harakatlari bilan to'ldirilib, tasdiqlab turiladi. Ona boshi har bir so'zni yoki iborani sanoq ritmiga muvofiq shovqin ayta turib, har bir ritmik taktida qo'lini navbatma-navbat o'yin ishtirokchilarining ko'ksiga tekkiza boradi, shu asosda sanoq ritmini burtirib ta'kidlaydi va qo'li tekkan bola davradan chiqib turadi. Eng so'ngi so'z kimni chekiga tushsa, o'sha navbatda qoladi.

Sanalarda raqamlar shunchaki tilga olinmaydi, balki ritmik asosni tashkil qilish niyatida vaznga solinadi.

Bir, ikki, uch.... O'n olti,
O'n olti deb kim aytdi?
O'n olti deb men aytdim.
Ishonmasang sanab boq:
Birov,
Ikkov,
Uchov,
Qoch...ov!

Ko'pgina o'yinlar sanama aytishdan boshlangan bo'lib, sanama bolalar orasida navbatni aniqlash metodi sifatida qo'llaniladi. Turlu yosh guruhlarda ayniqsa katta va tayyorlov guruhlarida tarbiyachi bolalarga o'yinlarni mustaqil tashkil etishga o'rgatib boradi.

Tarbiyachi o'yin qoidalarining buzulmasligini, barcha bolalarning unga to'liq amal qilishlarini kuzatib boradi. O'yindagi so'zlarni qofiya ritmlarining bajarilishini va ritmga monan harakatlarning bajarilishini o'rgatadi. Masalan: "Chittigul" o'yinida "Chittigul-o chitti gul" so'zlarini aytayotganda qarama-qarshi turgan bolalar chapak chalib qo'llarini bir-birlariga tekkizadilar, Ha-yu chittigul, ha-yu chittigul so'zlarini aytish bilan barovar bolalar aylanadilar. Oq terakmi-ko'k terak, "Tapur-tupur qayrag'och" kabi o'yinlarida ham so'z ritm harakatlari ham ohang holda qo'llaniladi. O'yinlarni variantlashtirishga ham tarbiyachi alohida e'tibor bermog'i zarur, chunki o'yinlar variantlashtirilganda, bolalar o'z kuchlarini tejashga ortiqcha harakatlarni bajarmay, maqsadga erishishga harakat qiladilar: qiyin vaziyatlardan chiqish metodlarini o'zlashtiradilar. O'yinlarni bolalarga variantlashtirib berishning yana bir qimmatli tomoni shundaki, o'zlari uchun mushkulroq bo'lgan vazifalarni bajarish yo'lida uchraydigan qiyinchiliklarni yengishga harakat qiladilar. O'yin

davomida bolalar murakkab vazifalarga ham duch keladilar. Ularni hal etishga tarbiyachi bolalarning jismoniy rivojlanganliklarini, harakat malakalarini qay darajada egallaganliklarini hisobga olgan holda kuchi yetadigan bolalarni jalb etmog'i lozim. O'yin jarayonida tarbiyachi bolalarga ortiqcha yuk tushmasligini nazorat qilib borishi, charchagan, hansirab qolgan bolalar vazifalarini yengillashtirishga, tez harakatni tinch holat bilan almashtirib, turish maqsadga muvofiq sanaladi.

Milliy harakatli o'yinlarni tashkil eitish va ularga rahbarlik qilish davomida tarbiyachi ta'limning turli xil metodlaridan tushuntirish, ko'rsatish, tavsiya berish, bolalar harakatini ma'qullash, o'yinga baho berish kabilardan foydalanadi. O'yin davomida tarbiyachi bolalarda emotsional-ko'tarinki kayfiyatni yaratish va uni o'yin oxirigacha saqlashga erishmog'i lozim.

Hozirgi shatoitda o'zbek xalq o'yinlari o'zgacha tus olgan. Asosan ularning maqsadi o'zgardi, mazmuni yangilandi, barqaror qoidalar vujudga keldi. Birmuncha xalq o'yinlarining yangi turlari hamda variantlari paydo bo'ldi.

Yosh avlodni har tomonlama kamol topgan jismonan sog'lom, baquvvat qilib tarbiyalash hozirgi davrimizning eng muhim vazifalaridan biridir. Shunday ekan, kelajagimiz bo'lmish bolalarimizning ilk yoshlik chog'idan boshlab, ularning jismoniy o'sishi va tarbiyasi bilan jiddiy shug'ullanish, ta'lim-tarbiya metod va vositalaridan unumli foydalanish joizdir.

O'yinning nomi: "Chillak".

2.O'yinning maqsadi: Bolalarni jamoaga uyushtirish, ularni jismonan chiniqtirish, cho'plarni uzoqroq otishga o'rgatish, ularni ko'z qiri bilan qancha chamalashga, (masofa necha qadam chiqishini) va ularni ravon sanashga o'rgatish hamda nafas rostlab yugurishga, chaqqon, epchil va signalga rioya qilishga o'rgatish.

3.O'yinga tayyorgarlik: bolalarga bu o'yinni o'ynash uchun 2 dona g'isht va tol darahtidan qilingan 2 dona cho'p kerak bo'ladi

O'yinning borishi; Birinchi bolalar qur'a tashlab kim birinchi boshlashini belgilab oladilar. Keyin 2 dona g'ishtning orasini 20 santimetr uzoqlikda qo'yib o'yinni boshlanadi. Birinchi bola 1 ta cho'pni g'isht ustiga qo'yib ikkinchi cho'p bilan pastdagi cho'pni ozgina yuqori ko'tarib uzoqqa otadi. Cho'p tushgan joy chizib belgilanadi. O'yin boshlagan bola g'ishtdan cho'p tushgan joygacha necha tayoq chiqishini chamalab aytishi lozim. Agar cho'p tushgan joy bola aytganidek 20 yoki 30 ta tayoq chiqsa shuncha ochko to'plagan bo'ladi. Agar tayoq tushgan joy 20 yoki 30 tayoq chiqmasa bola yutqazadi va keyingi bolaga beradi. Bu o'yinni 3 kishi yoki 4 kishi o'ynashi mumkin. Eng kam ochko to'plagan bola 200, 300 yoki 1000, ochko to'plagan bo'lsa shuncha joyni belgilab, chillak g'ishti chiqadigan joydan 1000 g'isht chiqadigan joygacha "suv" so'zini bir nafasda to'htamasdan aytib borishi kerak va cho'pni o'sha joyga qo'yishi kerak.

O'yinni yakunlash; O'yinda yaxshi qatnashgan bolalarni rag'batlantirib o'yinni yakunlaymiz.

1.O'yinning nomi va mazmuni

2.O'yin qoidasi

3.O'yinga tarbiyachining tayyorgarligi

- 4.O'yinga bolalarni uyushtirish
- 5.O'yinga bolalarni qiziqtirish
- 6.O'yin mazmuni va qoidasi
- 7.Rollarga bo'lish
- 8.Tarbiyachining o'yinga rahbarligi
- 9.O'yin jarayonida tarbiyaviy ishlarni o'tkazish
- 10.O'yin jarayonida mayday va yurik qo'llanmalardan foydalanish
- 11.O'yinni tashkil etish, davomiyligi, takroriyliqi, joylarni belgilanishi, qo'llanma va maskalarni tarqatish va yig'ib olish usullari
- 12.Bolalarning kayfiyati
- 13.Tarbiyachining mohirligi
- 14.O'yin mazmuni va o'tkazish uslubiga o'z mulohazangiz.

Milliy halq o'yinlari sog'lom avlod tarbiyasida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Milliy halq o'yinlarining har birida halqimiz madaniyati, urf-odatlar hamda qadriyatlariga hos bo'lgan fazilatlar o'z tajassumini topadi. Masalan, «arqon tortish» o'yinida o'zaro jamoaviylik, ahillik; kurash bahsida halollik, mardlik; chavandozlik musobaqasida ephillik, chapdastlik; «bekinmachoq» o'yinida topqirlik, hushyorlik kabi hislatlar tarbiyalanadi. SHuning uchun ham tarbiyachi hamda jismoniy tarbiya yo'rikchilari mashg'ulotlarda halq o'yinlarini to'g'ri tanlashi, ularni ta'lim-tarbiyaviy jihatdan samarali tashkil qilishi zarur. Yahshi tanlangan o'yin ta'lim va tarbiya muvaffaqiyatining muhim shartidir. O'yinni o'tkazishga tayyorlanishda o'yingda qatnashuvchilarning tarkibi, yosh hususiyatlari, shuningdek, jismoniy tayyorgarliklarini hisobga olib, darsning asosiy vazifalarini belgilab olish zarur. YUqoridagilardan hulosa qilib aytish mumkinki, sog'lom avlod tarbiyasida halq o'yinlaridan yuqori saviyada foydalanish, ularning turli ko'rinishlarini ta'lim-tarbiya jarayoniga teran tatbiq qilish kutilgan pedagogik natijalarni beradi.

Zero, sog'lom avlod tarbiyasi – yurtimiz kelajagining ishonchli kafolatidir

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Avloniy A. Turkiy guliston yohud ahloq: ibratli hikoyalar. – T.: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi",2006.
2. Qalqonov E. Barkamol avlod vatan tayanchi. // "Jamiyat va boshqaruv" jurnali, 2009 yil 3-son.
3. Usmonho'jaev T., Ho'jaev F. 1001 o'yin. – T.: Ibn Sino nomidagi nashriyot, 1992 yil
4. T.S.Usmonho'jaev , M.M. Rahimov . O'zbek xalq harakatli o'yinlar. – T.: "O'qituvchi", 2004.
5. . Holmirzaev E.J., Ho'janioyozov B.I. Variativ o'yinlar –salomatlik garovi. – T., 2012.



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA "SAN'AT" MARKAZIDA
APPLIKATSIYA ISHINING MAZMUNI

Fayzullayeva Iroda Bahtiyorovna
Muhiddinova Dilfuza Sherdor qizi
Toshkent pedagogika kolleji o'qituvchilari

Inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Halqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan-texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

Mamlakatimizda amal qilayotgan uzluksiz ta'lim tizimining maktabgacha ta'lim bosqichi bolalarni jismoniy, ma'naviy, aqliy, axloqiy va estetik jihatdan tarbiyalashning dastlabki va eng muhim jabhasi hisoblanadi. SHuning uchun ham, aynan maktabgacha ta'lim yoshi bolalarning dunyoqarshini shakllantirishning asosiy bo'g'ini sifatida e'tirof etiladi.

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarining 5 sohasi ijodiy rivojlanish sohasi bo'lib, "Ijodiy rivojlanish" sohasi quyidagi kichik sohalarga bo'linadi

- dunyoni badiiy tasavvur etish;
- badiiy-ijodiy qobiliyatlar.

Maktabgacha ta'lim muassasalarining birlamchi yo'nalishi maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy-estetik tarbiyalash hisoblanadi. Bu yo'nalishning samarasi estetik yo'nalishning barcha vositalarini (teatr, musiqa, badiiy adabiyot, rasm chizish, applikatsiya) kompleks tarzda qo'llanilgandagina aniq bo'ladi. Rasm chizish, loydan buyumlar yasash va applikatsiya-bu tasviriy faoliyat turlari bo'lib, ularning asosiy vazifasi-tevarak atrofni obrazli aks ettirish hisoblanadi. Tasviriy faoliyat bolalarni ongli tomondan tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi. Birorta predmetni chizish yoki yasash uchun albatta u bilan oldindan tanishish yoki kuzatib chiqish, uni shakli, katta-kichikligini, qismlarning joylanishi, rangini bilish kerak bo'ladi. Bu jarayonida ko'rish, sezish, qo'l harakatlari ishtirok etmay qolmaydi. Bolalar predmet va hodisalarni kuzatish va ko'rib chiqish jarayonida bolalar predmetni katta-kichik guruhlarga bo'lish, uni shaklini o'zgartirish, rangini turli-tumanligi bilan tasvirleydilar. Shuningdek, tasviriy faoliyat jarayonida bolalar turli hil material(qog'oz, mel, bo'yoqlar) bilan ularning o'ziga xos xususiyatlari, ular bilan ishlash texnikasi bilan tanishadilar, bu esa bolalarni aqlan o'sishiga sabab bo'ladi. Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda fikr yuritish operatsiyalari (tahlil, sintez, taqqoslash umumlashtirish)ni rivojlanishga imkon beradi, bu o'z navbatida



bolalarni oqilona o'sishiga olib keladi. Bu jarayonida bolalarning nutqi rivojlanadi. Sensor tarbiyani amalga oshirishda tasviriy faoliyatining ahamiyati katta. Chunki bolalar predmetlar bilan uzviy bog'lanadilar, ularning o'ziga xos sifatlari, shakli, rangi bilan, katta-kichikligi bilan tapishadilar, ularni farqini, o'xshashligini aniqlaydilar, bu esa bolalarni sensor tarbiyalashga, ko'rgazmali, obrazli fikr yuritishga imkon beradi. Tasviriy faoliyat bolalarni axloqiy tarbiyalaydi. Chunki, bolalar o'z ishlarida bizning hayotimizda, jamiyatda bo'layotgan voqea-hodisalarni aks ettiradilar, ulardan mamnun bo'ladilar, hayajonlanadilar.

Tasviriy faoliyat metodikasida rasm solish, loydan buyum yasash metodikasi bilan bir qatorda applikatsiya ham asosiy turlarining biri sifatida maktabgacha ta'lim muassasasi dasturiga kiritilgan. Applikatsiya mashg'uloti bolalarni har tomonlama o'sishida katta ahamiyatga ega. U bolalardagi hayolni uyg'otadi, ijodini tug'diradi, kuzatuvchanligini faollashtiradi, diqqat va tasavvurini, irodasini tarbiyalaydi. Qo'l malakasini rivojlantiradi, shaklini sezishni, mo'ljallay olish, rang sezish hissini rivojlantiradi.

Olimlar fikricha, insonlar eng kuchli rang sezishda 1300 xil rangni ajrata oladilar. Demak, atrofimizdagi olam, nozik rangni ajrata oladigan mehnatini ayamaydigan asosida biladi va go'zal bo'ladi. Rang sezishni o'stirish orqali bolalarda estetik tarbiya qobiliyatini tarbiyalanadi. Qirqish texnologiyasini egallagan holda qog'ozdan predmetli, mazmunli, dekorativ applikatsiya, quritilgan o'simlikdan, somondan applikatsiya bajaradilar.

Applikatsiya so'zi lotincha so'zdan olingan bo'lib, «joylashtirish» degan ma'noni anglatadi. Applikatsiya tasviriy faoliyatning bir turi. Applikatsiyada ishlatiladigan ashyo o'ziga xosligi bilan ajraladi. Qog'oz, somon, quritilgan o'simlik o'ramga joylashtirilib, turli hil elim bilan elimlanadi. Mato, charm, jun, pahmoq–ularda esa tiqiladi. Applikatsiya bir xil rangli yoki rangli bo'ladi. Bir hil applikatsiya grafik tus bersa, ko'p ranglisi esa go'zallik. Uni ham buni ham badiiylik bo'ladi. Applikatsiya belgisi bo'lib, chamalash va buyumni hajmiy tasviriy harakterida bo'ladi. Applikatsiya o'ziga xosligi katta doirachalardan iborat.

Rang applikatsiyaning ifodalash darajasini oshiruvchi vositadir. Shuning uchun applikatsiya ishida ranglarning uyg'unlashuviga mos tushishi xayoliy va dekorativ kompozitsiyaning ifodaliligi garmoniyasini izlab topishdir. Applikatsiya talabalarda qog'ozda kompozitsion o'quvni bilishga sharoit yaratadi. Talaba tayyorlagan applikatsiya ishi estetik talabga javob berishi kerak. Applikatsiya predmetning umumiy, tipik va individualdan belgisini ko'ra olishiga o'rgatadi, ularni o'zaro bog'liqligi, butun, qismlar, rita, simmetrik chamalash rivojlanadi, predmetning shaklini, rangini bosqichma–bosqich ko'rsatish malakasini ko'rsata oladi.

Applikatsiya badiiy ishlarni oddiy va mos vosita orqali haqqoniy asosni saqlagan holda amalga oshiruvchi faoliyatdir. Qaysiki, mustaqil asar pannolar, surat, plakat. Ilyustrativ tasvir elementar mamavzutikaga o'rgatuvchi ko'rgazma qurol tabiat, nutq o'stirish metodikasi uchun ijodiy o'yin, o'yinchoq, 8-mart bayram sovg'asi, qurolli kuchlar va boshqa bayramlarda bezatish uchun, devoriy gazeta, ko'rgazma, Maktabgacha ta'lim muassasasini bezatish ishlarida ham bolalar applikatsiya ishlarining o'rni katta.

Applikatsiya ishini bajarishda ishlatiladigan kerakli asbob uskunalalar. Asboblar ishlatilishiga mos bo'lishi bilan birga estetik talabga javob berishi kerak. Ayrim kerakli ashyoni pap'e-mashe usulida qaychi qo'yish uchun qalamdon yasash, mo'yqalam qo'ygichni esa qalin kartondan yasash mumkin. Applikatsiya uchun kerakli ashyo murakkab emas; qaychi, elim uchun mo'yqalam, oddiy qalam, qirqim uchun quticha, lattacha, gazeta qog'ozi.

Qaychi–uchi to'g'ri, katta–kichik, katta qaychi 14-20 sm, to'g'ri, uchi uchli va aylanaviy katta tasvirlarni qirqish uchun.

Kichik qaychi: 8-10 sm mayda detallarni qirqish uchun qaychi o'tkir bo'lishi kerak. Stakanga qaychi uchi pastga qaragan holda qo'yilishi, do'stiga uzatganda ham uchini ushlagan holda o'zlatish kerak, qaychi ko'ndalangida qo'lni silkitish, o'qtalish mumkin emas. Unda ko'rsatish sifatida foydalanish mumkin emas.

Elim uchun mo'yqalam. Masalan: 2-3 ta mo'yqalamga ega bo'lish kerak. Mo'yqalam applikatsiyaning mazmunini katta–kichikligiga bog'liq. Katta hajmdagi applikatsiyaga uchi enli mo'yqalam, mayda detallarga esa, kichik mo'yqalamdan foydalanish maqsadga muvofiq. Ish tugagandan so'ng, mo'yqalamni yahshilab yuvib, artib, quritib, mo'yini yuqoriga qilib qo'yish kerak. Mo'yini tuzilishini saqlash uchun.

Mo'yqalam qo'ygich-elim ishlatishda elimning ortiqchasi surkalib ketmasligi stolni iflos qilmasligi uchun ishlatiladi.

Qalam. masalan: tasvir konturini chizish uchun oddiy, M va TM (yumshoq, yarim yumshoq) qalam ishlatiladi. Ular yahshi ochilgan, kontur chizishda ruchka va himiyaviy qalamni ishlatish mumkin emas.

Elim uchun idish-elim kichik idishchalarga solib bo'ladi, plastmassa idishlar, sopol taqsimchalar tanlanadi. Ishlatib bo'lingandan so'ng tezda yuvib qo'yish kerak.

Applikatsiya mavzuli yoki qirqilgan dekorativ shakllarni asosiy fonga turli predmetlar yordamida badiiy bezash uchun ishlatiladigan halq amaliy san'atining bir turi. Applikatsiyaning o'ziga hosligitasvirning va uning ishlashida hulosaga chiqaradi. Applikatsiya mashg'ulotlari bolaning tasviriy malakalarini shakllantirishga va ijodiy qobiliyatlarini o'sishiga yordam beradi. Applikatsiya o'z ichiga hayolni, tasvirni, go'zallikni ko'ra olish qobiliyatlarini oladi. Applikatsiya mashg'ulotlarida malakalarini bolalar boshqa faoliyatda ham qo'llashlari mumkin. Applikatsiya mashg'ulotlarini to'laqonli o'tkazish uchun material va jihozlarni oldindan tayyorlab qo'yish muhimdir.

Applikatsiya o'rgatish material bilan tanishish turli shakllarni qirqa olish malakalarini egallash, ularni ma'lum tartibda joylashtirish, obraz va syujetga mos ravshda yopishtirishni tahmin qiladi. Applikatsiya o'rgatish bolalarni qabul qilish jarayonini o'stirishga asoslanadi. Shakl, hajm, rang, predmetni o'zaro munosabatlari haqidagi taasurotlarni boyitish bolalarni mashg'ulot vaqtida fikrlash va (taasurot) tasavvurni ishlatishga yordam beradi. Ammo har bir yosh guruhlarda applikatsiya mashg'ulotlari qo'llaniladigan ta'limiy usullari o'ziga hoshususiyatga egadir.

Maktabgacha ta'lim muassasasida o'tkaziladigan applikatsiya mashg'ulotlari bolalarning sezish qobiliyatlarining rivojlanishiga, ta'sir etib, ularni estetik jihatdan



tarbiyalashni va ijodiy faolligini shakllantirishga, shuningdek, mehnat ko'nikmalarini shakllantirishga va ularda harakterning irodaviy xususiyatlarini vujudga kelishiga ta'sir etadi. Applikatsiya mashg'uloti jarayonida bola rang va uning rang tusi bilan tanishadi mashq qiladi, shaklni va predmetni tuzilishini bilishga o'rganadilar. Ritm va simmetriya haqida tushunchalari kengayib borib, qog'oz varag'ida mo'ljallay olishga o'rganadilar. Bolalar applikatsiya faoliyatida rang va uning uyg'unlashuvi bilan juda ko'p marta mashq qiladilar, shuning uchun ular ko'plab rang va uning uyg'unlashuvini tezda esda saqlab qoladilar va bir-biridan ajrata oladilar.

Applikatsiya mashg'ulotlarida bolalar ko'pincha geometrik shakllar bilan munosabatda bo'ladilar natijada ular tevarak atrofdagi predmetlarda geometrik shakllarni abstrakt ko'rinishini ko'ra olishga o'rganadilar. Murakkab tuzilgan shakllarni tuzilishini yahshiroq tushunishiga, ularni to'g'ri tahlil va sintez qilishga o'rganadilar. Bolalar geometrik shakllar bilan tanishishlari jarayonida hali o'zlariga tanish bo'lmagan figuralarning nomini to'g'ri aniqlashga o'rganadilar. Masalan, bolalar shaklining burchaklarini sanab uning 3 ta yoki 4 taligini natijada uchburchak va to'rtburchak, keyinchalik ularni o'zlari mustaqil ko'pburchak kabi shakllarining nomini bilib boradilar. Applikatsiya mashg'ulotlari bolalarda kattalik va fazoni mo'ljallash bo'yicha olgan tasavvurlari va qog'oz betini to'g'ri mo'ljallay olish kabi o'quvlari rivojlanadi. Bolalar shaklni yopishtirishni elimsiz aloqa qilishlari natijasida bu shaklni mantiqiy va ritmik holda joylashtirishga o'rganishlari, asosan o'rtasida o'ngda, chapda, yuqorida, pastda, orqada, qarama-qarshi tamonda, atrofida kabi so'zlar bilan tanishib oladilar. Bolalarni qog'oz betida nuqta orentirovka qilishga o'rgatish bolalarni maktabda muvaffaqiyatli o'qishlarini asosiy shartlaridan biridir.

Bolalar applikatsiya mashg'ulotlarida juda ko'p qimmatli mehnat malakalari va ko'nikmalarini egallaydilar. Ular ozoda, batartib yopishtirishga, o'z ish joylarini toza saqlashga o'rganadilar va murakkab asbob hisoblangan qaychi bilan ishlashga o'rganadilar. Bularning barchasi bolalarning maktabdagi qo'l mehnati darsiga tayyorlaydi. Bolalar engil vam ayda qog'oz shakllari bilan ishlashlari natijasida, ular o'z harakatlarini tezligini to'htatib turishga o'rganadilar. Mashg'ulot jarayonida ular o'z bo'lsada-qiyinchilikni engadilar, bu esa bolalarda harakterining irodaviy hususiyatini chidam, sabr kabilarni tarbiyalaydi.

ADABIYOTLAR:

1. T. S. Komarova Metodika obucheniya izobrazitel'noy deyatel'nosti i konstruirovaniyu. (red.). — 1991 g.
2. Sokol'nikova, N. M. Izobrazitel'noe iskusstvo i metodika ego prepodavaniya v nachal'noy shkole : Risunok. Jivopis'. Narodnoe iskusstvo. Dekorativnoe iskusstvo. - M. : Akademiya, 2008
3. YU. Supova N.YU. Qo'l mehnatini o'qitish mahsus metodikasi va predmetli -amaliy ta'lim 2012y



4. B.N.Oripov Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi.T.O'qituvchi 2004
5. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga ko'yiladigan davlat talablari
6. Ilk qadam davlat dasturi



ПОНЯТИЕ О НЕЙРОННЫХ СЕТЯХ И ИХ ПРИМЕНЕНИИ

Б.К.Туремуратова

*Студентка 2-курса по направлению «Компьютер инжиниринг»
Нукусского филиала Ташкентского университета информационных технологий
имени Мухаммада аль-Хорезми, Нукус, Узбекистан*

Б.М.Умбеталиев

*Студент 4-курса по направлению «Компьютер инжиниринг»
Нукусского филиала Ташкентского университета информационных технологий
имени Мухаммада аль-Хорезми, Нукус, Узбекистан*

Аннотация: *В данной статье рассматривается понятие об нейронных сетях, дается информация о применении нейронных сетей, дается краткое о принципе работы нейронных сетей, дается краткая информация об предназначении нейронных сетей.*

Ключевые слова: *нейронные сети, применение нейронных сетей, алгоритмы нейронных сетей, алгоритмы машинного обучения.*

Алгоритм искусственной нейронной сети обучения нейронная сеть, или просто нейронная сеть, представляет собой вычислительную систему обучения, которая использует сеть функций для понимания и преобразования входных данных одной формы в желаемый результат, обычно в другой форме. Концепция искусственной нейронной сети была вдохновлена биологией человека и тем, как нейроны человеческого мозга функционируют вместе, чтобы понимать входные данные от человеческих органов чувств.


Нейронные сети — лишь один из многих инструментов и подходов, используемых в машинного обучения алгоритмах. Сама нейронная сеть может использоваться как часть многих различных алгоритмов машинного обучения для обработки сложных входных данных в пространство, понятное компьютерам.

Нейронные сети сегодня применяются для решения многих реальных проблем, включая распознавание речи и изображений, фильтрацию спама в электронной почте, финансы и медицинскую диагностику, и это лишь некоторые из них. [1].

Алгоритмы машинного обучения, использующие нейронные сети, обычно не требуют программирования с конкретными правилами, определяющими, чего ожидать от входных данных. Вместо этого алгоритм обучения нейронной сети учится, обрабатывая множество помеченных примеров (то есть данных с «ответами»), которые предоставляются во время обучения, и используя этот ключ ответа, чтобы узнать, какие характеристики ввода необходимы для построения правильного вывода. Как только будет обработано достаточное количество примеров, нейронная сеть может начать обрабатывать новые, невидимые входные данные и успешно возвращать

точные результаты. Чем больше примеров и разнообразия входных данных видит программа, тем более точными обычно становятся результаты, потому что программа учится на опыте [2].

Эту концепцию лучше всего понять на примере. Представьте себе «простую» задачу — попытаться определить, есть ли на изображении кошка. В то время как человеку это довольно легко понять, гораздо сложнее обучить компьютер распознавать кошку на изображении с помощью классических методов. Учитывая различные варианты того, как кот может выглядеть на картинке, написать код для каждого сценария практически невозможно. Но с помощью машинного обучения, а точнее нейронных сетей, программа может использовать обобщенный подход к пониманию содержимого изображения. Используя несколько уровней функций для разложения изображения на точки данных и информацию, которую может использовать компьютер, нейронная сеть может начать выявлять тенденции, существующие во множестве примеров, которые она обрабатывает, и классифицировать изображения по их сходству.




(изображение взято из Google Tech Talk Джеффа Дина в кампусе Сеула 7 марта 2016 г.) После обработки многих обучающих примеров изображений кошек алгоритм получил модель того, какие элементы и их соответствующие отношения на изображении важны для учитывать при принятии решения о том, присутствует ли кошка на картинке или нет. При оценке нового изображения нейронная сеть сравнивает точки данных о новом изображении с его моделью, которая основана на всех предыдущих оценках. Затем он использует некоторую простую статистику, чтобы решить, содержит ли изображение кошку или нет, основываясь на том, насколько точно оно соответствует модели.

В этом примере слои функций между входом и выходом составляют нейронную сеть. На практике нейронная сеть немного сложнее, чем показано на изображении выше. На следующем изображении немного лучше показано взаимодействие между слоями, но имейте в виду, что существует много вариантов взаимосвязей между узлами или искусственными нейронами:

Нейронные сети можно применять для решения широкого круга задач и оценивать множество различных типов ввода, включая изображения, видео, файлы, базы данных и многое другое. Они также не требуют явного программирования для интерпретации содержимого этих входных данных. [3].

Из-за обобщенного подхода к решению проблем, предлагаемого нейронными сетями, практически нет ограничений для областей, в которых может применяться этот метод. Некоторые распространенные приложения нейронных сетей сегодня включают распознавание изображений/образов, прогнозирование траектории самоуправляемого транспортного средства, распознавание лиц, интеллектуальный анализ данных,



фильтрацию спама в электронной почте, медицинскую диагностику и исследования рака. Сегодня существует гораздо больше способов использования нейронных сетей, и их внедрение быстро растет.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Бессмертный И.А. Искусственный интеллект – СПб: СПбГУ ИТМО, 2010. – 132 с.
2. Белов С., Каткало В. Дефицит искусственного интеллекта. – Режим доступа: <https://www.vedomosti.ru/opinion/articles/2017/03/21/681987-defitsit-iskusstvennogointellekta>
3. Васильева Д. Тенденции в развитии искусственного интеллекта. – Режим доступа: http://robotoved.ru/iskusstvennii_intellket_development/

BOSHLANG'ICH SINFLARDA DASTLABKI MATEMATIK KO'NIKMALARNI SHAKLLASHTIRISH TEXNIKALARI

Inomova Umida Telmanovna

Toshkent shahar Yashnobod tumani 339-umumiy o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda dastlabki matematik ko'nikmalarni shakllashtirishda e'tibor berilishi kerak bo'lgan psixologik-illustrativ jihatlar, raqamlar va matematik algoritmlarni o'qitishning optimal strategiyalari ko'rib chiqildi. Shuningdek, maqolada matematikani o'qitish jarayonini hayotiy masalalar bilan uyg'unlashtirish va o'quvchilarda tanqidiy, mantiqiy va tahliliy fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish masalalari ham yoritib o'tildi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются психолого-иллюстративные аспекты, цифры и оптимальные стратегии обучения математическим алгоритмам, которые следует учитывать при формировании базовых математических навыков в начальной школе. Также в статье рассматриваются вопросы совмещения процесса обучения математике с жизненно важными вопросами и развития у учащихся навыков критического, логического и аналитического мышления.

Kalit so'zlar: matematika, usul, texnika, ko'nikma, arifmetika, algoritm, matematik amallar, raqamlar, hisoblagichlar, qo'shish, ayirish, ko'paytirish, bo'lish.

Ключевые слова: математика, метод, прием, умение, арифметика, алгоритм, математические операции, числа, счетчики, сложение, вычитание, умножение, деление.

Matematik tushunchalar labirintida bolalarga yo'l ko'rsatish juda qiyin vazifa bo'lishi mumkin. Biroq, o'qituvchilar jarayonning foydali bo'lishini ta'minlash uchun bir nechta usullardan foydalanishlari mumkin.

Muvofiqlik. Matematika mashg'ulotlari ko'p jihatdan boshqa o'quv dasturlariga kiritilishi mumkin. Misollar, oddiy shakllar bilan yaratilgan naqshlarga asoslangan badiiy loyihani va vaqt chiziqlari qanday ishlashini o'rganish imkoniyati sifatida tarix mavzusini o'z ichiga oladi.

Hamkorlik. 2010-yil 12-oktabrda chop etilgan "International Journal for Mathematics Teaching and Learning" jurnalida e'lon qilingan tadqiqotda Kristin Surtam va Nensi Vezina bolalarga o'z strategiyalarini ishlab chiqishga ruxsat berilganda kuchliroq matematik ko'nikmalar hosil qilishini aniqladi. Munozara uchun imkoniyatlarni rejalashtirish o'rganishni qo'llab-quvvatlaydi va o'qituvchilarga noto'g'ri tushunchalarni tuzatishga yordam beradi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning matematik ongini rivojlantirishda o'zaro bahs-munozara usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Biror bir raqamni ifodalash uchun shu sondagi biror obyektни topishni topshiriq berish mumkin. Masalan, 5 raqamini nimalarda ko'rsa bo'ladi. Bolalar qo'l barmoqlarini, 5 qirrali yulduzni yoki kimdir 5

ta do'stini misol qilib keltirishi mumkin. Bunda bolalar o'zlariga qulay bo'lgan illustratsiya orqali raqamni eslab qolish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bolalarning ushbu misollaridan so'ng 1 dan 5 gacha raqamlar yozilgan 5 ta turli rangdagi sharlarni yorish mashqini o'tkazish ham mumkin.



Turli xillik. Bir qator o'rganish tajribasini taqdim etish mavhum tushunchalarni mustahkamlashga yordam beradi. Yosh bolalar naqshlarni o'rganish uchun rangli munchoq taqinchoqlardan foydalanishlari mumkin.




Katta yoshdagi bolalarga belgilangan byudjet doirasida sinfni qayta bo'yash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni topish va yozib olish kabi qiyinchiliklar berilishi mumkin. Bunday loyihalar bolalikdan tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ijodkorlik. Qo'shiqlar, hikoyalar va o'yinlar bolalarning ishtirokini jalb qiladi va rag'batlantiradi.

Matematikada aqlli bo'lish uchun takrorlash, faol o'rganish va mavzuga ijobiy munosabat uyg'unlashadi. Ko'pgina o'quvchilar ish qiyinlashganda va o'rganishdagi bo'shliqlar aniqroq bo'lganda, matematikaga nisbatan unchalik ijobiy bo'lmagan fikrni rivojlantiradilar. Matematika - bu bolaning maktabdagi faoliyati davomida oldingi bilimlariga asoslanishda davom etuvchi fan, shuning uchun asosiy ma'lumotlarni olish va borish davomida ularni ko'rib chiqish ma'lumotni yangilab turish va ko'nikmalarni mustahkamlashga yordam beradi.

Ko'rib chiqish asoslari. Matematik asoslarni ko'rib chiqish va matematik faktlarni yodda saqlash yangi ko'nikmalarni o'rganishga ishonchni oshiradi. Asosiy arifmetik amallar - qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lish - matematikani qanday ishlatishingizdan qat'i nazar, bir xil bo'lib qoladi. Ushbu mahoratni rivojlantirish o'quvchilarga murakkabroq matematik masalalarda turli jihatlarni ulashga yordam beradi va hatto kalkulyatordan foydalanmasdan ham tez hisoblash imkonini beradi. Ba'zan masalalar yechishda yuqoridagi usullarning barchasidan foydalanishga to'g'ri keladi. Tezkor hisoblash uchun esa mental

arifmetika texnikalarini qo'llash mumkin. Matematik amallar bo'yicha bilimlarni mustahkam saqlash uchun kompyuter o'yinlari, flesh-kartalar va vaqtli testlar orqali matematik amallarni mashq qilish juda muhim.



Texnologiyadan foydalanish. Matematika bilan yaxshiroq bog'lanishga yordam berish uchun eng yangi texnologiyalardan foydalanish bu mavzuda aqlli bo'lishning samarali usulidir. Matematika bo'yicha kompyuter o'yinlari, internet matematik saytlari va mobil matematik ilovalar matematikaga qiziqarli va vizual rag'batlantiruvchi usullar bilan shug'ullanishning barcha usullaridir. Masalan, Makeuseof.com veb-sayti matematika ko'nikmalarini yaxshilash uchun yodlash bo'yicha maslahatlar, matematik o'yinlar, geometrik shakllarni chizish va xotirani mustahkamlash mashqlarini taklif qiluvchi ilovalardan foydalanishni taklif qiladi.



Bilimli o'qituvchi yosh bolalar mavhum g'oyalar yoki tushunchalarni, ayniqsa matematikada yanada chuqurroq o'rganish imkonini beradigan amaliy mashg'ulotlar bilan shug'ullanganda yaxshiroq o'rganishini tan oladi. Hisoblagichlar bolalar matematika ko'nikmalarini o'zlashtirishga urinishlarida foydalanishlari mumkin bo'lgan ajoyib vositadir, jumladan hisoblash, qo'shish, ayirish, naqshlar yaratish va raqamlarni taqqoslash. Odatda kichik yumaloq plastik disklar yoki kvadratchalar bo'lgan tijorat hisoblagichlari mavjud bo'lsa-da, quritilgan loviya, bloklar, tugmalar yoki ayiqlar kabi hisoblagichlarni matematik mashg'ulotlarga kiritish oddiy, ammo samarali o'qitish strategiyasi bo'lishi mumkin.





Bolalarga hisoblagichlar yordamida bajarish uchun maxsus topshiriqlarni bering. Misol uchun, siz bolalardan sizga ma'lum miqdordagi hisoblagichlarni ko'rsatishni, hisoblagichlar guruhini yoki to'plamini hisoblashni yoki hisoblagichlarni hajmi yoki rangi bo'yicha guruhlashni so'rashingiz mumkin.

Matematik algoritmlar muammoni qanday hal qilishni ko'rsatuvchi bosqichma-bosqich protseduralar bo'lib, ulardan eng keng tarqalgani to'rtta asosiy protsedura: qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lish.

Boshlang'ich maktabda o'qitiladigan matematik algoritmlar orqali muammolarni yechish ko'nikmalarini egallash bolalarni keyingi maktabda va ish muhitida muammolarni yechish qobiliyatini yaxshilaydi.

Bolalar uchun hayotiy masalalar. Boshlang'ich maktab o'quvchilari matematik algoritmlarni real hayotiy vaziyatlar bilan bog'lash orqali matematik algoritmlarni osonroq o'rganadilar, ular matematika uchun model bo'lib xizmat qilishi mumkin, masalan, almashish va qarz olish.



Qo'shishni qo'llash. Bolaning qo'shish haqidagi tushunchasi, masalan, muhtoj bo'lgan do'stiga qalam berish kabi real hayotda qo'llash orqali mustahkamlanishi mumkin.

Ayirishni qo'llash. Haqiqiy hayotdagi vaziyat, masalan, do'stingizdan shirinlik olish, bolaga ayirishni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Ko'paytirishni qo'llash. Bola uchun ko'paytirishning namunaviy modeli: "Sizda ikkita konfet bor va sizning ikkita do'stingizning ham, ikkitadan konfeti bor, do'stlaringiz sizga o'z konfetlarini beradi va sizda jami oltita konfet bo'ladi."

Bo'lishni qo'llash. Olti do'st o'rtasida 12 bo'lakli pitsani bo'lishish, bolaga bo'lishni misol qilishning ideal usulidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. M.E. Jumayev, Z.G'Tadjiyeva, "Boshlang'ich sinflarda matematikani o'qitish metodikasi" darslik. 312 bet. Toshkent-2005
2. Kristin Surtam and Nensi Vezina "International Journal for Mathematics Teaching



and Learning", 2010

3. <https://sciencing.com/how-to-use-counters-in-math-12746551.html>

VOYAGA YETMAGAN O'SMIRLAR XULQ-ATVORINI SHAKLLANTIRISHNING
HUQUQIY VA PSIXOLOGIK JIHATLARI

Qurbonova Aziza Davlat qizi

Sharof Rashidov nomidagi SamDU psixologiya yo'nalishi, 3-bosqich talabasi

Qurbonov Doniyorbek Davlat o'g'li

Sharof Rashidov nomidagi SamDU yurispidensiya yo'nalishi, 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi kunning dolzarb mazvusi bo'lgan voyaga yetmagan o'smirlarning xulq-atvori, ularning huquqbuzarlik yo'lga kirish sabablari hamda asosiy motivlari haqida ma'lumot berilgan. Bundan tashqari, o'smir tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklarni turlari sanab o'tilib, voyaga yetmagan jinoyatchi qayta-qayta jinoyat sodir etisining sabablari hamda bu voyaga yetmagan jinoyatchilarda shizofreniya, travmadan keyingi stress buzilishi yoki bipolyar buzuqlik kabi ruhiy kasalliklar, xulq-atvor muammolari bo'lishi mumkinligi to'g'risida mulohazalar keltirilgan.

Tayanch iboralar: Huquqbuzarlik, voyaga yetmagan shaxs, travmadan keyingi stress buzilishi, bipolyar buzuqlik, shizofreniya.

Аннотация: В данной статье представлена информация о поведении несовершеннолетних, причинах их вступления на путь правонарушений, а также основные мотивы, актуальные на сегодняшний день. В нем также перечислены виды правонарушений среди несовершеннолетних, причины правонарушений среди несовершеннолетних, а также психические заболевания, поведенческие проблемы, такие как шизофрения, посттравматическое стрессовое расстройство или биполярное расстройство.

Ключевые слова: преступность, несовершеннолетний, посттравматическое стрессовое расстройство, биполярное расстройство, шизофрения.

Annotation: This article provides information on the behavior of juveniles, their reasons for entering the path of delinquency, and the main motives that are relevant today. It also lists the types of juvenile delinquency, the causes of juvenile delinquency, and the mental illness, behavioral problems, such as schizophrenia, post-traumatic stress disorder, or bipolar disorder. comments have been made.

Key words: delinquency, juvenile, post-traumatic stress disorder, bipolar disorder, schizophrenia.

Bugungi globallashuv davrida doimo huquqiy muammo bo'lib kelgan huquqbuzarlik, ijtimoiy muammo sifatida ham qaralmoqda. Bundan tashqari bu psixologik muammo hamdir. Shunday qilib, bu ijtimoiy yovuzlikdan qochish uchun odam ijtimoiy psixologik va oilaviy nuqtai nazardan murakkab huquqbuzarlik muammosini hal qilish kerak.

Voyaga yetmaganlar o'rtasidagi huquqbuzarliklarga oid qonunlar uzoq vaqtdan beri shakllangan bo'lsa-da, ular ham vaqti-vaqti bilan o'zgartirilib boriladi. Hozirgi kunda dunyoning barcha ilg'or va sivilizatsiyalashgan davlatlarida voyaga yetmaganlar jinoyati

to'g'risidagi qonunlar o'zgartirildi. Bundan tashqari, bugungi kunda huquqbuzarlik jinoyatdan ko'ra noto'g'ri xatti-harakatlar, ijtimoiy noqulaylik sifatida qaralmoqda.

Voyaga yetmaganlarning jinoyati deganda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoiy harakatlar tushuniladi. Ya'ni 18 yoshgacha bo'lgan bolalar va o'smirlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar shular jumlasiga kiradi. Turli mamlakatlarda maksimal yosh chegarasi va huquqbuzarlikning ma'nosi farq qiladi. Ammo har doim 18 yoshdan kichik bo'ladi, bu huquqbuzarlik uchun qonuniy yosh hisoblanadi. Koulman (1981) fikriga ko'ra huquqbuzarlik "18 yoshgacha bo'lgan yoshlarning jamiyat uchun maqbul bo'lmagan xatti-harakatlarini anglatadi va odatda qandaydir ogohlantirish jazosi yoki tuzatish harakatlariga chaqirish sifatida qabul qilinadi". Huquqbuzarlik bolalar tomonidan sodir etilgan barcha turdagi jinoyatlarni o'z ichiga oladi. Noqonuniy giyohvand moddalarni tadbirkorlik va qo'llash va odam o'ldirishdan boshlab, u turli xil xavfli jinoiy huquqbuzarliklarni o'z ichiga olishi mumkin.

Yigirmanchi asrning o'rtalaridan boshlab jinoyatlarning aksariyat turlari kabi yoshlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar ko'paydi. Yoshlar jinoyatining darajasi va turlaridan sharhlovchilar mamlakatdagi axloq va qonun-tartibotning umumiy holatining ko'rsatkichi sifatida foydalanishdi, shuning uchun yoshlar jinoyati "axloqiy vahima" manbai deb nomlandi. Yoshlar jinoyatchiligini kriminologiyada ayniqsa muhim deb hisoblash mumkin. Buning sababi, birinchi navbatda, jinoyat o'n besh yoshdan yigirma besh yoshgacha bo'lgan shaxslar tomonidan nomutanosib ravishda sodir etiladi. Ikkinchidan, ta'rifiga ko'ra, jinoyatchilik sabablariga oid har qanday nazariyalar yoshlar jinoyatiga e'tibor qaratadi, chunki kattalar jinoyatchilar yoshligida jinoyat qila boshlagan bo'lishi mumkin. Voyaga yetmagan jinoyatchi qayta-qayta jinoyat sodir etgan shaxsdir, ammo bu voyaga yetmagan jinoyatchilarda shizofreniya, travmadan keyingi stress buzilishi yoki bipolyar buzuqlik kabi ruhiy kasalliklar, xulq-atvor muammolari bo'lishi mumkin.

Huquqbuzarlik sabablari haqida gap ketganda, ko'pgina rivojlanmagan va rivojlanayotgan mamlakatlarda odamning jinoiy moyilligi ota-onalarning o'tgan hayotidagi yomon ishlarining natijasi sifatida qaraladi. Bu, shubhasiz, noto'g'ri tushuncha va noto'g'ri fikrdir. Boshqa tomondan, bolada huquqbuzarlik paydo bo'lganda, ko'pchilik buni ota-onasining bolalik davridagi xatti-harakatlari, harakatsizligi va topshiriqlari bilan bog'liq deb hisoblaydi.

Huquqbuzarlarda axloqiy me'yorlar va hissiy aloqalar yo'q. Ular ijtimoiy jihatdan befarqlar hamda ularda aybdorlik hissi yo'q. Huquqbuzarlar o'zlarining ijtimoiy nomaqbul xatti-harakatlariga qaramay, o'zlari uchun ham, boshqalar uchun ham qiyinchiliklarni keltirib chiqardilar. O'rganilgan xulq-atvor sifatida ko'rib chiqilgan huquqbuzarlik, dam olish maskanlarining yetishmasligi va doimiy yashash joyining yetishmasligi bilan past turmush tarzi bilan yuqori darajada bog'liqligi aniqlandi.

Huquqbuzarlik motivlarini keng miqyosda quyidagilarga bo'linishi mumkin:

- Individual faktorlarning shaxsiy omillari;
- Oilaviy shakl va o'zaro ta'sirni, huquqbuzarlik to'dasi va subkulturaning qo'zg'atuvchi umumiy ijtimoiy-madaniy omillar.

Voyaga yetmagan o'smirlarning huquqbuzarlikka yo'l qo'yishiga asosiy sabablardan biri-hissiy muammo. Bolaga noto'g'ri munosabatda bo'lish va noto'g'ri tarbiyalash bolada bir nechta hissiy muammolarni keltirib chiqaradi. Turli kuzatuvlar, holatlar tarixi va intervyular shuni ko'rsatdiki, huquqbuzarlarning ancha yuqori foizi hissiy buzilishlarni namoyon qilgan. Heally va Bronner huquqbuzarlarning 92% hissiy buzilishlarni ko'rsatishini aniqladilar. Ularda ko'pincha o'z-o'zidan nomaqbullik, o'z-o'ziga past baho berish hissi paydo bo'lgan. Guruhning taxminan 50 foizida ular doimiy ravishda mavjud edi.

Ishonchsizlik tuyg'usi, ota-onalar va oilaning boshqa a'zolarini rad etish huquqbuzarlik xatti-harakatlarini keltirib chiqaradigan keyingi muhim omillardir. Guruhning 33% ga yaqini to'sqinlik qilish hissini boshdan kechirdi. Huquqbuzarlarning uchdan birida tartibsizlik va tartib-intizom muammolari aniqlangan. Ularning ko'pchiligi aka-uka raqobatini va hasadni ham ifoda etgan. Bu ma'lumotlarning barchasi shuni ko'rsatadiki, huquqbuzar bolalar orasida ishonchsizlik, pastlik, hasad, e'tiborsizlik va tushkunlik kabi turli xil hissiy muammolar juda keng tarqalgan. Fridlanderning fikriga ko'ra, huquqbuzarlik uchta omilning natijasidir:

- o'zgarimas instinktiv istaklarning kuchi;
- Egoning zaif tomonlari;
- Super egoning mustaqilligi va kuchining yo'qligi.

Xulosa qilib aytganda, huquqbuzar o'smir o'zining impulsiv ehtiyojlarini nazorat qila olmaydi. Uning holatida na real mulohazalar, na axloqiy mulohazalar uning impulsiv harakatlarini tekshirishga yordam bermaydi. Stottning ta'kidlashicha, huquqbuzarlik buzilishi hissiy vaziyatdan qochishdir, uning kelib chiqishi turli xil sharoitlarga ega bo'lgan shaxs uchun deyarli vaqtincha o'zgarimas bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Eadie, T. & Morley, R. (2003) "Crime, Justice and Punishment" in Baldock, J. et al (eds) Social Policy (3 rd edn.) Oxford: Oxford University Press
2. Walklate, S (2003) Understanding Criminology – Current Theoretical Debates, 2nd edition, Maidenhead: Open University Press.
3. Farrington, D.P. (2002) "Developmental criminology and risk-focused prevention" in M. Maguire et al (eds) The Oxford Handbook of Criminology (3rd edn.). Oxford: Oxford University Press.
4. J.SH.To'rayev "Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social science", "Voyaga yetmaganlar bilan ishlashda yangicha tizim-inspektor-psixologlarining voyaga yetmaganlar tarbiyasidagi o'rni" December 2021. 1251-bet

FOYDALANILGAN SAYTLAR:

<https://psychologydiscussion.net>
<https://cram.com>

MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARNI TA'LIM- TARBIYA OLISH JARAYONIDA HARAKATLI O'YINLARNING AHAMIYATI

Jumaeva Hidoyat Rahmonovna

Buxoro viloyati maktabgacha ta'lim boshqarmasi ta'lim sifatini ta'minlash va innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo'limi boshlig'i

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'yin faoliyatining inson hayoti barcha bosqichlarida motivatsiya hamda intilishni stimullovchi xususiyatlari, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar uchun o'yin, ularda shaxs sari shakllanayotgan "Men"i, qiziqishlari, manfaatlari, istak va xayollarini ro'yobga chiqarish, tanlov erkinligining mavjudligi, tashabbuskorlik, mustaqillik, kreativlikning shakllanishidagi o'rni batafsil bayon etilgan.

Kalit so'zlar: harakatli o'yinlar, maktabgacha yoshdagi bolalar, qiziqish, motivatsiya, his-tuyg'ular, stimul, mustaqillik, tashabbuskorlik, kreativlik, xalq pedagogikasi.

Annotation: This article discusses the motivating and motivating features of play at all stages of human life, play for preschool children, the realization of their "I", interests, interests, desires and dreams, freedom of choice. existence, initiative, independence, its role in the formation of creativity is described in detail.

Keywords: action games, preschoolers, interest, motivation, emotions, stimuli, independence, initiative, creativity, folk pedagogy.

Harakatli o'yinlarning kelib chiqishi qadim xalq pedagogikasiga borib taqaladi. O'yinlarning kelib chiqishi va tarixi xaqidagi ma'lumotlar bizgacha XI asrning buyuk mingvisti, tarixchisi, etografi Maxmud Qoshqariyning «Devonu lug'otit turk» kitobi orqali yetib kelgandir. Asarda o'zbek harakatli o'yinlarini boshlashdan oldin amalga oshiriladigan chaqirish, to'planish, o'yin boshi, chek tashlash kabi o'yin shakllaridan namunalar keltirilgan.

Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asarida ham sport o'yinlaridan qilichbozlik, kurash, ko'pkariga alohida e'tibor berilib, ularni yoshlarni jismonan baqquvat bo'lishlariga katta ta'sir ko'rsatishi ko'rsatib o'tilgan.

Ilk yoshli bolalar oilalarda bolaning dastlabki harakati bilan bog'liq ovunmachoqlar, ermak o'yinlar yordamida tarbiyalanganlar. Undan kattaroq yoshdagi bolalar hayotida rang-barang harakat mazmuniga ega bo'lgan (o'z ichiga bolalarni rom qiluvchi o'yin boshlanmalari, xirgoyilari, sanashmachoqlarni oluvchi) xalq o'yinlari katta o'rin olgan.

Barchamizga ma'lumki, faoliyat va faollik turlari ichida o'yin faoliyati inson hayotining barcha bosqichlarida qiziqish, motivatsiya hamda intilishni stimullovchi xususiyati bilan ajralib turadi. O'yin faoliyati psixologik nuqtai nazardan qaralganda, asosan kichik yoshdagi maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar hayotida muhim o'rin tutadi. Buning sababi, maktabgacha ta'lim yoshidagi bola uchun o'yin, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolaning individdan shaxs sari shakllanayotgan "Men"ining qiziqishlari, manfaatlari, istak va

xayollarini ro'yobga chiqarish, har ikkala jins vakillari bilan o'zaro munosabatda bo'lishda tajriba orttirish, tanlov erkinligining mavjudligi, tashabbuskorlik, mustaqillik, kreativlikda deyarli tasavvur etgan hamma imkoniyatlarni tax'minlash ehtimoli mavjud bo'lgan maxsus dunyo hisoblanadi. O'yin maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan 3-7 yoshli bolaga turli xil harakatli o'yinlar, ijtimoiy-madaniy, munosabatlar (o'yin jarayonida ham, real hayotda ham) sinab ko'rish, shuningdek, ko'plab ijobiy his-tuyg'ular, taasurotlar, unutilmas, quvonchli daqiqalarni boshdan kechishiga sharoit yaratadi.



Harakatli o'yinlar jismoniy tarbiyaning asosiy vositasidir. Harakatli o'yinlar bolalarning harakat faoliyati jismoniy rivojlanishiga, harakat ko'nikmalari va jismoniy sifatlarning shakllanishiga, organizmning funksional faoliyatini oshirgan va emotsional quvnoqlik tuyg'ularini kuchaytirgan holda salomatlikni mustahkamlashga ijodiy ta'sir etadi.



Harakatli o'yinlarni o'tkazishda erishiladigan sog'lomlashtirish samarasi bolalarning o'yin faoliyati jarayonida yuzaga keladigan va bola ruhiyatiga yaxshi ta'sir etadigan ijobiy

emotsiyalar bilan uzviy bog'liqdir. Emotsional ko'tarinkilik 3-7 yoshli bolalarda barcha uchun umumiy bo'lgan maqsadga erishishga intilish uyg'otadi va u vazifalarni aniq tushunishda, harakatlarning o'zaro mosligida, fazoda va o'yin sharoitlarida aniq mo'ljal olishda, topshiriqlarni tezlashtirilgan sur'atda bajarilishida ifodalanadi.

3-7 yoshli bolalarning maqsadga erishishga nisbatan kuchli ishtiyoqi va zavqli intilishi asosida turli to'siqlarni yengib o'tishga yordam beruvchi irodaning roli oshadi.

Harakatli o'yinlar bolalar tomonidan avval egallangan harakat ko'nikmalarini takomillashtirish va jismoniy sifatlarni tarbiyalash metodi bo'lib xizmat qiladi.

O'yin jarayonida bola o'z e'tiborini harakatni bajarish usuliga emas, balki maqsadga erishishga qaratadi. U o'yin shartlariga muvofiq harakat qiladi, bunda chaqqonlik ko'rsatadi va shu asnoda harakatlarni takomillashtiradi.

Harakat faoliyati sifatida harakatli o'yin muayyan o'ziga xos xususiyatlarga ega: u boladan signal va o'yinda to'satdan bo'ladigan o'zgarishlarga tezda javob berishni talab qiladi. Deyarli har bir harakatli o'yinda harakatlar va bolalar harakatiga oid signallar mavjud. Masalan «Chumchuq uchdi», «Gulchambar».



O'yindagi faol harakat faoliyati bola so'zlashish va tormozlanish jarayonlarini takomillashtirgan holda nerv tizimini mashq qildiradi, kuzatuvchanlik, topqirlik, atrof-muhitda mo'ljal olish qobiliyatini, botirlik, chaqqonlik tashabbus ko'rsatish, maqsadga erishishning mustaqil usulini tanlashni tarbiyalaydi.



Maktabgacha tarbiya yoshidan boshlab, bolalarda o'z xalqining urf-odatlarini, an'analarini, tarixini bilishga bo'lgan qiziqishni tarbiyalash maqsadida "Ilk Qadam" dasturida

har bir yosh guruhi uchun o'rgatiladigan milliy va harakatli o'yinlar, ta'lim va tarbiya jarayonlarining yangicha ko'rinishlari ko'rsatib berilgan.

Xulosa qilib aytganda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda harakatli o'yinlarni mashg'ulotlar jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar orqali takomillashtirish muhim va dolzarb vazifa hisoblanadi. Chunki maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining kompetensiyasini rivojlanishida "o'yin" muhim ahamiyat kasb etadi va bu bola shaxsining shakllanishida katta o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Usmonxo'jaev G.S. "1001 o'yin" T.Meditsina 1999 y.
2. Usmonxo'jaev G.S. "Harakatli o'yinlar" T.Meditsina 1999 y. "Science and Education" Scientific Journal November 2020 / Volume 1 Issue 8 www.openscience.uz 527
3. Qoraboev U. "O'zbek xalq o'yinlari" Toshkent 2001y

TARIX FANIDAN DARS O'TISHDA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR
PEDAGOGIK VOSITALAR.

To'rayeva Nafosat

Annontatsiya: Mazkur maqolada tarix fanini o'qitish jarayonida zamonaviy innovatsionpedagogik texnologiya usullarini qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib borishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash o'quvchining fikrlash doirasini kengaytirishi, mavzularni tez va oson tushunishga ko'maklashadigan pedagogik texnologiyalar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Tarix, zamonaviy, pedagogik, nazariya, tajriba, rivojlanish, davlat, teznologiya,shaxs.

Hozirgi zamon har bir fan o'qituvchisi zimmasiga inson,uning jamiyatdagi o'rni va roliga har tamonlama qarash vazifasini yuklaydi.Buning uchun o'qituvchi ta'limtarbiyaning yangi shakllari,vositalari va usullarini egallashi va shu bilan birga o'zi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yaratishga,shaxsni tarbiyalashning yangi a'nanaviy,samarali usullarini tanlashga harakat qilishi hamda ijodkor bo'lmog'i lozim.Maktablarda o'qitilayotgan ijtimoiy,shu jumladan tarix fani o'zida oliyjanob fazilatlarini mujassamlashtirilgan insonni tarbiyalashda benihoya ahamiyat kasb etadi. Maktabda o'quvchi kishilik jamiyati bosib o'tgan yo'lni,ularning chet el bosqinchilariga qarshi,o'z ozodligi va baxt-saodati, porloq kelajagi uchun olib borgan kurashlari haqidagi asosiy ma'lumotlarni tarix darslaridan bilib oladi.Shu bilan birga tarix darslari o'quvchining hozirgi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni to'g'ri anglashga yordamlashadi

Zamon har bir fan o'qituvchisi zimmasiga inson,uning jamiyatdagi o'rni va roliga har tamonlama qarash vazifasini yuklaydi.Buning uchun o'qituvchi ta'limtarbiyaning yangi shakllari,vositalari va usullarini egallashi va shu bilan birga o'zi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yaratishga,shaxsni tarbiyalashning yangi a'nanaviy,samarali usullarini tanlashga harakat qilishi hamda ijodkor bo'lmog'i lozim.Maktablarda o'qitilayotgan ijtimoiy,shu jumladan tarix fani o'zida oliyjanob fazilatlarini mujassamlashtirilgan insonni tarbiyalashda benihoya ahamiyat kasb etadi. Maktabda o'quvchi kishilik jamiyati bosib o'tgan yo'lni,ularning chet el bosqinchilariga qarshi,o'z ozodligi va baxt-saodati, porloq kelajagi uchun olib borgan kurashlari haqidagi asosiy ma'lumotlarni tarix darslaridan bilib oladi.Shu bilan birga tarix darslari o'quvchining hozirgi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni to'g'ri anglashga yordamlashadi.Ta'lim-tarbiya jarayonida mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun bugungi kunning pedagog hodimlari har bir darsda qiziqarli, samarali bo'lgan yangi pedagogik texnalogiyalardan foydalanish kerak.Bizga ma'lumki,tarix fanining asosini ma'lumotlar tashkil etadi.Ularni to'liq eslab qolishi o'quvchilar uchun bir oz qiyinchilik tug'dirishi mumkin (ayrim past o'zlashtiruvchi o'quvchilar).Bu kabi ma'lumotlarni



o'quvchilar xotirasida bir umrga esda qolishi, turli xil sahnali ko'rinishlar, qiziqarli o'yinli usullar, krossvordlar, guruhlar bilan ishlash, baxs-munozaralar olib borishiga bog'liq.

Ta'lim muassasalari tizimida tarix fanlarini o'qitish mazmunini kasbiy soha yo'nalishlarining mohiyatiga mos shaklda rivojlantirish, ya'ni KHKlarning kasbiy qiziqishidan kelib chiqqan holda qo'shimcha ma'lumotlar kiritilishi maqsadga muvofiqdir. O'qitish jarayonini kasbiy yo'naltirish - berilayotgan bilimlarni KHKning kasbiy yo'nalishidan kelib chiqib darsni tashkil etishdir. Tarix fanlarini o'qitishda tarixiy bilim, tushuncha va tasavvurlarni egallash, ularni izohlash, ko'nikma va malakani shakllantirish orqali o'quvchilar intellektual qobiliyatlarini jadal o'stirishni, ularga kasb-hunarga yo'naltirilgan bilim berishni ta'minlash va kasb-hunar kolleji o'quvchilarining kasb-hunarga qiziqishini oshirish maqsad qilib olingan. Tarix fanlarini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, o'quvchilarning tanlagan kasbi bilan bog'liq bo'lgan tarixiy bilim, tushuncha, tasavvurni yanada rivojlantirish hamda o'zining sohasiga doir tarixiy bilimlar bilan tanishtirish ularni hayotga va kasbiy faoliyatiga tatbiq etishni o'rgatishdir.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari) dan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayishi tabiiy. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar o'quvchilar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqishlariga qaratilgan. Bugungi kunda ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishga alohida e'tibor berilayotganligining asosiy sababi quyidagicha izohlashimiz mumkin: Birinchidan, pedagogik texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish imkoniyatining kengligida. Ikkinchidan, pedagogik texnologiyalar o'quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi. Uchinchidan, pedagogik texnologiya o'qituvchini ta'lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab, tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo'lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi. To'rtinchidan, pedagogik texnologiya yangi vositalar va axborot usullarini qo'llashga asoslanganligi sababli, ularning qo'llanilishi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablarini amalga oshirishni ta'minlaydi.

Tarix nazariyasi — tarix haqidagi va ayni vaqtda u yoki bu tarixiy voqealar, hodisalar va jarayonlar haqidagi umumiy tasavvurlar majmuyidir. Tarix nazariyasi har qanday holatda ham faqatgina tarixiy hodisalar haqidagi konkret — tarixiy tasavvur sifatida cheklanib qolmasdan, balki tarixiy bilishning eng yuqori darajasi sanaladi. Tarix nazariyasida asosiy e'tibor tarixni real voqelik sifatida o'rganuvchi umumiy muammolar (ontologiya) hamda tarixni bilish sifatida o'rganishga (gneseologiya) qaratiladi.

Tarixiy bilishning rivojlanishi ayni vaqtda uning metodologik asoslarining ham rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi. Tarix fanida metodologiyaning qandaydir aniq birgina ko'rinishi mavjud emas, undagi holatlarning o'zgarishlari bilan birga metodologik qarashlarning ham o'zgarishlari sodir bo'lib boraveradi. Tarixiy bilishning rivojlanib borishi shunga olib keldiki, metodologiyaga bir yaxlitlik sifatida qarash yoki ayni vaqtda uning u

yoki bu jihatlariga munosabat bildirish tobora tushunarli va jonli ravishda, nazariy jihatdan mukammallashgan holda namoyon bolmoqda Tarix fani metodologiyasini o'rganish jarayonida XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab yirik faylasuf olimlarning tarix fanining nazariy asoslari to'g'risida bildirgan fikr-mulohazalari va bugungi kungacha turli darajada amalda bolgan qarashlari — pozitivizm, neokantchilik, strukturalizm, postmodernizm kabi bir qator yo'nalishlarning tarix fani tadqiqotlariga ta'siri masalalariga alohida to'xtalib oliladi. Tarix fani metodologiyasi shakllanishi jarayonida bir qancha bosqichlarni bosib o'tgan.

«Klassik» metodologiya. Bunda tarixiy voqelik obyektlarini o'rganish, o'tmish haqidagi dalillarni tiklash, tarixiy tadqiqot jarayonida tadqiqotchining o'rnini yo'q qilish yoki sezdirilmagan holda tarixiy haqiqatni izlashga asosiy e'tibor qaratildi. «Klassik bolmagan» (noklassik) metodologiya avvalgi tarixiy tadqiqot nazariyasi yondashuvlari izchilligidan voz kechgan holda, tarixiy bilimlarning qiyosiyiligiga asoslanadi, tarixni esa «tarixchi ongining in'ikosi» (tarixchi tomonidan voqeliklar va tarixiy jarayonlarning ketma-ketlikda tuzib chiqilgan holati) sifatida ko'rsatishga harakat qiladi. Strukturalizm (tizimlilik, o'zaro bog'liqlik, sistemalilik)da tarix ijtimoiy-madaniy maydonda insonlar tarixini siqib qo'ydi va birinchi o'ringa turli tizimlar (strukturalar) qo'yildi. «Postnoklassik» metodologiya bilish subyektining qarashlaridan kelib chiqqan holdagi qadriyatlarga, intellektual ijod jarayonlarini (til shakllari, matnlar) o'rganishga asosiy e'tibor qaratadi. Shu tariqa postmodernistlar tadqiqot obyektini subyektdan, dalillarni uydirmadan alohida ajratmaydilar va obyektiv haqiqatga erishishni shubha ostiga qo'yadilar. Yuqoridagi qarashlarning alohida xususiyati shundaki, ular bugungi kun tarix tadqiqotlarida ham amalda mavjud bo'lib, turli darajada qo'llaniladi.

XULOSA Xulosa qilib aytganda, o'qituvchi innovatsion faoliyatga tayyor bo'lib, darsga eng so'ngi yangiliklarni olib kirib, o'quvchiga qiziqarli va uni ehtiyojiga mos ravishda tashkil etsagina, sifat va samaradorlikni kafolatlashi mumkin. Bunday sharoitda o'qituvchi yuksak rivojlangan fikrlash qobiliyatiga, muammolar bo'yicha mushohada yuritishga, muammolarni o'z vaqtida yecha oladigan qobiliyatga ega bo'lishi kerak. Interfaol usullarda darsni tashkil etishda o'quvchi shaxsini rivojlantirishni o'ziga o'zi zamin yaratishdan boshlash kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent.: Ma'naviyat, 2008. – B. 173.
- 2.Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Malakali pedagog kadrlar hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida. // Xalq so'zi, 2012. 29 may, № 10.
- 3.O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997.



4. Ishmuhammedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. - T., Nizomiy nomidagi TDPU, 2009.
5. A. Abduqodirov, R. Ishmuhammedov. "Ta'limda innovatsion texnologiyalar" T.:2008
6. S. Usmonov. "Pedagogik texnologiya asoslari" T.:2004
7. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. — T., «Sharq», 1997. 8.
- Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. — Toshkent, «O'zbekiston», 1998.



НАВОИЙНИНГ ИНСОН КАМОЛОТИ ВА ХАЛҚЛАР ДЎСТЛИГИГА ОИД ҚАРАШЛАРИ

Умаралиев Хумоюн Абдулаҳат ўғли

*Тошкент вилояти Чирчиқ давлат педагогика институти
талабаси*

Аннотация. Мақолада Алишер Навоийнинг инсон камолотига таъсир этувчи омиллар ҳақидаги қарашлари “Фарҳод ва Ширин”, “Сабъаи сайёр”, “Садди Искандарий” дostonларидан келтирилган парчалар орқали таҳлил қилинган. Навоий ижоди ҳаётга муҳаббат, инсон қадр-қиммати, биродарлик, олижаноблик, тинчлик, ҳамжиҳатлик ва халқлар дўстлиги каби эзгу гоялар билан сугорилгани мисоллар билан далилланган.

Калит сўзлар: Юнон маданияти, араб адабиёти, Ҳиндистон, арман маликаси, Эрон подшоҳи, Шайх Шиблий, Учинчи Ренессанс, Иброҳим Ҳаққул

Аннотация. В статье анализируются взгляды Алишера Навои на факторы, влияющие на развитие человека, через отрывки из дастанов «Фарход и Ширин», «Сабай Сайёр», «Садди Искандари». Творчество Навои проникнуто такими благородными идеями, как любовь к жизни, человеческое достоинство, братство, благородство, мир, солидарность и дружба народов.

Ключевые слова: греческая культура, арабская литература, Индия, армянская царица, падишах Ирана, шейх Шибли, Третье Возрождение, Ибрахим Хаккул.

Annotation. The article analyzes the views of Alisher Navoi on the factors influencing human development through excerpts from the dastans "Farkhod and Shirin", "Sabai Sayyor", "Saddi Iskandari". Navoi's creativity is imbued with such noble ideas as love for life, human dignity, brotherhood, nobility, peace, solidarity and friendship of peoples.

Key words: Greek culture, Arabic literature, India, Armenian princess, Padishah of Iran, Sheikh Shibli, Third Renaissance, Ibrahim Hakkul.

Инсониятнинг бахтли яшаши йўлидаги орзу ва мақсадларини куйлаган асарлар борки, улар мангу яшайди ва унинг қахрамонлари ҳам ўлмас бўлиб қолади. Алишер Навоийнинг туркий халқлар маънавий хазинасига қўшган ҳиссаси беқиёсдир. Дунёда Алишер Навоий каби асарлари кенг тарқалган, жаҳоннинг деярли ҳар бир чеккасида китобларининг нусхалари сақланаётган бошқа бир ижодкорни учратиш қийин. Асарларнинг шаклан гўзал ва баркамол, мазмунан пурҳикмат ва сержило экани, ҳар бир ташбиҳ ва образ заминида катта фалсафий ҳаётий тушунча мавжудлиги, ҳар бир мисра-байт эса неча маъни ифодалай олгани – булар барчаси Навоий асарлари умрбоқийлиги нишонасидир.

*Олам аҳли билингизким, иш эмас душманлиг,
Ёр ўлунг бир бирингизгаким эрур ёрлиг иш...*



Ҳазрат Алишер Навоий асарлари ва қаҳрамонларининг юз йиллардан бери яшаб келаётганининг сири Ҳазрати инсон бўлиб яратилмиш зотнинг асрлар ўтса-да, у даврда ҳам, ҳозир ва кейин ҳам маслагию матлаби муштарак – инсонийлик, комиллик ва ҳақиқат эканидадир.

Шу ўринда инсон камолотга якка ҳолда ета оладими, камолот нима, комил инсон ким, деган саволлар туғилади. Навоий асарларида акс этган комил инсон бу диний ва дунёвий илми мукамал бўлган, Ҳақни таниган шахсдир. Булар кимлар? Булар соф муҳаббатни ўзида акс эттирган, маънавий такомилга эришган Фарҳод ва Ширин, Лайли ва Мажнун, одил подшоҳ Искандар ва вафоли ёр Дилором, карамию саховати чексиз Холами Тойлардир. Бири чин, бири арман, бири араб, бири юнон, бири хинд, яна бири форс миллатига мансуб бу қаҳрамонларни бирлаштириб турган восита мақсаднинг бирлиги, чин инсонийликдир. Инсониятнинг даҳо шоири, мутафаккир Алишер Навоий асарларида тараннум этилган маънавий тамойиллар, эзгу ғоялар барча халқлар ва барча даврлар учун бирдай аҳамиятлидир.

Аллақачонлар бизнинг онгу шууримизга миллий қаҳрамон, идеал образ, баркамол шахс қиёфаси бўлиб ўрнашган Фарҳод, Ширин, Искандар, шоҳ Нўъмон, Меҳр, Сухайллар эришган мавқеи, ютуқлари, инсонийлик мартабалари илм-маърифат билан чамбарчас боғлиқдир. Фарҳоднинг барча диний-дунёвий фанларни ўзлаштириб бўлгач, ҳунар ўрганишга бел боғлаши ва Қорун, Боний, Моний каби даврининг етук усталаридан ҳунар сирларини қунт билан эгаллаши, айниқса, уни Ширин яшаётган мамлакатда одамларнинг оғирини енгил қилиш учун тоғ қазиб, сув чиқаришда қўллагани бизга ибратдир.

Навоийнинг қаҳрамонлари турли халқларга мансуб. Чин ўлкасининг фарзанди Фарҳод, арман гўзали Ширинга кўнгил беради. Араб элида оғизга тушган афсонавий севги қиссасига Навоий ўзбек тилида абадий ҳаёт бағишлайди. Дилором Чин элидан, Жўна ва Масъуд Ҳиндистондан, Сухайл Ямандан, Фаррух Сарандиб (Шри Ланка)дан.

Навоий халқлар дўстлиги ғоясининг улуғ куйчисидир. У халқлар дўстлиги ғоясини “Фарҳод ва Ширин” достонида марказий масалалардан бири қилиб кўяди. Бу ғоя айниқса, достоннинг турли миллат вакилларига тааллуқли уч ижобий образ – Фарҳод, Ширин ва Шопур образларида ёрқин ифодаланади. Уларнинг фаолияти, дунёқараши, орзу-интилиши бир-бири билан чамбарчас боғланган. Маълумки, Ўрта Осиё халқлари билан Кавказ, Хитой халқлари ва бошқа халқлар ўртасида жуда қадим замонлардан бошлаб дўстона муносабатлар, иқтисодий-маданий алоқалар пайдо бўлган. Навоий асарларидаги халқлар дўстлиги мана шу реал замин асосида туғилган ва уни мустаҳкамлаш ҳамда кенгайтиришга қаратилган эди. Шу билан бирга, Фарҳод, Ширин ва Шопур каби образлар, достонда қайси бир ўлка ёки халқнинг фарзанди сифатида тасвирланишидан қатъи назар, улар инсонийликнинг энг яхши сифат ва фазилатларини тажассум этган кишилар бўлиб, барча халқларга манзурдир.

Навоий қадимий Юнон маданиятини, араб адабиётини, Ҳиндистонни жуда яхши билган. Хусусан, Юнон мамлакатини қадимий маданиятнинг бешиги деб мадҳ этган.

Унинг асарларида Клавдий Птолемей, яъни Батлимул, Арасту, Суқрот, Афлотун каби алломалар, Искандар каби подшоҳ образлари катта ўринни эгаллайди.

Навоий Хамсасининг юзага келишида Хитой маданияти, тили, тарихининг ҳам таъсири борлиги сезилади. Масалан, "Сабъаи сайёр" достонида Эрон шоҳи Баҳром сайёҳ Монийнинг кўлида Хитойлик Дилоромнинг суратини кўриб, уни яхши кўриб қолади ва уни Хитойнинг бир йиллик хирожи ҳисобига сотиб олади. Хитой тарихига оид манбаларда чиндан ҳам Хитойда 7, 8, 9 асрларда тирик одамларни товар сифатида сотиш ва сотиб олиш ривожланган бўлгани маълум бўлади³. Яъни Навоийнинг ёзганлари тарихий асосга эга.

Алишер Навоий халқлар дўстлигини фақатгина ўз асрларида куйлаш билан чекланмаган. У ўз даврининг буюк форс шоири Абдурахмон Жомий билан яқин дўстона алоқада, устоз-шогирд мақомида бўлган. Навоий ўз "Хамса"сини айна шу устозининг матлаби билан ёзган дейилади.

Алишер Навоийнинг серқирра ижодида халқлар, миллатлар ўртасидаги дўстлик ва ҳамкорлик мавзуси асосий ўринлардан бирини эгаллайди. Шоир жаҳон халқларига мурожаат этиб, уларни бир-бирига кўмакдош, елкадош, ҳамкор ва дўст бўлишга чақиради:

*Олам аҳли билингизким, иш эмас душманлиг,
Ёр ўлунг бир-бирингизгаким, эрур ёрлиг иш.*

Алишер Навоий асарларида кўзга яққол ташланиб, барчага ибрат бўлгулик яна бир хусусият борки, у ҳам бўлса бағрикенглик ва олижанобликнинг улуғланишидир. Чунончи улуғ шоир инсониятни жинси, ирқи, миллати ёки диний эътиқодига қараб эмас, балки уларнинг хислатларига қараб баҳолаш лозимлигини таъкидлаб ўтади. Шунга биноан, Навоий асарларида ҳар хил ирқ ва эътиқодга мансуб кишилар куйланган, у ўз қаҳрамонларини турли ўлка ва халқларнинг фарзандлари сифатида тасвирлайди:

*Кўнгулни олса малоҳат била тафвут йўқ,
Хитойи ўлсину ё армани ва ё ҳинду.
Хусн чун жилва қилур, оқу қорада йўқ фарқ,
Кишига келса бало-хоҳи Хито, хоҳи Ҳабаш.
Мен тилаб хусн, вале шоҳ тилаб аслу насаб
Менга лўли била ҳинду, анга кўнгироту қиёт...*

Алишер Навоий турли халқ ва миллат вакилларини самимият билан севади, уларни ҳурмат қилади. Унинг қайси бир асарини олманг, турли халқ вакиллари образига дуч келасиз, унда уларнинг дўстлик, биродарлик ғоялари жўшқин ифода этилганлигини кўрасиз. Бу каби оташин мисраларда у халқларни бир-бирига яқинлаштирувчи, тенгма-тенг қўювчи белгиларга эътиборни жалб этади ҳамда

³ Ҳайитметов А. Адабий меросимиз уфқлари. – Т.: Ўқитувчи, 1997. Б. 69.



инсонни ирки, элати, эътиқодига қараб, унга турлича муносабатда бўлиш каби ёмон иллатларга қарши курашади.

Бугун дунёда баъзи халқлар, давлатлар ва миллатлар орасида бўлаётган турли можаролар, биродаркушлик урушларининг олдини олиш, халқларни дўстликка чорлаш ғояларини шоир олдиндан башорат қилгандек туюлади. Миллати, элатидан қатъи назар, барча инсон дунёда эркин яшаши керак деган ғоя шоир ижодининг асосини ташкил этади.

Китайцам принадлежит постановка и решение отдельных задач по теории чисел. Так, между II и VI вв. математиком Сунь-цзы, а более полно в XIII в. математиком Цинь Цзю-шао разрабатывается оригинальный прием решения в целых числах систем неопределенных уравнений 1-й степени. Этими математиками дается правило решения задач, выраженных, например, такой системой неопределенных уравнений:

$$3x + 2 = 5y + 3 = 7z + 2.$$

Китайцы эту задачу формулировали так:

«Найти число, которое при делении на 3 дает остаток 2, при делении на 5 дает остаток 3, наконец, при делении на 7 дает остаток 2».

Искомое число можно найти без особого труда, если пользоваться современными обозначениями. Решая уравнение $3x + 2 = 7z + 2$ относительно x , найдем $x = \frac{7z}{3}$. Наименьшее $z = 3$, тогда $x = 7$ и $y = 4$. Таким образом, искомое число равно 23, следующее возможное число 128 и т. д.

Метод Сунь-цзы и Цинь Цзю-шао, применяемый ими для решения системы неопределенных уравнений 1-й степени, был открыт в Европе только в 1801 г. трудами немецкого математика Гаусса (1777 – 1855).

О высоком развитии практической геометрии в Китае можно судить по работам китайского математика Лю Хуэя, жившего в III в. В своих работах Лю Хуэй решает задачи на определение размеров недоступных предметов и расстояний до них, используя для этой цели подобные треугольники.

Высокого расцвета достигла в Китае вычислительная техника, основанная на приближенных вычислениях. Примером может служить приближенное вычисление отношения длины окружности к ее диаметру китайским математиком Цзу Чун-чжи (430 – 501), который для π получил приближение $\frac{355}{113}$, дающее 7 верных значащих цифр и показал, что число π лежит в пределах

$$3,1415296 < \pi < 3,1415297.$$

Прошло более десяти веков, когда в XVI в. это приближение было вновь открыто в Нидерландах математиком Андрианом Мецием.

Много китайские ученые занимались приближенными решениями алгебраических уравнений, в чем достигли замечательных результатов. Еще в первой половине VII в. математик и астроном Ван Сяо-тун алгебраически решает геометрические задачи, приводящиеся к уравнениям 3-й степени. Не владея общим методом решения кубического уравнения в радикалах, он пользуется приближенным методом решения, содержание которого подробно описано в китайских сочинениях более позднего периода под названием «метода небесного элемента», причем под «небесным элементом» подразумевается неизвестный элемент, обозначаемый сейчас через x .

Пользуясь «методом небесного элемента», китайские математики XIII и XIV вв. решали алгебраические уравнения высших степеней, начиная с четвертой степени. «Метод небесного элемента», открытый китайцами в VII в., по существу и по форме совпадает с известным методом и схемой для приближенного вычисления действительных корней алгебраических уравнений любой степени с численными коэффициентами, открытыми английским математиком Горнером в 1819 г.

Китайские математики XI – XIV вв. знали свойства биномиальных коэффициентов и были знакомы с арифметическим треугольником, который в Европе стал известен только в XVII в. под названием «треугольника Паскаля», в честь открывшего его вновь французского математика и физика Паскаля (1623 – 1662).

Уже к XIV в. средневековая китайская математика достигла своего наивысшего развития. Китай далекого исторического прошлого нельзя представить отрезанным от остального мира «китайской стеной», которой в древнее время еще не существовало. Многие достижения китайской культуры передавались и в другие страны и в конце концов достигли Европы.



Распространению китайской культуры прошлого, по-видимому, во многом содействовала внешняя торговля. Известно, что шелковые ткани, производство которых в Китае налажено с древнейших времен, занимали первое место среди предметов вывоза. Торговые пути древнего Китая тянулись к Индии.

О связи Китая с другими странами говорит и тот факт, что ряд китайских задач повторяется в математических рукописях других стран с точным совпадением числовых данных. Например, китайская задача о нахождении числа, которое при делении на 3 дает остаток 2, при делении на 5 – остаток 3 и при делении на 7 – остаток 2, почти дословно повторяется у индийских математиков, а также в известной «Книге об абак» Леонардо Пизанского (1202).

Однако с XVII в. намечается резкое торможение в развитии китайской науки и культуры, вызванное завоеванием Китая маньчжурами и утверждением их власти (династия Цин), которое на долгое время сохранило в Китае строй феодальных отношений.

С конца XVIII в. Китай становится объектом колониального захвата со стороны ряда капиталистических стран. С середины XIX в. такие капиталистические страны, как Англия, США, Франция, Япония, постепенно превращают Китай в свою колонию и приводят науку и культуру Китая к глубокому упадку.

Только позже, в связи с победой китайской Народной революции, в Китае созданы все необходимые условия для успешного развития науки и культуры в стране.

Китайские исторические задачи.

Рассмотрим некоторые исторические математические задачи, предложенные китайскими математиками в различные времена.

Задача о фазанах и кроликах.

Эта задача взята из китайского математического трактата «Арифметика в девяти главах» («Киу-Чанг»), начало составления которого относится за II в. до н. э.

Задача. *В клетке находится неизвестное число фазанов и кроликов. Известно только, что вся клетка содержит 35 голов и 94 ноги. Требуется узнать число фазанов и число кроликов.*

Ответ: фазанов 23, кроликов 12.

Задача о похищении риса.

Задача взята из того же китайского математического трактата.

Задача. *Из трех бочек риса одинаковой емкости похищено тремя ворами некоторое количество риса. Общее количество его было неизвестно, но выяснилось, что в первой бочке остался 1 го риса, во второй – 1 шинг 4 го и в третьей – 1 го. Пойманные воры показали: первый, что он отсыпал рис из первой бочки при помощи лопаты, второй – что он пользовался деревянным башмаком, а третий – миской, причем они соответственно брали из второй и третьей бочек. Лопата, башмак и*



миска найдены на месте преступления. При обмере их оказалось, что емкость лопаты 1 шинг 9 го, башмака – 1 шинг 7 го, миски – 1 шинг 2 го.

Требуется узнать, сколько похитил каждый вор. При этом известно, что 10 го равны 1 шингу, 10 шингов равны 1 тау, 10 тау равны 1 ши.

У к а з а н и я к р е ш е н и ю.

Пусть x – число раз отсыпания риса лопатой;
 y – число раз отсыпания риса башмаком;
 z – число раз отсыпания риса миской.

Получим систему уравнений:

$$19x + 1 = 17y + 14 = 12z + 1.$$

Из этой системы имеем:

$$19x = 12z; \quad x = \frac{12z}{19}.$$

Поскольку x, y, z – целые числа, можно положить, что

$$z = 19t.$$

Тогда получаем неопределенное уравнение.

$$17y + 13 = 228t.$$

Принимая для t наименьшее целое значение, при котором y будет целым, т. е. $t = 14$, получим:

$$x = 168, \quad y = 187, \quad z = 266.$$

1-й вор похитил 3 ши 1 тау 9 шингов 2 го;

2-й вор похитил 3 ши 1 тау 7 шингов 9 го;

3-й вор похитил 3 ши 1 тау 9 шингов 2 го.

З а д а ч а о г л у б и н е о з е р а.

Задача взята из китайского трактата «Начала искусства вычисления», напечатанного в 1593 г. и содержащего ряд статей и задач по арифметике, алгебре и геометрии, причем некоторые вопросы заимствованы из трактата «Арифметика в девяти главах».

З а д а ч а. В середине квадратного озера со стороной 10 футов растет тростник, выходящий из воды на 1 фут. Если нагнуть тростник, вершина достигнет берега. Как глубоко озеро?

О т в е т: глубина озера 12 футов.

З а д а ч а о п р я м о у г о л ь н о м т р е у г о л ь н и к е.

Задача взята из того же трактата.

З а д а ч а. Определить стороны прямоугольного треугольника, если известны площадь и периметр.



Указания к решению.

Условия задачи приводят к решению системы трех уравнений с тремя неизвестными:

$$\begin{cases} a + b + c = p, \\ a^2 + b^2 = c^2, \\ ab = 2S, \end{cases}$$

где a , b и c – стороны, p – периметр, S – площадь. Из 2-го 3-го уравнения имеем:

$$(a + b)^2 = 4S + c^2,$$

откуда

$$(p - c)^2 = 4S + c^2.$$

Решив относительно c , получим:

$$c = \frac{p^2 - 4S}{2p}.$$

Имея в виду 1-е уравнение, будем иметь:

$$a + b = \frac{p + 4S}{2p}.$$

Присоединив к этому уравнению 3-е, значение a и b определяем как корни квадратного уравнения:

$$a^2 - \frac{p^2 + 4S}{2p} a + 2S = 0$$

На отдельных исторических задачах можно показать оригинальные приемы решений, тонкие наблюдения за свойствами чисел, умелое использование скрытых связей между данными и искомыми. Такие задачи учат мыслить, наблюдать, внимательно вчитываться в условие.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Глейзер Г. И. История математики в школе VII – VIII классы. Пособие для учителей. – М.: Просвещение, 1982.
2. Итс Р. Ф., Смолин Т. Я. Очерки истории Китая с древнейших времен до середины XVII века. – Учпедгиз, 1961.
3. Чистяков В. Д. Сборник старинных задач по элементарной математике с историческими экскурсами и подробными решениями. – Минск, 1962.



KVADRAT TENGLAMALAR VA ULARNI O'QITISH METODIKASI

Uraqov Nuriddin Oybekovich
Toshkent viloyati Bōstonliq tumani
43-maktab matematika fani o'qituvchisi

Annotatsiya: UShbu maqolada kvadrat tenglamalar va ularni yechish usullari haqida ma'lumotlar berilgan. Maqolada shuningdek, kvadrat tenglamaning turlari haqida ham so'z yuritilib, bugungi kunda ularni o'qitish metodikasi haqida fikr-mulohazalar yuritilgan. Ko'rilgan tadqiqot ishi yuzasidan ayrim taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Kvadrat tenglama, tengsizlik, yechish, to' liqsiz kvadrat tenglama, raqamlar, matematika, formula, natija.

КВАРТАЛЬНЫЕ УРАВНЕНИЯ И МЕТОДЫ ИХ ОБУЧЕНИЯ

Аннотация: Эта статья дает вам краткий обзор квадратных уравнений и способов их решения. В статье также рассматриваются виды квадратных уравнений и способы их преподавания сегодня. Некоторые предложения и рекомендации были сделаны для исследования.

Ключевые слова: Квадратные уравнения, неравенства, решения, неполные квадратные уравнения, числа, математика, формулы, результаты.

QUARTER EQUATIONS AND METHODS OF TEACHING THEM

Annotation: This article gives you a brief overview on quadratic equations and how to solve them. The article also discusses the types of quadratic equations and how to teach them today. Some suggestions and recommendations have been made for the study.

Keywords: Quadratic equations, inequalities, solutions, incomplete quadratic equations, numbers, mathematics, formulas, results.

KIRISH

Mamlakatimizda matematika 2020-yildagi ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. O'tgan davr ichida matematika ilm-fani va ta'limini yangi sifat bosqichiga olib chiqishga qaratilgan qator tizimli ishlar amalga oshirildi:

birinchidan, ilg'or ilmiy markazlarda faoliyat yuritayotgan vatandosh matematik olimlarning taklif qilinishi va xalqaro ilmiy-tadqiqotlar olib borilishi uchun zarur shart-sharoit yaratildi;

ikkinchidan, xalqaro fan olimpiadalarida g'olib bo'lgan yoshlarimiz va ularning murabbiy ustozlari mehnatini rag'batlantirish tizimi joriy etildi;

uchinchidan, oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqotlarning o'zaro integratsiyalashuvini ta'minlash maqsadida talabalar shaharchasida Fanlar akademiyasining V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining yangi va zamonaviy binosi barpo etildi. Matematika sohasidagi fundamental tadqiqotlarni moliyalashtirish hajmi bir yarim barobarga oshirildi, budget mablag'lari hisobidan superkompyuter, zamonaviy texnika va asbob uskunalari xarid qilindi;

to'rtinchidan, ilmiy darajali kadrlarni tayyorlashning birlamchi bosqichi sifatida stajor-tadqiqotlik instituti joriy etildi;

beshinchidan, ilm-fan sohasidagi ustuvor muammolarni tezkor bartaraf etish, fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish masalasini hukumat darajasida belgilash maqsadida O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri raisligida Fan va texnologiyalar bo'yicha respublika kengashi tashkil etildi.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. Pedagogik texnologiyalardan majburan foydalanish mumkin emas. Aksincha, tajribali pedagoglar tomonidan asoslangan yoki ular tomonidan qo'llanilayotgan ilg'or texnologiyalardan maqsadga muvofiq foydalanish bilan birga, ularni ijodiy rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.[5,24]

ASOSIY QISM

Bizga ma'lumkin, antik davrda boshlab nafaqat birinchi, balki ikkinchi darajali tenglamalarni yechishga bo'lgan ehtiyoj, harbiy xususiyatga ega bo'lgan quruqlik va yer maydonlarini topish, shuningdek, astronomiya va matematikaning rivojlanishi bilan bog'liq muammolarni hal qilish zarurati paydo bo'lgan.

Miloddan avvalgi 2000-yilda ilk bor Bobilda kvadrat tenglamalarni yechishga muvaffaq bo'lishgan. Zamonaviy algebraik yozuvlardan foydalangan holda aytishimiz mumkinki, ularning yozma matnlarida to'liq kvadratik tenglamalar kabi to'liq bo'lmagan narsalarga qo'shimcha ravishda mavjud materiallar bo'lgan.[1,33]

Shakl tenglamasi $ax^2 + bx + c = 0$, qayerda a, b, c haqiqiy raqamlar, bundan tashqari $a \neq 0$, bo'lsa bu kvadrat tenglama deyiladi.

Agar $a = 1$ bo'lsa, u holda kvadrat tenglama qisqartirilgan deb nomlanadi $a \neq 1$ bo'lsa qisqartirilmagan tenglama deyiladi.

Kvadrat tenglamaning ildizlari $ax^2 + bx + c = 0$ formula orqali topiladi.

$ax^2 + bx + c = 0$, $a \neq 0$ ko'rinishdagi tenglama, bir noma'lumli kvadrat tenglama deyiladi. a - birinchi, b - ikkinchi koeffitsiyent, c - ozod had. Kvadrat tenglama ildizlari formulasi:

$$x = \frac{-b \pm \sqrt{b^2 - 4ac}}{2a}$$

$D=b^2-4ac$ ifoda **diskriminant** deyiladi.

1) Agar $D<0$ bo'lsa, tenglama yechimga ega bo'lmaydi.

2) Agar $D=0$ bo'lsa, $x = -\frac{b}{2a}$ tenglama bitta yechimga ega bo'ladi.

3) Agar $D>0$ bo'lsa, tenglama ikkita yechimga ega:

$$x_1 = \frac{-b + \sqrt{D}}{2a}$$

$$x_2 = \frac{-b - \sqrt{D}}{2a}$$

Misol. 1) $2x^2-10x+12=0$

kvadrat tenglamada $a=2$, $b=-10$, $c=12$. $D=(-10)^2-4\cdot 2\cdot 12=100-96=4$.

$D>0$ demak, tenglama 2 ta yechimga ega:

$$x_1 = \frac{10 + \sqrt{4}}{2 \cdot 2} = \frac{12}{4} = 3$$

$$x_2 = \frac{10 - \sqrt{4}}{2 \cdot 2} = \frac{8}{4} = 2$$

Javob: $x_1=3$, $x_2=2$.

2) $3x^2+2x+4=0$ kvadrat tenglamada $a=3$, $b=2$, $c=4$. $D=2^2-4\cdot 3\cdot 4=4-48=-44$. $D<0$ demak, tenglama yechimga ega emas.

3) $x^2+2x+1=0$ kvadrat tenglamada $a=1$, $b=2$, $c=1$. $D=2^2-4\cdot 1\cdot 1=4-4=0$. $D=0$ demak, tenglama bitta yechimga ega: $x=-2/2=-1$. [2,24]

Agar kvadrat tenglamada b yoki c nolga teng bo'lsa, tenglama chala kvadrat tenglama deyiladi. $ax^2+c=0$ bo'lsa, $x^2=-c/a$. Bunda $-c/a<0$ bo'lganda yechimga ega. $ax^2+bx=0$ bo'lsa, $x(ax+b)=0$. $x_1=0$, $x_2=-b/a$ yechimga ega.

Misol.

1) $2x^2-8=0$ tenglamadan $x^2=8/2=4$. bundan $x_1=2$, $x_2=-2$.

2) $x^2+9=0$ tenglamadan $x^2=-9$ tenglama yechimga ega emas.

3) $3x^2+6x=0$ tenglamani $x(3x+6)=0$ ko'rinishga keltirsak, $x_1=0$, $x_2=-6/3=-2$ yechimlarini topamiz.

Kvadrat tenglamada birinchi koeffitsiyent birga teng bo'lsa $x^2+px+q=0$ bo'ladi. Unga keltirilgan kvadrat tenglama deyiladi. Keltirilgan kvadrat tenglama ildizlari formulasi:

$$x_{1,2} = -\frac{p}{2} \pm \sqrt{\left(\frac{p}{2}\right)^2 - q}$$

Masalan, $x^2+3x-4=0$.

Viyet teoremasi. Agar keltirilgan kvadrat tenglama haqiqiy ildizlarga ega bo'lsa, ularning yig'indisi $-p$ ga, ko'paytmasi q ga teng bo'ladi, ya'ni:



$$x_1 + x_2 = -p$$

$$x_1 \cdot x_2 = q$$

1- masala. $x^2 + px - 12$ tenglamaning ildizlaridan biri $x_1 = 4$.
 Shu tenglamaning p koeffitsiyentini va ikkinchi ildizi x_2 ni toping.

Δ Viyet teoremasiga ko'ra:

$$x_1 \cdot x_2 = -12, x_1 + x_2 = -p.$$

$x_1 = 4$ bo'lgani uchun $4x_2 = -12$, bundan $x_2 = -3$,

$$p = -(x_1 + x_2) = -(4 - 3) = -1.$$

J a v o b : $x_2 = -3, p = -1$. ▲

2- masala. Ildizlari $x_1 = 3, x_2 = 4$ bo'lgan keltirilgan kvadrat tenglama tuzing.

Δ $x_1 = 3; x_2 = 4$ sonlari $x^2 + px + q = 0$ tenglamaning ildizlari bo'lgani uchun Viyet teoremasiga ko'ra $p = -(x_1 + x_2) = -7, q = x_1x_2 = 12$.

J a v o b : $x^2 - 7x + 12 = 0$. ▲

Tugallanmagan kvadrat tenglamalar

Agar kvadrat tenglamada $x^2 + bx + v = 0$ bo'lsa, ikkinchi koeffitsient b yoki bepul a'zo v nolga teng bo'lsa, u holda kvadrat tenglama tugallanmagan deb nomlanadi. [3,19]

Tugallanmagan tenglamalar ajralib turadi, chunki ularning ildizlarini topish uchun siz kvadrat tenglamaning ildizlari formulasidan foydalana olmaysiz - tenglamani uning chap tomonini omillarga bo'lish orqali hal qilish osonroq bo'ladi.

$$(2x + 1)(x - 3) + (1 - x)(x - 5) = 29 - 11x$$

$$2x^2 - 5x - 3 - 6x + 5 + x^2 + 11x = 29$$

$$3x^2 = 27$$

$$x^2 = 9$$

$$x_1 = 3, x_2 = -3$$

Omsim: ± 3

Murakkab parametrlarga ega kvadrat tenglamalar

Birinchidan, eng oddiy kvadrat tenglamani ko'rib chiqing $z^2 = a$ a - berilgan son va z - noma'lum son. Haqiqiy sonlar to'plamida bu tenglama:

1. bitta ildizga ega $z = 0$ bo'lsa $lekin = 0$,


2. ikkita haqiqiy ildizga ega $z_{1,2} = \pm\sqrt{a}$

3. Agar haqiqiy ildizlar mavjud bo'lmasa, $a^2 + x + 1 = 0$.

Tenglamani yeching. Buning uchun ikkita grafik tuzing $y = x^2, y = x + 1$.

$y = x^2$, kvadratik funksiya, parabola grafigi.

$y = x + 1$, chiziqli funksiya, grafik to'g'ri. [3,52]



Grafikalar ikki nuqtada kesishadi, tenglama ikkita ildizga ega.

Javob: $x \approx -0,6$, va $x \approx 2,6$.

Kvadratlar tenglamalari yordamida muammolarni yechish

E	Tezlik km / soat	Vaqt h	Masofa km.
Daryoning yuqorisida	$10 - x$	$35 / (10 - x)$	35
Oqim	$10 - x + 1$	$18 / (10 - x + 1)$	18
V oqimi	x		
V oqim	$x + 1$		

Hind matematigi Bxaskara (1141–1225) $x^2 - 45x = 250$ kvadrat tenglamaning $x_1 = 50$, $x_2 = -5$ yechimlardan iborat ikkita ildizini beradi.

$x_2 = -5$ ildiz to'g'risida “bu ildizni hych kim ma'qullamaydi” deb aytadi.

IX asrga kelib esa buyuk o'zbek matematigi Al-Xorazmiy kvadrat tenglamani yechish usullarini tizimlashtirdi. [4,40]

Shuni ta'kidlash joizki, hozir biz ishlayotgan kvadrat tenglamalarning umumiy shakli o'rta asr matematiklariga ma'lum emas edi.

Ya'ni, ular: $x_2 + rx = q$, $x_2 = px + q$, $x_2 + q = px$ tenglamalarni uchta turli xil tenglama deb tushunganlar.

Nyuton o'zining “Universal arifmetika” asarida kvadrat tenglamalarning hozirgi davrdagi yechimlarini bergan. [2,70]

Bizga ma'lumki, har qanday tushuncha o'z-o'zidan kelib chiqmaydi. Kvadrat tenglamalar tushunchasi ham xuddi shunday. Ya'ni hayotiy zaruriyatlardan kelib chiqqan. Shunday masalalardan bittasini qarab chiqaylik.

Masala. Jism 19,6 m balandlikdan boshlang'ich tezliksiz tushib kelmoqda. U qancha vaqtdan so'ng yerga tushadi (havoning qarshiligi hisobga olinmagan holda)?

Erkin tushayotgan jismning bosib o'tgan yo'li $s = gt^2/2$ formula bilan hisoblanishi fizikadan ma'lum. Bu yerda g –og'irlik kuchi tezlanishi, t –vaqt.

Masalaning shartiga asosan, $s = 19,6$ m, $g = 9,8$ m/sek² bo'lgani uchun $19,6 = 4,9 t^2$ tenglik hosil bo'ladi. Bundan $t^2 = 19,6/4,9 = 4$, ya'ni $t=2$ sek yechimga ega bo'lamiz. Ko'rinib turibdiki, masala kvadrat tenglamani yechishga keltirildi.

Shundan keyin quyidagicha chala kvadrat tenglamalar 3 turga ajratib tushuntiriladi:

1) $ax^2 + bx = 0$;

2) $ax^2 + c = 0$;

3) $ax^2 = 0$.

Ketma-ketlikni saqlagan holda bu tenglamalarni yechish usullari ko'rsatiladi. Yuqorida keltirilgan masaladagi kvadrat tenglama 2-turga mansubdir.

TAKLIF VA TAVSIYALAR

Bizning fikrimizcha kvadrat tenglamalar mavzusini o'tishda quyidagi metodik tavsiyalarni inobatga olish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1) mavzuning kirish qismida kvadrat tenglamalar haqida qisqacha tarixiy ma'lumot berish;

2) mavzuni kvadrat tenglamaga keltiriladigan amaliy masalalarni yechishdan boshlash;

3) mavzuni xususiy hol bo'lgan chala kvadrat tenglamalarni yechish bilan davom ettirish;

4) keltirilmagan va keltirilgan kvadrat tenglamalar yechimlarining to'la tahlilini berish;

5) kvadrat tenglamalarni yechishga keltiriladigan murakkab masalalarni yechish hamda bunday masalalarni yechishga nisbatan ko'nikma va malaka hosil qilish.

Xulosa: Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, Kvadrat tenglamalar va ularni o'rganish biroz murakkabroqdek tuyulishi mumkin. Biz berib o'tgan usullar va metodikadan foydalangan holda kvadrat tenglamalar mavzuni o'rganish nisbatan osonlashadi deb o'ylayman.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda kvadrat tenglamalar mavzusini o'qitish yaxshi samara beradi.

Kvadrat tenglamalarning turlari va ularni yechish usullari haqida to'xtalib o'tganimizda ham aytganimizdek, ularni yechishda kvadrat tenglama formulasidan foydalanish lozim bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Borodin A.I., Bugay A.S. Vidayushiesya matematiki. – Kiev, "Radyanska shkola", 1987.

2. Bronshteyn I.N., Semendyaev K.A. Spravochnik po matematike. – M., "Nauka", 1986.

3. Xudoybergenov A. Matematika. – T.: "O'qituvchi", 1973.

4. "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori (1999-yil 16-avgust) // Xalq ta'limi jurnali. 1999-y. № 5



5. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi. Nasaf. 2000.
6. Tolipov O‘. Q., Usmanboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. - Toshkent: “Fan”. 2005.

ФРАЗЕОЛОГИЗМЛАР ТАРЖИМАСИ МАСАЛАЛАРИ

Мирзакаримов М.Р

Андижон давлат университети

Аннотация: Ушбу мақола таржимашуносликнинг асосий муаммоларидан бири бўлган фразеологизмларнинг таржимаси масаласига бағишланган. Замонамизнинг ўзига хос хусусиятларидан бири бўлган таржима амалиёти кўпроқ бадиий таржимага қаратилган бўлиб, бунда фразеологизмлар масаласи асосий ўринлардан бирини эгаллайди. Бадиий таржимада фразеологик бирикк ҳисобланаган ибора, жуфт сўзлар, идиомалар, мақоллар, ҳикматли сўзлар, афоризмлар ва уларнинг бир тилдан иккинчи бир тилга таржимаси билан боғлиқ масалалар ҳақида сўз юритилади.

Калит сўзлар: ибора, фразеология, фразеологизм, эквивалент, аналог

«Ҳар қандай тилнинг луғат бойлиги фақат янги сўзлар ясашишигагина эмас, балки янги иборалар, турғун бирликлар ҳисобига ҳам сон жихатидан (quantitativ), ҳам сифат жихатидан (qualitativ) бойиб боради» деб ёзади профессор М.Э. Умархўжаев ўзининг «Олмон тили лексикологияси ва фразеологияси» номли китобида. Тилдаги ана шундай турғун бирликлар «дунёси» билан шуғулланадиган фан фразеология (Phraseologie) фанидир. Фразеология иборалар ҳақидаги таълимот бўлиб, бу терминни 1928 йилда Е.Д. Поливанов қўллаган эди: «Я позволю себе употребить термин «фразеология» для обозначения особой дисциплины (наряду с фонетикой, морфологией, синтаксисом, лексикой...), занимающей по отношению к лексике то же положение, какое синтаксис занимает по отношению к морфологии».⁵

Ҳозирги кунда олмон ва ўзбек тилларида фразеология термини икки маънода қўлланилмоқда.

1. Die Gesamtheit aller stehenden Wortverbindungen (Phraseologismen) – тилдаги фразеологик бирликларнинг жами;

2. Der Zweig der Sprachwissenschaft, der sich mit der Erforschung stehender Wortverbindungen befaßt – турғун ибораларни ўрганувчи соҳа, фан.

Сўнги йилларда кўплаб тиллар материали асосида олиб борилган кенг қўламли фразеологик тадқиқотлар натижасида фразеологизмлар қуйидагича таърифланади:

Икки ёки ундан ортиқ компонентдан ташкил топган, яхлит фразеологик маъно англатувчи турғун тил бирлиги фразеологизм ёки фразеологик бирлик (ибора) дейилади.

Масалан, олмон тилида durch die Lappen gehen – entwischen, große Augen machen – staunen, auf die Beine kommen – genesen, Mann und Maus, fix und fertig, j-m Sand in die Augen streuen – belügen, Morgenstunde hat Gold im Munde, schlau wie ein Fuchs, den

⁵ А.М. Бушуй. О фразеологической концепции Мухтара Умарходжаева // Хорижий филология, Самарканд, 1(30), 2009, с.19



Rubikon überschreiten, viele Köche verderben den Brei, man soll den Teufel nicht an die Wand malen иборалари;

Ўзбек тилида қовун туширмоқ, оғзи қулоғида, дўпписи яримта, сиркаси сув қўтармас, темирни қизиғида бос, тарвузи қўлтиғидан тушмоқ, гул тиконсиз бўлмайди, аравани куруқ олиб қочмоқ, сичқоннинг уйи минг танга иборалари бунга мисол бўла олади.

Фразеологизм сўз каби луғавий бирлик ҳисобланиб, сўзлар каби тилда тайёр ҳолда мавжуд бўлганлиги сабабли нутқ ҳодисаси эмас, балки тил ҳодисасидир. Сўз лексик маънога эга бўлгани каби фразеологизм ҳам ўзининг фразеологик маъносига эга. Фразеологизмлар сўзда мавжуд бўлган барча парадигматик, синтагматик хусусиятларни намоён қилади. Шу билан бирга фразеологизмлар сўз ва эркин сўз бирикмасидан бир қанча хусусиятлари билан фарқланади. Масалан, фразеологизм фразеологик сатҳ элементи, бирлиги, фразеология ва фразеография⁶ объектидир. Фразеологияни ташкил этувчи компонентлар маъно бутунлигига эга эмас, улар фақатгина шакл ва товуш томони билан сўзга ўхшайди. Уларни ташкил қилувчи компонентларнинг фразеологик маъноси турғун, кўпроқ эмоционал-экспрессив жилогга эга бўллади.

Тиллардаги турғун иборалар тилшуносликда бир қатор атамалар билан номлаб келинмоқда. Масалан, *Idiome, idiomatische Wendungen* каби классик терминлар билан бир қаторда *stehende, starre Wortverbindung, Phraseologismus* ва б. Албаттаржима тила, бундай ҳолат турғун ибораларнинг семантик, структурал ва функционал нуктаи назардан мураккаблиги билан изоҳланади. Шу сабабли ҳам фразеологизмлар структурал-семантик, семантик, стилистик, комплекс, гапдаги синтактик функцияси ва бошқа принциплар асосида классификация қилиб келинган.

Фразеологизмларнинг структурал-семантик принцип асосидаги классификацияси анъанавий классификация бўлиб, Европа тилшунослигида ҳам қўлланиб келинади. Ушбу принципга асосан фразеологизмлар қуйидаги гуруҳларга бўлинади: *Wortpaare, Idiome, Geflügelte Worte, Sprichwörter*.

Wortpaare (Zwillingsformeln) – жуфт сўзлар – бир хил сўз туркумига тегишли бирликлардан ташкил топган турғун фразеологик маъноли иборалар. Масалан, *Mann und Maus, fix und fertig, Schritt für Schritt, Stunde um Stunde, mit Mühe und Not, Rat und Tat, mit Mann und Maus, weit und breit* u.a.

Idiome – идиомалар – ушбу термин грек тилидан олинган бўлиб, *idios* – *eigentümlich, originell* маъноларини ифодалайди. Идиомалар турғун иборалар бўлиб, воқеа, ҳодиса ва предметларни ифодали тасвирлаш мақсадида ишлатиладиган, маъноси уларни ташкил қилувчи компонентлар маънолари йиғиндисидан келиб чиқмайдиган, янги фразеологик маъно касб этувчи тил бирлигидир. Масалан, *die Augen in die Hand nehmen* – “genau sehen”, *sich die Beine in den Leib stehen* – “lange

⁶«Фразеография» термини проф.М.Э. Умарходжаев томонидан 1970 йили юқорида кўрсатилган мақолада қўлланилган, яъни фразеографик луғатлар назарияси ва амалиёти билан шуғулланувчи фандир.



warten, sich matt fühlen", unter die Haube bringen – "verheiraten"; ўзбек тилидаги ўпкасини қўлтиклаб, бир ёстикқа бош қўймоқ, тарвузи қўлтиғидан тушмоқ, ахмоққа Қува бир тош, аталадан суюк чикмоқ кабилар.

Geflügelte Worte – ҳикматли сўзлар – турғун ибораларнинг ўзига хос алоҳида тури ҳисобланади. "Ein Geflügeltes Wort, - деб изоҳ беради Р. Клаппенбах, - ist Äußerung einer (bekannten) Person, die häufig angeführt wurde und so sprichwörtlich geworden ist".⁷

Ҳикматли сўзларни ўтмиш донишмандлари, замонамизнинг атоқли арбоблари келтирган афористик мулоҳазалар, шиорлар (Losung), лукмалар (Sentenz), цитаталар ташкил этади.

Aphorismus (gr.-lat. das abgesonderte, vereinzelte geistvolle Aussage; Losung – Aufruf; Sentenz (lat. Meinung) – bekannter Ausspruch; Zitate (lat. citatum – nennen) – wörtlicher Auszug aus einem Text.⁸

Ҳикматли сўзларнинг асосий хусусиятлари уларнинг донишомуз маъноси, интернационал характери, маълум бир муаллифга тааллуқлилигидир. Уларнинг мана шу хусусиятлари турғун иборалар сафидан жой олиш учун асосий мезон ҳисобланади. Вақт ўтиши билан баъзи хоссалари эскириб қолса ҳам улар тилда турғун ибора сифатида сақланиб қолади.

Антик мифологиядан олинган Apfel der Zwietracht, auf dem Olymp sitzen, халқ эртақларига тааллуқли der Geist des Hauses, der dritte Hahnenschrei, тарихдан олинган der gordische Knoten каби иборалар.

Мақоллар ҳам фразеологизмларнинг бир тури бўлиб, улардан шакл ва мазмуни билан фарқ қилади. Одатда улар гап структураси каби шаклланади ҳамда ҳикматомуз жилоли фикрни ифодалайди. Масалан, viele Köche verderben den Brei, man schmiedet das Eisen, solange es heiß ist u.a.

Ўзбек тилидаги қуйидаги мақолларни қиёслаб кўришимиз ҳам мумкин: қўйчивон кўп бўлса қўй ҳаром ўлади, жўжани кузда санайдилар, темирни қизиғида бос в. б.

Мақоллар билан фразеологизмларнинг умумий хусусияти шундан иборатки, биринчидан улар структурал турғун, умумий кўчма маънога эга, тилдаги мустақил бирлик сифатида мавжуд.

Юқорида таҳлил қилинган бирликларнинг анъанавий тўрт гуруҳи ягона бир принцип асосида тавсифланмаган. Идиомалар семантик принцип асосида, жуфт сўзлар ва мақоллар структура нуктаи назаридан фарқланган. Ҳикматли сўзларнинг ҳам структурал, ҳам семантик жиҳатдан ранг-баранглиги уларни бирон аниқ принцип асосида кўриб чиқишни қийинлаштиради. Бундан ташқари, тиллардаги бир қатор турғун бирликлар – фразеологизмлар ушбу тасниф орқали қамраб олинмаган.

Таржима назариясининг бир қанча муҳим масалалари қатори, мақол, матал, идиомалар муҳим ва мураккаб сўз ўйинлари ва образли ибораларни бир

⁷ Ruth Klappenbach, Wolfgang Steinitz. Wörterbuch der deutschen Gegenwartssprache. Bn.2, Berlin, 1968, S.1483

⁸ A.Iskos, A.Lenkova. Deutsche Lexikologie. Leningrad, 1960, S.183



тилдан бошқа тилга таржима қилиш муаммоси ҳам ғоят катаржима тила аҳамият касб этади, албатаржима тила. «Фразеология масалалари ва турли тилларда сўзларнинг ҳар хил бирикишига оид умумий муаммо, таржима амалиёти билан бирга, таржима назарияси учун ҳам ғоят муҳимдир. Чунки турли тилларда моддий маъноси бир хил бўлган сўзларнинг маъно ва услуб функциялари бир-биридан тафовут қилиши, турли тилларда бундай сўз бирикмаларининг фарқ қилганлиги учун, таржима амалиётида катаржима тила мушкуллик туғдириб, назарий жиҳатдан ҳам жуда катаржима тила қизиқиш уйғотади»⁹.

«... Таржимонга ғов бўладиган нарса ҳар қандай турдаги идиоматик ибораларни **тўғри** таржима қилишдир, чунки бу ибораларнинг маъноси уларни ташкил этган компонентларнинг ҳозирги вақтдаги маъносидан келиб чиқмайди» (Л.Бинович)¹⁰; «...оқибат натижада таржимадаги қийинлик даражасининг мезони кенг маънода асл нусха тилининг идиоматиклигидир» (Я.И. Рецкер)¹¹; «Таржимада автор услубини айнан бериш учун лексик-фразеологик воситаларни танлаб ола билиш ҳал қилувчи аҳамиятга эга» (Я.И. Рецкер)¹²; «авторнинг индивидуал услубини ва унинг асаридаги миллий ўзига хос хусусиятларни сақлаб қолишдек муҳим вазифани ҳал қилиш йўлидаги қийинчиликлар маълум даражада лексика ва фразеологияни таржима қилиш масалалари билан вобастадир» (В.Д. Андреев).¹³

Таржимашунос олимлар аслият тилдаги фразеологик бирликларни қуйидаги уч гуруҳга ажратиб ўрганишни ва таржима тилга ўгиришни тавсия этадилар:

1. Бутунлай мувофиқлик.
2. Қисман мувофиқлик.
3. Мувофиқликнинг йўқлиги (ёки номувофиқлик).

Таржимада фразеологизмларнинг берилиши, асосан, эквивалентликнинг биринчи типига хос ҳисобланади, яъни бу таржимада асосий мақсад коммуникация мақсадининг таржимада тўлиқ сақлаб қолиш ҳисобланади. Фразеологик бирликларни таржимада беришда қуйидаги усуллардан фойдаланилади:

⁹А. В. Ф е д о р о в . Введение в теорию перевода (Лингвистические проблемы), М., 1958, стр. 169.

Мақол, матал ва идиоматик иборалар бадий асарда автор тилида ҳамда тасвирланган персонажлар нуткида кўп учраши сабабли, улар бадий адабиёт учун жуда характерлидир. Бироқ, А.В. Федоровнинг фикрича, нутқ воситаларнинг бу категорияси фақатгина бадий адабиётнинг хусусий мулки бўлолмайди. Чунки фразеологик иборалар публицистикада ва, қисман, илмий адабиётларда ҳам ишлатилади. Шунинг учун уларга фақат бадий адабиётга тааллуқли масала деб эмас, балки жуда муҳим умумий тил масаласи сифатида қарамоқ керак (юқоридаги асарнинг 170—171-бетларига **қаранг**). Биз А. В. Фёдоровнинг сўзларига таяниб, асосан, бадий таржимада фразеологияни акс эттириш масаласига эътиборни қаратган ҳолда, ишда, қисман, сиёсий адабиётлар таржималаридан ҳам мисоллар келтиришга интилдик.

¹⁰Л. Бинович. О многозначности идиом. «Иностранные языки в школе». 1952. №5, стр. 29

¹¹Я.И. Р е ц к е р. О градации трудностей в курсе перевода на родной язык. «Ученые записки военного института иностранных языков». № 6, 1948. Стр. 34

А.С. Пушкин. Полное собрание сочинений. том XII. Из-во АН СССР, 1949. стр. 143-144.

В.Г. Белинский. Полное собрание сочинений. том II. Из-во АН СССР, М., 1953. стр. 429.

¹²Я.И. Р е ц к е р. Задачи сопоставительного анализа переводов (ТКП, 45).

¹³В. Д. А н д р е е в . Некоторые вопросы перевода на русский язык болгарской художественной литературы (ТКП, 143).

Сўзма-сўз таржима;

Анологик таржима;

Изоҳли таржима;

1. **Бутунлай мувофиқлик** – бир тилдаги фразеологик бирикмаларнинг иккинчи тилда турғун эквивалентининг мавжудлиги.

Масалан: Öl ins Feuer gießen; to bring oil to fire – алангага ёғ қуймоқ

den Kopf verlieren; to lose one's head – бошини йўқотмоқ

von Kopf bis Fuß; from head to foot – бошдан оёғигача

Мувофиқликнинг бу турига хос хусусиятлар:

1. Лексико-семантик, морфологик ва синтактик составнинг мувофиқлиги.

2. Коммуникация мақсадининг сақлаб қолинганлиги.

3. Ахборотни тасвирлаш усулининг бир хиллиги.

2. **Қисман мувофиқлик** – бир тилдаги фразеологик бирликлар (ФБ)нинг бошқа тилда тўла муқобил вариантнинг йўқлиги ёки, ёки ФБнинг таржима тилда қисман муқобил вариантнинг мавжудлиги.

Масалан: im trüben fischen; to fish in troubled waters – лойқа сувда балиқ тутмоқ

leben wie Hund und Katze; to agree like cats and dogs – ит ва мушукдек яшамок

Баъзида А тилдаги фразеологик бирикма В тилда қисман мувофиқ В тилда эса бутунлай мувофиқ келиши мумкин. Масалан: from head to foot рус тилига *с ног до головы* – деб таржима қилинади. Русчадан ўзбек тилига ўтирилиш жараёнида шу ибора учраса, уни *бошдан оёқ* - деб ўзбек тилига таржима қилинади. Демак, кўриниб турибдики, инглиз тилидан рус тилига қисман мувофиқ келувчи фразеологик бирикма инглиз тилидан ўзбек тилига бутунлай мувофиқ таржима қилиниши мумкин экан.

3. **Мувофиқликнинг йўқлиги** – аслият тилдаги ФБнинг таржима тил эквивалентларининг умуман учрамаслиги ва мазкур бирликлар таркибида аслият тилга мансуб (эквивалентсиз лексик бирикмалар) реалияларнинг учраши. Бу каби ФБ эквивалентсиз лексикани бериш усулларида хисобланган:

А. Сўзма-сўз таржима

Б. Анологик таржима

В. Изоҳли таржима

усуллари ёрдамида таржима қилиниши мумкин.

А. Сўзма-сўз таржима. Бу усулда фразеологик бирлик сўзма-сўз таржима қилинади ва таржима жараёнида таржима тилдаги миллий колоритга хос сўзлардан фойдаланилмайди.

1. die Dinge bei ihrem rechten Namen nennen; to call things by their true names – ҳар нарсани ўз номи билан атамоқ.

2. Rüstungswettlauf; the arms race – қуролланиш пойгаси.

3. kalter Krieg; cold war – совуқ уруш.

Мувофиқликнинг бу турига хос хусусиятлар:

1. Таржимада лексик-синтактик морфологик таркибнинг сақлаб қолиниши.

2.Таржимада коммуникация мақсадининг сақлаб қолинганлиги.

3. Таржимада тасвир усулининг сақлаб қолинганлиги.

Б. Аналогик таржима. ФБ таркибида миллий колоритдаги сўзлар ёки бир миллатга хос бўлган тасвирий ифодалар учраганда таржима тилдан бирор ФБ аналог сифатида танлаб олинади ва таржимада берилади. Масалан, булмайдиган воқеа-ҳодиса тасвирланганда немис тилида – wenn die Hunde mit dem Schwanz bellen (қачонки, итлар думлари билан аккиллалар) ибораси кулланса, инглизларда – when the moon turns green cheese (қачонки, ой яшил пишлоққа айланса) ибораси аналог сифатида танланади. Рус тилига бу ибора **когда рак свистнет на горе и рыба запоеет** (қачон тоғда қисқичбақа ҳуштак чалса ва балиқ куйласа) тарзида таржима қилинади, болгар тилида мазкур иборага стереотип бўлган – **хотя бы кога се покачи свиня с жълти чехли на круша** (қачонки, чўчка сариқ шатакда нокка сакраса) ибораси мавжуд булса, ўзбек тилига бу иборага аналог сифатида “**туянинг думи ерга текканда**” иборасини танлаш мумкин.

Хулоса қилиб шуни айтишимиз мумкинки, дунё халқлари турли тилларда сўзлашишларига қарамасдан уларнинг тафаккур қилиш қонунлари умумий характерга эгадир, бу эса ўз навбатида истаган бир халқ тилидан бошқа тилларга таржима қилиш имконини беради. Тил кишиларнинг ўзаро алоқа воситаси экан, таржима туфайли халқлар ўзаро муомала қиладилар ва бир-бирларининг фикрига тушунадилар. Бир тилдан бошқа тилга таржима қилиш имконияти бўлмаганида эди, халқлар умумий тил топа олмас, бир-бирларининг фан, техника, маданият ва бошқа соҳалардаги ютуқларидан баҳраманд бўлолмас, ўзаро ҳамкорлик қилолмаган бўлар эдилар.

АДАБИЁТЛАР:

1. М.Э.Умархўжаев. Олмон тили лексикологияси ва фразеологияси. Андижон. 2010.
2. Ғ.Салом. Рус тилидан ўзбекчага мақол, матал ва идиомаларни таржима қилиш масаласига доир. Тошкент, “ФАН” нашриёти, 1961. 159 б
3. Саломов Ғ. Тил ва таржима. Тошкент: “Фан”, 1966.– 384 б.
4. Ш.Сирождинов, Г.Одилова. Бадиий таржима асослари. Монография. Ўзбекистон Давлат жаҳон тиллари ун-ти, - Т.: MUMTOZ SO‘Z, 2011. - 166 б.



Mirzakarimov M.R
Andijon davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqola xorij tilshunosligida frazeologiyaning paydo bo'lish va rivojlanish tarixi masalasiga bag'ishlangan. Tilshunoslikning o'ziga xos yo'nalishlaridan biri bo'lgan frazeologiya ko'p sonli tilshunos olimlarning diqqatini o'ziga tortib, shu kungacha o'ziga xos rivojlanish yo'lini bosib o'tmoqda, xanuzgacha lingvistlarning nazaridan chetda qolgani yo'q. Maqolada frazeologiyaning paydo bo'lishi va evolution rivojlanish tarixi masalalar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: frazeologiya, frazeologik birlik, frazema, aforizm

Frazeologiya har qanday tilning eng katta xazinasini va doimiy qadriyatini hisoblanadi. U xuddi ko'zgu kabi xalqning tarixi va madaniyati, ma'naviy qadriyatlari, diniy e'tiqodlarini, ya'ni o'z o'rnida xalqning his-tuyg'ulari, tasavvurlari, qarashlari dunyosini aks ettiradi.

Bizning fikrimizcha frazeologiya nazariyasining ilmiy fan sifatida tarixiy evolyutsiyasi masalalari yetarlicha yoritilmagan.

Ushbu maqolada M.V. Lomonosov, I.V. Dal, I. I. Sreznevskiy, A.X. Vostokov, F.I. Buslaev, A.A. Potebnya, F.F. Fortunatov, A.A. Shaxmatov, Sh.Bally, F.de Sossyur, E.D. Polivanov, S.I. Abakumov, L.A. Bulaxovskiy, A.I. Yefimov, B.A. Larin, O.S. Axmanova, A.I. Smirnitkiy, S.I. Ozhegov, D.N. Shmeleva, V.N. Teliya, V.L. Arxangelskiy, N.N. Amosova va boshqalarning lingvistik faoliyati ko'rib chiqiladi.

Frazeologik birliklar aslida tilning butun tarixi davomida mavjud bo'lgan bo'lsada, ammo frazeologiya ilmiy fan sifatida yaqin vaqtlardan beri shakllana boshlagan. Qayd etish kerakki, ilk davrlarda frazeologiya ko'proq leksikografiya, ya'ni amaliy lug'atshunoslik ob'ekti bo'lib xizmat qilgan. Bu davrda e'tibor ko'proq frazeologik birliklarni lug'atlarda aks ettirish, ularning ma'nosini, etimologiyasini izohlash, talqin etishga qaratilgan edi.

Frazeologik birliklar birinchi marta 1558 yilda nemis filologi Maykl Neanderning yunon-latin lug'atida o'z ifodasini topgan.¹⁴

Lug'atshunoslik amaliyotida uzoq vaqt davomida (Rossiyada bundan uch asrdan ko'proq vaqt avval) o'ziga xos ma'noga ega bo'lgan iboralar berilgan va izohlangan bo'lib, ularning tarkibiy qismlarining odatiy ma'nosi saqlanmagan. XVII asrning "Alifbo" va „Alfavit“ kitoblarida bibliyadan hamda tarjima kitoblaridan olingan tushunarli bo'lmagan ko'plab iboralar to'plangan va hamma uchun tushunarli tilga tarjima qilish orqali tushuntirilgan. "Alfavit"da (sobiq SSSR Fanlar akademiyasi kutubxonasining qo'lyozmalar bo'limidan, 446-son, b. 150) *тризна* so'zi ostida "на тризну - на подвиг против супостата" iborasi ham berilgan. XVI asrning so'zlashuv nutqidan bir nechta erkin bo'lmagan iboralar "Парижский словарь московитов 1586 г." lug'atida talqin qilingan, masalan: *яз по нем порука* (unga garov) [21, 1998:472-473]; *мясо не поспело, мясо туго* (go'sht pishmagan, go'sht qattiq).¹⁵

¹⁴ MLACEK, J. *Slovenská frazeológia*. Bratislava: Slovenské pedagogické nakladateľstvo, 1984., c. 9.

¹⁵ https://studbooks.net/2147705/literatura/istorii_izucheniya_frazeologii



Rus tilshunosligi rivojlanishining boshlanish davridayoq dunyoga mashhur olim M.V. Lomonosov rus adabiy tilining lug'atini tuzish ustida ish olib borar ekan, "rus maqollari", "frazeslar", "idiomatizmlar"¹⁶ lug'atda o'z o'rnini topishi kerak deb hisoblagan. Lomonosovning ushbu ko'rsatmasi qisman Rossiya akademiyasining lug'atida (1789-1794) o'z aksini topgan. Bu o'z navbatida rus tilining nafaqat asosiy lug'at, balki frazeologik materiallarini to'plashning ham birinchi ajoyib urinishi bo'ldi.

Taniqli tilshunos olimlardan biri V.I. Dal so'zlar va turgun iboralarni to'plovchi sifatida mashhur bo'ldi. U «Толковый словарь живого великорусского языка» lug'atini tuzdi. Dal V.I. maqollar, matallar, iboralar, topishmoqlarning to'plami - «Пословицы русского народа» - asarini nashr etgan. Hozirgi vaqtda frazeologik birliklar deb ataladigan til birliklari V.I. Dal davrida boshqacha - matallar, maqollar, aforizmlar - deb nomlangan. Dal o'zining mashhur «Толковый словарь живого великорусского языка» lug'atini yaratgan paytda, frazeologiya nazariyasi hali ishlab chiqilmagan edi, garchi M.V. Lomonosov iboralar va ularni o'rganish zarurati haqida yozgan bo'lsa ham. Frazeologizm atamasi umuman Dal lug'atida qayd etilmagan va Dal frazeologiya atamasi bilan "iboralar haqida ta'limot", uni bezab turgan nutq iboralari (o'xshatishlar, epitetalar, metaforalar)ni atashni taklif qilgan.¹⁷

N.N. Suvorovanning yozishica I.I. Sreznevskiy "toshqotgan" iboralarning takrorlanishi nafaqat "an'ananing kuchi"¹⁸, balki tilning o'ziga xos tuzilishi bilan ham bog'liqligiga e'tibor qaratgan. U frazeologik iboralarda, til elementi kabi, muayyan tizimli qonuniyatlarni kuzatish mumkin, degan fikrni bildirgan.

Ma'lumki frazeologizm, frazeologik birlik, frazema — ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topgan, ma'noviy jihatdan o'zaro bog'liq so'z birikmasi yoki gapga teng keladigan, yaxlitligicha ko'chma ma'noda qo'llanadigan va bo'linmaydigan, barqaror (turg'un) bog'lanmalarning umumiy nomi... [<https://qomus.info/encyclopedia/cat-f/frazeologizm-uz/>]. Shunisi e'tiborga loyiqki, sintaksis ham o'zining kelib chiqishida nutqda alohida so'zlarning bog'lanishi haqidagi ta'limot bo'lgan, ya'ni so'z birikmalarinig o'ziga xos ta'limoti sifatida vujudga kelgan. Xarakterli jihati shundaki, asli yunoncha bo'lgan sintaksis atamasi qadimgi yunon grammatikalarida ikki ma'noda qo'llanilgan: 1) harflar bog'lanishi, 2) so'z va nutqning bog'lanishi

Sintaksis ta'limotining asoschisi Apolloniy Diskol (milodiy II asr) sintaksisning vazifasini gapni uning qismlari – gap bo'laklariga ajratishda emas, balki so'zlarning (so'z turkumlarining) ma'no va sintaktik vazifalari va shu asosda "yaxlit nutq"ni yasash usullarini aniqlashda deb bilgan. Ushbu tuzilishning namunalarini, qoidalarini aniqlashda u til faktlaridan, tildagi so'zlarning o'ziga xos birikmalarini o'rganishdan kelib chiqqan.

¹⁶ ШАНСКИЙ, Н. М. *Фразеология современного русского языка*. 4-е изд. Санкт-Петербург: Специальная Литература, 1996, с. 6-7.

¹⁷ О.Н. Игнатенко. Фразеологизмы в "Толковом словаре живого великорусского языка" РУССКАЯ РЕЧЬ 3/2002 Тверь Читая В.И. Даля 118 стр.

¹⁸ Срезневский И. И. Замечания об образовании слов из выражений. -Зап. АН. Т. XXII, кн. II. Спб. 1873, с. 243-252.

Rossiyada sintaksiz bilan bog'liq fanning rivojlanish tarixi ham o'zgachadir. Qadimiy grammatikalarda avval so'z, so'z turkumlari haqidagi ta'limot ishlab chiqilgan (masalan, rus tili asosidagi ilk «О восьми частях слова» (So'zning sakkiz turkumlari haqidagi), ya'ni so'z turkumlari haqidagi grammatik mulohazalar). Ularda inson nutqining asosiy birligi sifatida "nutq" va "so'z" (ya'ni jumla)ga ishora qilinadi. Biroq, sintaksis, birinchi navbatda, so'z turkumlarining "bog'lanishi", so'zlarning gapdagi birikmasi, ya'ni so'z birikmasi haqidagi o'ziga xos ta'limot sifatida qaraladi.

M.V. Lomonosov so'zlarning birikish qoidalarini o'rganar ekan, so'z birikmalari shakllarining turli darajadagi grammatik umumligi va xususiyligi mavjudligini aniqlaydi, buning natijasida, ba'zi hollarda, u sintaktik aloqalarning birikayotgan so'zlarning lug'aviy ma'nolarga yaqin bog'liqligini ko'proq ma'nodorlik bilan ta'kidlaydi, masalan, силён словом, рукою; силён в слове, в споре и проч.¹⁹

A.X. Vostokovning "Rus tili grammatikasi" (1831) asari, shubhasiz, M.V. Lomonosov tomonidan asos solingan milliy rus grammatikasi fanining davomi va rivojlanishi edi. Ma'lumki A.X. Vostokov Lomonosov singari sintaktik hodisalarni stilistik hodisalaridan farqlanishni tarafdori bo'ldi.

Vostokov A.X. leksik ma'nolarning o'zaro ta'sirini va so'zlarning sintaktik munosabatlarini, yoki to'g'rirog'i, so'zlarning haqiqiy ma'nolarining semantik jihatdan yuzaga chiqaruvchi, leksik jihatdan cheklangan so'z birikmalari tiplari tarkibidagi rolini hisobga oldi.

Vostokovning ixcham, ammo aniq va to'liq umumiy hulosalarida sintaktik sifatlar va imkoniyatlar birligi va umumiylikini yaratuvchi u yoki bu sintaktik kategoriya va konstruksiyalarning umumiy xossalari, so'zlarning ichki bog'lanishlari, turli turkum va guruhlarining, alohida barqarorlashgan sintaktik iboralarning o'ziga xos xususiyatlari, u yoki bu semantik so'z tizimlariga tegishlilik bilan so'zlarning sintaktik bog'lana olish shakllarining o'zaro munosabatlarining qonuniy usullari, o'xshash munosabatlar va so'z tizimlarining o'zaro bog'langan aloqalarini hisobga oladi.

Rus tilshunosligi tarixida birinchi marta "frazeologiya" tushunchasidan foydalangan holda Buslaev F.I. ushbu kontseptsiyaga bir nechta elementlarni kiritadi: stilistik motivatsiya ("to'g'ri va nafis nutq"), ritorik urg'u ("obrazli iboraning kuchi va go'zalligi"), reproduktivlik (muallif frazeologiyani idiotizm tizimida ko'rib chiqayotgani uchun - ya'ni idiomalar), etnomadaniy ma'lumotlar tashuvchisi bo'lish xususiyati ("ularda xalq ruhi ifodalangan bo'ladi"), frazeologik birliklarda ichki shaklning mavjudligi, motivatsiyalangan ma'no ("e'tibor gapning nafaqat tashqi shakliga, balki ichki mazmuniga ham qaratiladi"). Ushbu asar muallifi frazeologik birliklar ham gap, ham so'z birikmalari va so'z shakllariga ega bo'lishi mumkinligini bilvosita shaklda ko'rsatadi.

Buslaev F.I. o'zining "Rus maqollari va matallari" to'plamining so'z boshida maqol va matallarni takrorlanuvchanlik (tayyor holda qo'llanishi) jihatidan ham, kontseptual semantikasi jihatidan ham tavsiflaydi: "... til kabi qadim zamonlardan beri, naql

¹⁹ Влавацкая М.В. Изучение сочетаемости слов в русской лингвистической традиции (XVII-XIX вв.) Альманах современной науки и образования. Грамота, 2008. № 8 (15): в 2-х ч. Ч. I. С. 40-49. ISSN 1993-5552.

qilishlaricha, bizning davrimizga qadar muhim xususiyatlarini saqlagan holda avloddan avlodga o'tadi. "O'z asossizligiga bog'liq bo'lmagan, umumiy e'tirofida ayon bo'lgan holda, uning kelib chiqishi mutlaq haqiqat, hech qachon o'zgarmasdir."²⁰ "Ularda aqlning barcha moslashuvchanligi, tilning kuchi va nihoyat, hayot tajribasi natijasida yuzaga kelgan amaliy falsafa ifodalanadi" [11, 6]. Иллюстров И.И. Жизнь русского народа в его пословицах и поговорках. Изд. 3-ье. М., 1915., 480 с.

Tilshunos olim Buslaev ijodida uning «О преподавании отечественного языка» (1844) asari alohida o'rin tutadi. Ushbu kitobning "Tilshunoslar va faylasuflar" bobida Buslaev qaysidir Kriger tomonidan tuzilgan ritorika tahlili misolida dolzarb til materialini o'rgatish haqidagi qarashlarini tushuntirib, rus tilshunosligida birinchi marta "frazeologiya" atamasini ishlatadi: "Uchinchi bo'lim individual bo'g'in haqida bo'lib, unda ... u yoki bu tilning o'ziga xos xususiyati ega... umumbashariylik birlashadi. Ikkinchidan, majburiylik va erkinlik o'rtasidagi ziddiyat bir tomondan, frazeologiya, maqol, matal va hokazo, boshqa tomondan esa yozuvchining mantiqsizlig, o'ziga xosligi..."²¹ Umuman olganda, F.I. Buslaev o'zining frazeologik fikrlarini «Xalq tili» bo'limida ifodalagan. "Frazeologiya" bandida F.I. Buslaev shunday yozadi: "Falon ibora falon grammatik yoki ritorik qoidaga bo'ysunishini bilishgina emas, balki to'g'ri va nafis nutqqa hayrihohlik uyg'otish, xotirani iboralarning o'zi bilan boyitish kerak. Shuning uchun frazeologiya darkor, bunda gapning nafaqat tashqi shakliga, balki mazmuniga ham e'tibor beriladi".²² Muallif frazeologik birliklarning tavsifini "О преподавании отечественного языка" kitobining go'yalariga muvofiq ravishda lingvistik metodologiya ruhida boshlaydi. Shundan so'ng u frazeologik iboralar deb ataladigan tilshunoslikka oid obrazli iboralarning etnolingvokulturologik xarakteristikasini beradi. Keyinchalik Buslaev shunday deb yozadi: «Har bir xalq har bir narsaga o'ziga xos tarzda qaraydi; xalq ruhi ifodalangan iboralarni o'rganish orqaligina o'quvchini xalq fikrini tushunishi mumkin... O'quvchiga iboraning kuch-qudratini, go'zalligini his qilish bu ibora haqidagi qoidalar darslikning qaysi bandida berilganligini bilishdan ko'ra foydaliroq. Qadimiy she'rlardan frazeologiyaga bir necha misollar keltiraman».²³

Rus sintaktik nazariyasining rivojlanishida katta rol A.A. Potebnyaga tegishli bo'lib, «Мысль и язык» ("Tafakkur va til") (1962), «Из записок по теории словесности» ("Adabiyot nazariyasiga oid eslatmalardan") (1905) va boshqalarda bayon qilingan til va tazifakkur o'rtasidagi munosabat, tilning belgili xarakteri va boshqalar haqidagi yorqin g'oyalar asoschisidir. Olimning kontseptsiyaga ko'ra, til tizim bo'lib, uning har qanday hodisasi boshqalari bilan bog'liqdir. So'zning haqiqiy hayoti faqat nutqda yuzaga keladi va amalga oshadi. Gapda ma'lum vazifa bajarib, so'z o'z xususiyatlarini faqat boshqa so'zlar doirasida hamda ularga munosabatida namoyon qiladi. So'zni o'zini olganda u o'likdir, na leksik, na formal belgilarni ko'rsatadi. A.A. Potebnyaning fikricha, so'z boshqa so'zlar bilan aloqada bo'lmasa quruq tovushdir.

²⁰ Иллюстров И.И. Жизнь русского народа в его пословицах и поговорках. Изд. 3-ье. М., 1915., 480 с.

²¹ Буслаев Ф.И. О преподавании отечественного языка. Л.: Учпедгиз, 1941, 248 с.

²² Буслаев Ф.И. О преподавании отечественного языка. Л.: Учпедгиз, 1941, 248 с.

²³ O'sha yerda

A.A. Potebnya grammatik shakllar nafaqat morfologik elementlar, balki sintaktik aloqalar bilan ham belgilanadi, shuning uchun u grammatik shakllarni semantik-sintaktik deb hisoblaydi va leksik ma'no va grammatik shakllarning munosabatini ta'kidlaydi. So'zning faoliyat ko'rsatishi davomida leksik va grammatik ma'nolar bir-biri bilan chambarchas bog'lanib, yagona fikr aktini tashkil qiladi. Bu ma'nolarni so'z tadqiqot predmetiga aylangandagina ajratish mumkin, nutqda esa ular yaxlitdir. Leksik ma'no va sintaktik qo'llanishni hisobga olmasdan turib, shaklning o'zini tushunish mumkin emas. *Влавацкая М. В. Изучение сочетаемости слов в русской лингвистической традиции (XVII-XIX вв.)* 45-бет

Tilning ichki shakli (innere Sprachform) tushunchasini tilshunoslikka atoqli nemis olimi Vilgelm fon Humboldt (1767 - 1835) kiritgan.

Frazeologiyaga oid ko'pgina asarlarda frazeologik birliklarning semantik tarkibida ichki shaklning muhim o'rni qayd etilgan. So'zga nisbatan qo'llanganda ichki shakl odatda uning asl etimologik ma'nosi yoki ma'nosidagi obrazli elementlar sifatida tushuniladi. A.A. Potebnya ichki shakl haqidagi mana shu fikrlarga asoslanadi va "...etimologik ma'no ... shakldir, faqat ichki shakldir".²⁴ "Ichki shakl ham obrazning markazi bo'lib, boshqalardan ustun turadigan xususiyatlaridan biridir".²⁵

So'z birikmasi masalasi Moskva lingvistik maktabining asoschisi F.F. Fortunatov tizimida markaziy o'rin egallaydi. Fortunatov so'z birikmasini grammatik shaklga bo'lgan munosabatiga ko'ra sintaksisning asosiy birligi deb hisoblagan. Fortunatov so'z birikmasi deganda "bir butun so'z (uning qismini emas)ning boshqa butun so'z bilan qo'shildan hosil bo'lgan butun ma'no"ni tushunadi. F.F. Fortunatov birinchi bo'lib to'liq va to'liq bo'lmagan so'z birikmalari haqidagi ta'limotni ham shakllantirgan. Grammatik ega va grammatik predikatni o'z ichiga olgan so'z birikmasi to'liq bo'lib, grammatik gapni tashkil qiladi. Grammatik predikat deganda «so'z birikmasining kesimlik shaklini o'z ichiga olgan qismi», grammatik ega deganda esa «so'z birikmasining grammatik predikat bilan birikkan qismi» tushuniladi.

Grammatik ega va predikatni o'z ichiga olmagan so'z birikmasi to'liqsiz so'z birikmasi deyiladi. To'liqsiz so'z birikmalari odatda to'liq (murakkab) so'z birikmasining qismlari bo'lib, grammatik gapni tashkil qiladi. Shunday qilib, so'z birikmasi sintaksisning asosiy ob'ekti hisoblanadi; sintaksis so'z birikmasi haqidagi ta'limoti, gap esa so'z birikmasi turlaridan biri sifatida qarala boshladi.

A.A. Shaxmatov gap va so'z birikmasini farqlash maqsadida F.F. Fortunatov tomonidan ilgari surilgan to'liq va to'liqsiz so'z birikmalariga bo'lish g'oyalari tayanadi.

U so'z birikmasini "so'zlarning shunday bog'lanishiki, hosil bo'lgan grammatik birlik uni tashkil qiluvchi so'zlarning boshqalariga bog'liqligi orqali namoyon bo'ladi" deb ta'riflab, "ikki yoki undan ortiq so'zdan iborat gap ham so'z birikmasidir, lekin to'liq so'z birikmasidir" deb ta'kidlaydi:

²⁴ Потебня А.А. Мысль и язык. Типография Адольфа Дарре. ХАРЬКОВЪ. 2-е издание. 1892. Стр 102

²⁵ O'sha zerda. 142-bet

To'liq soʻz birikmasi, to'liqsizdan farqli o'laroq, ma'lum xususiyatlarga ega, xususan: intonatsiya ("shakl tomondan") va muloqotning "fikrlashning to'liq birligi" sifatida (ma'no tomondan) mos kelishi. Bundan tashqari, u ta'kidlanganidek, "predikativ munosabatlar gapning mavjudligini ochib beradi" va shuning uchun bu ikki belgiga yana bir belgi - predikativlik qo'shiladi.

Aytilganlardan ko'rinib turibdiki, "to'liq soʻz birikmasi" atamasi asosan Shaxmatov tomonidan ikki bo'lakli gap tushunchasiga nisbatan qo'llangan. Agar gap haqidagi ta'limotining predmeti, Shaxmatovning fikricha, to'liq soʻz birikmalari bo'lsa, unda "soʻz birikmasi ta'limoti faqat to'liqsiz soʻz birikmalarini ko'rib chiqadi; to'liq soʻz birikmalari, ya'ni gaplarni tahlil qiladi, chunki ularning tahlili gapning eng muhim tomonlariga taalluqli emas, ya'ni gapning bosh bo'laklarini ifodalash usullari - bir bo'lakli gapning bosh bo'lagi, ikki bo'lakli gapning egasi va kesimi, shuningdek, ega va kesim o'rtasidagi grammatik aloqasi"

Shunday qilib, gap sintaksisi predmeti bilan soʻz birikmasi sintaksisi predmetini farqlashda A.A. Shaxmatov, bir tomondan, F.F. Fortunatov tomonidan taklif qilingan, soʻz birikmalarini to'liq va to'liqsiz soʻz birikmalariga bo'lish fikrlariga, ikkinchi tomondan esa, gap bo'laklarini asosiy va ikkinchi darajalilarga bo'linishiga asoslanadi.

Soʻz birikmasi haqidagi ta'limotning rivojlanishi uchun A.A. Shaxmatovning qismlarga bo'linmaydigan soʻz birikmalarini ajratib ko'rsatish haqidagi fikrlari alohida ahamiyatga ega, ya'ni soʻz birikmasi to'liq bo'lishi uchun u "ikki yoki undan ortiq, bir grammatik butunlikni ifodalovchi so'zlardan iborat bo'ladi, ammo shunday shaklda bo'ladiki, undagi so'zlarning o'zaro bog'liqligini tan olish imkoniyatini istisno qilinadi, shuningdek, ulardan birortasini gapning mustaqil bo'lagi sifatida tan olish imkoniyatini bo'lmaydi.²⁶

A.A. Shaxmatovning ushbu fikrlari V.V. Vinogradovning rus tilidagi frazeologik birliklar haqidagi ta'limotlarida keyingi rivojlanish va asoslanishlarga ega bo'lib, erkin, qismlarga bo'linadigan iboralarning o'ziga xos xususiyatlarini yoritishga hissa qo'shdi.

Biz yuqorida aytib o'tgan tilshunos olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar frazeologiya va frazeologik birliklar haqidagi nazariyaning asoslanishi va keyingi rivojlanishi uchun katta hissa bo'lib qo'shildi.

ADABIYOTLAR:

1. М.Э.Умархўжаев. Олмон тили лексикологияси ва фразеологияси. Андижон. 2010.
2. Потебня А.А. Из лекций по теории словесности: Басня. Пословица. Поговорка. Харьков, 1894.
3. Fortunatov F.F. Сравнительное языковедение. — В его кн.: Избр. труды. М., 1956, т. I
4. Шахматов А.А. Синтаксис русского языка. М., 1941, с. 274.

²⁶ Шахматов А.А. Синтаксис русского языка. — М.: Эдиториал УРСС, 2001. — 624 с. — с. 418.

5. Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка: Учеб. пособие. 3-е изд., испр. и доп. М., 1985

MOLIYAVIY NATIJALARNI AUDITNI TAKOMILLASHNING DOLZARB MASALALARI

Kunduzova Kumrixon Ibragimovna

Farg‘ona politexnika instituti,
"Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrası, dotsent,

Annotatsiya: Ushbu maqolada moliyaviy natijalarni nazorat qilishning asosiy turlari muhokama qilinadi. Auditorlik firmalarining "nou-xau" si hisoblangan auditlarni tashkil yetishning yeng yangi usullari ishlab chiqildi va auditda zamonaviy usullardan foydalanish samaradorligi asoslab berildi.

Abstract: This article discusses the main types of control of financial results. The latest methods of organization of audits have been developed, which are considered to be the "know-how" of audit firms and the effectiveness of using modern methods in the audit has been substantiated.

Kalit so‘zlar: audit; ichki audit; rivojlantirish; mexanizmi.

Keywords: internal control, external audit, financial result, systems for identifying and using internal reserves.

Iqtisodiy muhitdagi o‘zgarishlar nazorat funksiyalari va usullarining o‘zgarishiga olib keladi, iqtisodiy faoliyatning murakkab tarmoqlari va sohalari paydo bo‘ladi.

Moliyaviy natijalarni shakllantirishni nazorat qilish va ularni hisobotlarda aks ettirish nuqtai nazaridan, eng samarali, ikki turdagi nazorat: ichki boshqaruv va tashqi audit sifatida ajratiladi.[1]

Ichki nazorat amaliyotini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, yaqinda yirik korxonalarda byudjetlashtirish va byudjet nazorati ishlab chiqilgan bo‘lib, ular rejali-normativ nazorat usulining modernizatsiyalashgan turi bo‘lib, ichki buxgalteriya hisobi va nazorat maktabi buxgalteriya hisobi va nazorat qilishning normativ-tekshirish shakli metodologiyasini ishlab chiqishda muayyan yutuqlarga ega [9] ichki iqtisodiy hisoblashda ushbu texnikani takomillashtirish bo‘yicha keyingi tadqiqotlar juda dolzarb va samarali bo‘ladi.

Ichki nazoratni tashkil etishda korxonalarining hisobotlarida daromad, xarajatlar va shakllanishning nazorat qilinishi va moliyaviy natijalarning aks ettirilishi alohida o‘rin tutadi, ya‘ni xo‘jalik hisob-kitoblari nazorat va motivatsiya uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, byudjetlashtirish va byudjet nazoratini xo‘jalik hisob-kitoblari asosida qo‘llash mehnat va moddiy resurslarning qo‘shimcha xarajatlarini talab qiladi. Shuning uchun uni tashkil etish uchun korxonada boshqaruv tizimining barcha xizmatlarining yuqori darajadagi boshqaruvdan bo‘lim boshliqlariga, bo‘limlarga, filiallarga va shunga o‘xshashlarga o‘zaro ta‘sir o‘tkazish uchun aniq rejani ishlab chiqish kerak. Bu ish alohida o‘rin buxgalteriya, shu jumladan, moliyaviy va iqtisodiy xizmatlar, bor.

Byudjetlashtirish va byudjet nazoratini xo‘jalik hisob-kitoblari asosida amalga oshirish bo‘limning faoliyati natijasida bo‘lim rahbarlari va oddiy xodimlaridan manfaatdor bo‘lishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi, bu esa korxonada faoliyatining yakuniy

moliyaviy natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu nazorat tizimi, albatta, korxonada to'g'ri tashkil etilishi sharti bilan, amaldagi buxgalteriya tizimini takrorlamaydi va qiyinlashtirmaydi.[11]

Xo'jalik hisob-kitoblari asosida byudjet nazorati samarali ishlashi korxonaning hisob-kitob siyosatining o'ylangan tizimi, jumladan, dastlabki hisob-kitob va hujjat aylanishini tashkil etish, registrlar va ichki hisobotlarni shakllantirish va alohida obyektlar uchun hisob-kitob qilish usuli bilan amalga oshirilishi mumkin.

Barcha hisobot foydalanuvchilari ichki boshqaruv nazorati ma'lumotlariga kirish imkoniga ega emaslar, shuning uchun hisobot ma'lumotlarining keng iste'molchilariga, ya'ni mustaqil auditga ega bo'lgan bunday nazorat shakliga ehtiyoj bor.

Moliyaviy hisobot auditing natijalarini menejerlar, egalar va kreditorlar, investorlar, soliq organlari va boshqalar tomonidan ishlatish mumkin faqat turli xil hisobotlarni standartlashtirish va moliyaviy va soliq hisobotlari bo'yicha yakuniy moliyaviy natijalarni aniqlashning yagona usulini qo'llash mumkin.[2], [3]

Amalda, buxgalterlar davlat soliq xizmati organlari oldida hisobot berish maqsadida buxgalteriya yozuvlarini to'ldirishning asosiy vazifasini ko'rishadi. Ushbu yo'nalish korxonaning buxgalteriya siyosatini umumiy qabul qilingan buxgalteriya tamoyillari asosida qurishni bekor qiladi. Bu, ayniqsa, daromadlarni, xarajatlarni tan olish va korxonada faoliyatining moliyaviy natijalarini shakllantirishga metodik yondashuvlar bilan bog'liq.[10] Shuning uchun, buxgalteriya siyosatining davlat jihatini ajratish bilan, hisobotning turli turlarini shakllantirish uchun buxgalteriya ma'lumotlarining ustunligiga nisbatan aniq davlat pozitsiyasini aniqlash kerak: moliyaviy va soliq. [4] Bunday yondashuvisiz hisobot ko'rsatkichlarini shakllantirish va ularni nazorat qilishda aniqlik va mantiqqa erishish mumkin emas, soliq siyosatining buxgalteriya hisobi va hisobotining holati va rivojlanishiga salbiy ta'siridan xalos bo'lish mumkin emas. Bunga muvofiq, mikro darajadagi rasmiy (tashkilot), axborot (texnologiya) va uslubiy (texnika) qismlari ajratilgan buxgalteriya siyosati modelini ishlab chiqish kerak.

Umuman olganda, biz ko'rib chiqayotgan muammoning mohiyati auditorlik firmalarining "nou-xau" deb hisoblangan auditorlik tekshiruvlarini tashkil etishning eng yangi usullarini ishlab chiqish va zamonaviy usullarni, shu jumladan, tanlangan tekshiruvni (auditorlik namunasini) auditorlik tekshiruidan foydalanish samaradorligini asoslashdan iborat bo'lib, xo'jalik hisob-kitoblari, ishlab chiqarish resurslari va moliyaviy-xo'jalik faoliyatidan oqilona foydalanish natijasidir. [5]

Ichki zaxiralarni shakllantirish va safarbar qilishning iqtisodiy muhiti sifatida moliyaviy faoliyatning samaradorligi ko'plab korxonada xizmatlarining doimiy ta'siri va nazorati ostida bo'lib, huquqiy, tashkiliy, boshqaruv va boshqa omillarga bog'liq.

Ichki zaxiralarni aniqlash va ulardan foydalanish tizimining samaradorligi omillarning ichki zaxiralardan foydalanish ko'rsatkichlariga ta'siri va ularning amaliy namoyon bo'lishining samaradorligiga ta'sirini hisobga olish parametrlarining chiqindilariga bevosita bog'liq. [6] Axborot ta'minoti mexanizmini tekshirishda ichki zaxiralarni aniqlash va ulardan foydalanish tizimi asosan yoki ma'lum darajada sifatli va tizimli ko'rsatkichlar,

sharoitlar va shart-sharoitlarni o'rganishda, shuningdek, jarayonlar, hodisalar va tendensiyalarni axborot bilan ta'minlashda muayyan miqdoriy ko'rsatkichlarni kuzatishga qaratilganda paydo bo'ladi. [8] Bu esa, bir tomondan, mavjud ichki zaxiralarni aniqlash va ulardan foydalanish uchun ishlab chiqarish-xo'jalik tuzilmalari va ularga tegishli resurslarni samarali ishlash uchun eng muhim mexanizm sifatida ushbu muammoni to'liq va batafsil o'rganish zaruratini keltirib chiqaradi, boshqa tomondan, olingan ma'lumotlarning ishonchligini tasdiqlash bilan chambarchas bog'liq bo'lgan muammo sifatida.

Ushbu muammoni hal etishga qaratilgan va biz qo'llab-quvvatlaydigan so'nggi ilmiy nashrlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tanlovlarni qo'llash auditorlarga yanada samarali ishlashga yordam beradi, shuningdek, ularning topilmalarini to'g'ri oqlaydi.

Xalqaro amaliyotda eng yirik auditorlik kompaniyalari asosan "konveyer nazorati" deb ataladi. Bu parametrik bo'lmagan tanlangan statistika, ya'ni dinamik standartlarni sintez qilish va har qanday tizimning rivojlanish trayektoriyasini, xususan ichki zaxiralarni aniqlash va ulardan foydalanishni baholashga asoslangan. Shu munosabat bilan, maqola mualliflari "konveyer nazorati"ning muhim tushunchasini oshkor qilishni maqsad qilgan.[7]

Bu auditor hujjatlar, biznes-operatsiyalar, hisob-kitoblar qoldiqlari, ular bo'yicha aylanmalar, balanslar bilan ishlaydigan auditorlik tekshiruviga asoslanadi va ko'pincha tegishli auditorlik dalillarini to'plash uchun tanlab olingan doimiy kuzatuvni almashtiradi. Shu bilan birga, butun umumiy agregat tekshiriladi, lekin uning ma'lum bir qismi aniq tekshiriladi. Tanlangan kuzatuvni to'g'ri tashkil etish va amalga oshirish bilan auditor butun jamiyatni (axborot xavfining muayyan darajasi bilan) xarakterlovchi ishonchli, ob'ektiv, aniq auditorlik dalillarini oladi va butun umumiy aholi haqida o'z xulosasini tuzishi mumkin.

Namunaning muhim xususiyatlarini amalda aniqlash juda qiyin. Bu tushuniladi:

- tanlangan kuzatishning qisqartirilgan nomi;
- barcha statistik to'plamning holatini baholash uchun tanlangan ma'lumotlarni tanlash va tahlil qilish usullari;
- tanlangan to'plamning o'ziga xos xususiyatlari va shunga o'xshashlar.

Auditor odatda eng oddiy (elementar) namunani ishlatadi. Biroq, bunday tanlangan kuzatishning asosi ham auditorlik dalillarini oqlashi mumkin. Statistik namunalar, albatta, korxonaning barcha hujjatlar (regisrlar) hisoblarini to'liq tekshirish bilan solishtirganda afzalliklarga ega, xususan: yuqori samaradorlik; doimiy nazorat qilish imkoniyatini istisno qiladigan sharoitlarda qo'llash; audit metodologiyasini sezilarli darajada kengaytirish imkoniyati; auditorlik dalillarining sifatini oshirish; auditning arzonligi va sifatini oshirish.

Auditda tanlangan kuzatishning turli usullari qo'llaniladi. Eng muhimi, miqdoriy va sifatli namunalar usullari. Ushbu usullarning har biri yordamida siz namunani nostandart yoki statistik sifatida tashkil qilishingiz mumkin. Xalqaro audit amaliyotida miqdoriy va sifatli tanlangan kuzatuvlar usullarini birlashtirishga imkon beruvchi miqdoriy monetar tanlangan kuzatuvdan alohida foydalanish odatiy holdir. Xalqaro audit standartlariga muvofiq qo'llaniladi.



Biz birinchi marta ichki zaxiralarni aniqlash va ulardan foydalanish tizimining rivojlanish funksiyasini, dinamik standartlarni va korxonaning ichki resurslaridan samarali foydalanishga asoslangan miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari tizimiga erishish uchun statistik metodologik baholashni o'rganishda auditorlik namunasining rolini aniqlash, ichki zaxiralarni aniqlash va ulardan foydalanish tizimining rivojlanish trayektoriyasini baholash uchun miqdoriy va tizimli dinamik mezondan o'tishga imkon beradigan ushbu zaxiralardan foydalanishning miqdoriy ko'rsatkichining dinamik standartini sintez qilish kabi umumiy muammolarning ilgari hal qilinmagan jihatlarini o'rganishga harakat qildik.

Korxonalarda olib borilgan tadqiqotlar, auditor ichki zaxiralarni aniqlash va ulardan foydalanish tizimida va uning tashqi muhit bilan o'zaro aloqalarida faoliyat yuritadigan axborot aloqalarini qo'llash orqali tizimning ishlash natijalarini skaner baholashni amalga oshirishi mumkin degan xulosaning to'g'riligini oqlaydi. Intuitiv ishlash bahosidan ma'lum bir tizimning harakatlanish trayektoriyasining o'ziga xos raqamli xususiyatlarini doimiy ilmiy asoslangan tahlil qilishga o'tish imkoniyati mavjud. Buning uchun auditor parametrik bo'lmagan reyting usullari va dinamik me'yorlardan foydalanishi kerak, ya'ni tizimning tizimli va dinamik mezonlarini qo'llashi kerak.

Bunday mezonlar yordamida ichki zaxiralarni aniqlash va ulardan foydalanish tizimining rivojlanishini aniq baholashga asoslangan audit metodologiyasi auditorlik guvohnomalariga yangi mazmunni taqdim etadi. Yuqorida keltirilgan metodologiyadan foydalanib, auditor maksimal ichki zaxiralarni aniqlash va ulardan foydalanishga yo'naltirilgan korxonaning rivojlanish strategiyasini strategik audit o'tkazishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida" gi Qonuni 25.02.2021-yildagi O'RQ-677-son.
2. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartlari.-T.: UzBAMA, 2003. -13 b, -16 b, -23 b.
3. Ismanov, I. N., & Axmadaliyev, B. A. (2022). BUXGALTERIYA HISOBINING HALQARO MODELLARI ISLIM MODELI HAMDA KLASSIK MODELLAR O'RTASIDAGI FARQLAR. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(4), 510-515.
4. Kudbiev, D., & Tashpulatov, A. U. (2022). ISHCHI KUCHIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING IQTISODIY-MOLIYAVIY DASTAKLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 23), 843-851.
5. Shokiraliyevich, G. I., Erkinjon o'g, M. U. B., & Tohirovich, Q. N. (2022). MOLIYAVIY HISOBOTLARNI MHXS BO'YICHA TRANSFORMATSIYASINING ZARURATI, MOHIYATI VA DOLZARBLIGI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 339-344.
6. Qudbiyev, N. T., Haydarov, U. S. O., & Kurbonova, S. A. (2022). HARAJATLAR HISOBNING ZAMONAVIY USULLARI. Scientific progress, 3(1), 442-448.

7. Кудбиев, Н. Т. (2021). Актуальность Организации Аудиторской Деятельности На Основе Компьютерных Технологий. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(6), 424-431.

8. Kunduzova, K. I. (2020). The problems of accounting of liabilities in insurance organizations and its improvement. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(12), 312-318.

9. Кундузова, К. И., & Темиркулов, А. (2019). ОРГАНИЗАЦИЯ КОНТРОЛЯ МАТЕРИАЛЬНЫХ ЗАТРАТ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ХИМИЧЕСКОЙ ЧИСТКИ. In *БУХГАЛТЕРСКИЙ УЧЕТ: ДОСТИЖЕНИЯ И НАУЧНЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ XXI ВЕКА* (pp. 150-153).

10. Kunduzova, K. I. (2020). The problems of accounting of liabilities in insurance organizations and its improvement. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(12), 312-318.

11. Kunduzova, K. I., Qudbiyev, N. T., & Asatullayeva, N. Y. Q. (2022). IQTISODIYOTNING MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBINI TAKOMILASHTIRISH MASALALARI. *Scientific progress*, 3(3), 837-846.



1920-1924-JILLARDA SOVET HÚKIMETINIŇ ÁMIWDÁRYA WÁLAYATINDAĖI KADRLAR SIYASATI

Jumaniyazov Damir Quwatbaevich
Qoraqalpoq davlat universiteti doctoranti

Annotaciya: Ushbu maqolada Amudaryo viloyatida bolsheviklar hokimiyatining o‘rnatilishi haqida so‘z boradi. Mahalliy xalq vakillarining tegishli lavozimlarga tayinlanishi bilan aholi turmush tarzi ijobiy tomonga o‘zgarmadi. Tayinlangan mahalliy kadrlar faqat markaz buyrug‘ini bajarish bilan shug‘ullangan.

Kalit súzlar: Amudaryo viloyati, inqilob qo‘mitasi, Sho‘ra va Chimboy viloyatlari, viloyat markaziy ijroiya qo‘mitasi, saylovlar, kadrlar bo‘yicha tavsiyanomalar.

КАДРОВАЯ ПОЛИТИКА СОВЕТСКОГО ПРАВИТЕЛЬСТВА В АМУДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ (1920-1924 г.г.)

Аннотация: В данной статье рассматривается установление большевистской власти в Амударьинской области. С назначением на соответствующие должности представителей коренных народов образ жизни населения не изменился в лучшую сторону. Прикомандированные местные кадры занимались только выполнением приказов центра.

Ключевые слова: Амударьинская область, ревком, Шораханский и Чимбайский районы, облисполком, выборы, кадровые рекомендации

PERSONNEL POLICY OF THE SOVIET GOVERNMENT IN THE AMUDARYA REGION (1920-1924)

Annotation: This article discusses the establishment of Bolshevik power in the Amu Darya region. With the appointment of representatives of indigenous peoples to relevant positions, the lifestyle of the population has not changed for the better. The assigned local cadres were engaged only in carrying out the orders of the center.

Key words: Amudarya region, revolutionary committee, Shorakhan and Chimbay regions, regional central executive committee, elections, personnel recommendations

1920-jil 10-oktyabrde Túrktan Respublikası Ámiwdárya wálayatı dúzildi. Wálayat paytaxtı Tórtkul (aldıńǵı Petro-Aleksandrovsk) qalası boldı. Hákimshilik-aymaqlıq jaqtan wálayat eki uezdge – Shoraxan hám Shimbay uezdlerine bólinde. Basqarıw ushın quramında bes aǵzası menen waqıtsha wálayatlıq revkom dúzildi. Bul wálayatlıq revkom Xorezm Respublikası menen sóylesiwler júrgiziw huquqına sonday-aq shegeralas mámleketler menen sawda qatnasıqların júrgiziw huquqına iye emes edi.



1920-jıldın 7-dekabrında Türkistan Respublikası Oraylıq Atqarıw Komiteti Prezidiumı Ámiwdárya wálayatı haqqında rejeni tastıyıqladı.

1921-jılǵa kelip wálayatlıq hákimiyat apparatı bekkemlene basladı hám belgili bir formaǵa iye bolıp qalıplese basladı. Wálayatlıq bólimler dúzildi. Olar wálayattın hákimshilik-xojalıq turmısınıń barlıq táreplerin qamtıǵanday kórindi. Biraq is júzinde bulay bolmadı, sebebi bólimler wálayat kóleminde emes, al tek Shoraxan uezdi kóleminde jumıs alıp bardı.

1921-jıldın aprelinde Ámiwdárya wálayatı keńeslerine saylawlar ótkerildi hám Ámiwdárya wálayatı atqarıw komitetiniń jańa quramı tastıyıqlandı. Revkom baslıǵı N.P.Soldatov Türkstan Oraylıq Atqarıw Komiteti Türkstan Respublikası Xalıq komissarınıń orınbasarı etip tayınlandı, onıń ornına Ámiwdárya wálayatı Atqarıw Komitetiniń baslıǵı etip A.Xristoforov jiberildi.

Qatań tsenzuralıq qadaǵalawǵa qaramastan 1920-jıldın dekabr-1921-jıldın yanvar aylarında qayta saylawlar ótkerildi. Oǵan dinge isenetuǵın musulman xızmetkerleri de qatnastı.

1922-jıldan baslap Türkstan ASSRı Ámiwdárya wálayatınıń basqarılıwında sezilerli ózgerisler júz berdi. Wálayattın basshıları etip usı wálayat aymaǵında jasaytuǵın túpkilikli xalıqlardıń wákılleri tayınlana basladı. Máselen, 1922-jıldın yanvarınan baslap Atqarıw Komitetine Muxammedjan Baljanov basshılıq ete basladı. Al Atqarıw Komitetiniń aǵzaları bolıp Jaman Qaziev, Qudaybergenov, Yaugasharov, Kazıbaǵarov, Adinaev, Altıbaev, Sherimbetov, Nepesov tayınlandı. Jańa hákimiyat sotsiallıq-ekonomikalıq salada úlken qıyınshılıqlarǵa dus keldi. Olar áskeriw kommunistik siyosatı hám menshikti mámleket qaramına ótkeriw menen baylanıslı boldı.

Wálayatlıq apparatı juwapkerli maman xızmetkerler menen bekkemlew zárúr boldı. Oray tárepinen jergilikli xızmetkerler arasınan tómendegi adamlardı tayınlawdıń zárúrligi payda boldı:

- Wálayatlıq EKOSOnıń baslıǵı;
- Wálayatlıq mámleketlik jobalastırıw baslıǵı;
- Wálayatlıq finans bóliminiń baslıǵı;
- Wálayat prokurorınıń orınbasarı.

Solay etip wálayattın sovet mákemeleriniń dáslepki apparatı nátiyjeli jumıs alıp barıwǵa uqıplı emes bolıp shıqtı.

1921-jıldan baslap partiya hám sovet apparatın jumısshılar ham diyxanlar qatarınan toltırıwǵa baǵdar alındı.

1922-jıldın 6-oktyabirinde ótkerilgen qayta saylawlar siyasiy basshılıqtın quramında ózgerislerge hám onıń jasarıwına alıp keldi. Máselen 30 jasında Nurgábul Kewlimjaev Shimbay uezdlik atqarıw komiteti baslıǵı boldı.

Basqarıw uyımlarında túpkilikli xalıq wákılleriniń sanınıń aytarlıqtay kóbeyiwi sol jıllardaǵı «úgit-násiyatlarda» bolsheviklerdiń milliy siyosatınıń úlken tabısqa erisiwiniń ayqın tastıyqlawı sıpatında kórsetildi. Biraq jergilikli xalıq wákılleriniń basqarıw



uyimlarında wákilliginiń artıwı onıń haqıyqıy basqarıwǵa qatnasıwın támiynlemegeni haqqında hesh nárese ayılmadı. Pútkil hákimiyat orayǵa jámlengen edi.

Jergilikli sovet apparatın jaqsılaw ushın 1923-jıldıń 15-aprelinde Tórtkul`de Ámiwdárya wálayatı volostlıq xám awıllıq atqarıw komitetleriniń birinshi keńesi shaqırıldı, oǵan 73 adam qatnastı.

1923-jıldıń 16-noyabrde ótkerilgen saylawlar nátiyjesinde Ámiwdárya wálayatı Atqarıw komitetiniń jańa quramı saylandı. Siyasiy maydanda jańa adamlar payda boldı. Máselen, 20 jasar, milleti ózbek, bilimi boyınsha uchiliske pitkergeń Jumaǵaliy Atashov Atqarıw komitetiniń baslıǵı boldı.

1924-jıldıń yanvarında Xorezmde Junayd-xannıń kóterilsine baylanıslı Ámiwdárya wálayatı Atqarıw komiteti tarqatıldı hám 28-fevralda Ámiwdárya wálayatında Drozdov bassılıǵında waqıtsha revolyutsiyalıq komiteti dúzildi. Siyasiy tınıshlıq ornaǵannan hám wálayat ushın qáwip saplastırılǵannan keyin áskeriy jaǵday biykar etildi hám waqıtsha revkom tarqatıldı.

1924-jıldıń mart ayında Ámiwdárya wálayatı Keńesleriniń IX ciezinde Atqarıw komitetiniń jańa quramı saylandı.

TKP OK Ámiwdárya wálayatlıq komitetiniń Ámiwdárya wálayatı Atqarıw komitetiniń aǵzalarına bergen minezemeleri úlken áhmiyetke iye. Onda bılay dep kórsetildi.

Abbas Alipbaev óziniń lawazımına tolıq sáykes keledi. Hákimshilik sovet jumısında tájiriyege iye. İntizamlı. Minezi bekkem. Wálayatlıq hám úlke kóleminde paydalanılıwı múmkin.

Jumaǵaliy Atashov – Sovet jumısında tájiriyesi onsha kóp emes. Wálayatlıq kólemde paydalanılıwı múmkin.

Bazarbay Suyatkulov – inta menen isleydi. Kásiplik jumıs boyınsha kóbirek uezdlik kólemde islewge islewge jaramlı.

Abdal Altibaev – Sovet jumısında qanaatlanıwshılıq penen islemekte. Uezdlik kólemde jer bólimi hám kásiplik baǵdar boyınsha óz betinshe jumıslarda paydalanılıwı múmkin.

Yusup Raymov – Sovet jumısında jaqınnan beri islemekte. Uezdlik kólemde kásiplik jumıs boyınsha padalanılıwı múmkin.

Aleksandr Gavrilovich Jelyabin – áskeriy komissar lawazımındaǵı jumısın qanaatlandırarlı islemekte. Wálayatlıq kólemde bilimlendiriw islerinde paydalanılıwı múmkin.

Juman Toqmambetov – wálayatlıq kólemde kásiplik jumısta islewi múmkin. Sovet jumısında uzaq waqıttan beri islemekte.

Ermek Jamanqaziev – Sovet jumısında kútá az islegen. Uezdlik kólemde kásiplik hám partiya jumısına maqul keledi.

Óteniyaz Bekimbetov – hákimshilik islerine jaramlı, maqul emes. Uezdlik kólemde kásiplik jumıs boyınsha paydalanılıwı múmkin.

Nurg'abul Kewlimjaev – uездlik Atqarıw komitetiniń baslıǵı sıpatında qanaatlanarlı dárejede islemekte. Uездlik kólemde hákimshilik jumısında qaldırılıwı múmkin.

Vays Xorzaev – úy xojalıǵı menen shuǵıllanbaqta. Sovet jumısında islemeydi. Uездlik kólemde jer-suw bóliminde paydalanılıwı múmkin.

Nurulla Adılov – Sovet jumısında kútá az islegen. Finans hám kásiplik jumısta paydalanılıwı múmkin.

Reymbay Rozumbetov – Sovet jumısında kútá az islegen. Uездlik kólemde xojalıq tarawı boyınsha paydalanılıwı múmkin.

Ámiwdár`ya wálayatında 1920-1924-jillarda Sovet húkimetiniń kadrlar siyasatın úyreniwge juwmaq jasaǵanda tómendegilerdi atap kórsetiw múmkin:

1920-jılı Ámiwdár`ya bóliminiń wálayatqa aylandırılıp qayta dúziliwi kadrlar siyasatında jańa basqıstı ańlattı. Wálayattıń geografialıq jaylasıwı oraylıq sistema arqalı kadrlar tayarlawdı shólkemlestiriwge múmkinshilik bermedi. Sonlıqtan da basshı lawazımlarǵa hám texnikalıq jumıslarǵa Tashkentten hám basqa da jerlerden kadrlar jiberiw dawam etti.

Hár jılı keńeslerge hám partiya shólkemlerine saylawlar ótkerildi. Jergilikli milletlerdiń kadrların mámleketlik qurılısqa tartıw saylawlardın unamlı nátiyjesi boldı. Usınıń menen birge, saylawlarda hám tayınlaw tártibinde burınǵı kadrlardan paydalanıw dawam etti.

Usı dáwirde jergilikli millet wákillerinen bolǵan Qalender Adinaev, Jumaǵaliy Atashov, Tájim Napesov, Juma Atashov, Nurg'abul Kewlimjaev, Ermek Jamanqaziev, Muxammedjan Baldjanov, Abbas Alifbaev, Allayar Dosnazarov hám basqa da kadrlar ósip jetilisti. Basqarıw uyımlarında túpkilikli xalıq wákilleriniń sanınıń sezilerli dárejede artıwı joqarıda atap ótkenimizdey bolsheviklerdiń milliy siyasatınıń úlken tabısı sıpatında kórsetildi.

PAYDALANILǴAN DEREKLER:

1. Qaraqalpaqstan Respublikası oraylıq mamleketlik arxivi, ф.12, оп.2, д.243, 1-2 betler.
2. Qaraqalpaqstan Respublikası oraylıq mamleketlik arxivi, ф.12, оп.2, д.362, 24-29 betler.



O‘ZBEKISTONDA GENDER TENGLIK VA AYOLLARGA
BO‘LGAN MUNOSABAT

Abduvohidova Elnora Shermuhammadovna

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston

Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar Fakulteti

Sotsiologiya yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, barqaror taraqqiyot jarayonini tezlashtirish nihoyatda muhim tamoyildir. Ayollar va qizlarga qarshi barcha turdagi kamsitishlarni yoq qilish nafaqat inson huquqlarini himoya qilish nuqtai nazaridan muhim, balki boshqa sohalar rivojlanishiga ta’sir etuvchi kuchli omillardan biridir. Dunyo rivojining hozirgi davrida inson taraqqiyoti, uning huquq va erkinliklari, ijtimoiy adolat va inson xavfsizligini taminlash borasidagi jarayonlar uchun ayollar va erkaklarning jamiyat hayotining barcha jabhalaridagi tengligini amalda ta`minlash masalalari ustuvor vazifalarning biriga aylanmoqda. Shu maqsadda nafaqat respublikamizda balki butun dunyoda ushbu masala actual bo‘lib qolmoqda.

Kalit so‘zlar: Gender tenglik, huquq va erkinliklar, ijtimoiy adolat, B.M.T, konsepsiya, oila instituti.

ГЕНДЕРНОЕ РАВЕНСТВО И ЖЕНЩИНЫ В УЗБЕКИСТАНЕ
ОТНОШЕНИЕ

Абдувохидова Эльнора Шермухаммадовна

Узбекистан имени Мирзо Улугбека

Национальный университет, факультет социальных наук

студентка 2 курса социологии

Аннотация: Расширение прав и возможностей женщин, ускорение процесса устойчивого развития – чрезвычайно важный принцип. Ликвидация всех форм дискриминации в отношении женщин и девочек является не только важным с точки зрения защиты прав человека, но и одним из сильнейших факторов, влияющих на развитие других направлений. На современном этапе мирового развития вопросы обеспечения равноправия женщин и мужчин во всех сферах жизни общества становятся одним из приоритетных направлений развития человека, его прав и свобод, социальной справедливости и безопасности человека. В связи с этим данный вопрос остается актуальным не только в нашей стране, но и во всем мире.

Ключевые слова: гендерное равенство, права и свободы, социальная справедливость, БМТ, концепция, институт семьи.



GENDER EQUALITY AND WOMEN IN UZBEKISTAN RELATIONSHIP

Abduvohidova Elnora Shermuhammadovna

Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

National University, Faculty of Social Sciences

2nd year student of Sociology

Annotation: *Expanding the rights and opportunities of women, accelerating the process of sustainable development is an extremely important principle. The elimination of all forms of discrimination against women and girls is not only important from the point of view of human rights protection, but also one of the strongest factors influencing the development of other areas. At the present stage of world development, the issues of ensuring equal equality of women and men in all spheres of society are becoming one of the priorities for human development, its rights and freedoms, social justice and human security. To this end, this issue remains relevant not only in our country but around the world.*

Keywords: *Gender equality, rights and freedoms, social justice, B.M.T, concept, family institution.*

Ayollarning huquq va erkinliklarini, imkoniyatlarini kengaytirish, barqaror jamiyatdagi ro'lini, barcha jabhalarda o'z o'rniga ega bo'lishi borasidagi choratadbirlar O'zbekistonda keng ko'lamlil masalalar qatori o'rganilmoqda. Gender tenglik va salomatligini taminlash bo'yicha olib borilayotgan davlat siyosatiga Jahon Hamjamiyati, BMT, Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti va yana bir qancha nufuzli dunyo miqyosidagi xalqaro tashkilotlar yuqori e'tibor berilmoqda. Shu o'rinda takidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ayollarning jamiyatdagi o'rni va nufuzini oshirish maqsadida "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash, sohadagi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni qabul qilindi. Farmonda ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini kuchaytirish, qonuniy manfaatlarini taminlash, qobiliyat va salohiyatini ro'yobga chiqarish, oila institutini mustahkamlash, onalik va bolalikni himoya qilishga qaratilgan ko'plab chora-tadbirlar belgilangan.

Gender tenglik – erkak va ayollar ijtimoiy sohada teng tarzda ahamiyatga, hamda teng sharoitlarga (manba va imkoniyatlarga teng tarzda erishish) ega bo'lsalar va ulardan qonunda belgilangan tarzda rasmiy tenglik (hujjat asosidagi tenglik) asosida foydalana olsalargina, tenglik o'z aksini topadi. Agar insoniyat tarixiga nazar tashlasak, ayollar erkaklarga nisbatan kamsitilgan, jamiyatni boshqarish ishlaridan chetlatilgan davrlarni ifodolovchi ilmiy manbalarga duch kelamiz. Ming yillar davomida ayollar farzand ko'rib, ularni parvarishlabtarbiyalash, oila xo'jaligini yuritish bilan cheklangani malum. Misol tariqasida, Kommunistlar tomonidan uyishtirilgan "Hujum harakati" bir qator ayanchli voqeliklarga sabab bo'lgan. O'rta Osiyoda kommunistlar oldida odamlarning ongi va turmush tarzini o'zgartirish turar ekan, ular birinchi navbatda dinga zarar berish va ayollarni ko'chaga chiqarishni maqsad qiladi. "Hujum harakati"ning ilk tashviqot

harakatlari 1924-yilda tashkil etilgan. Bu harakat ayollarga nisbatan bir qator muammoli vaziyatlarga duch keltirgan. Xalq orasida ayollar o'limi soni keskin ko'paygan. Bir tomondan, parangi tashlash yaxshi omillarga ega, deb hisoblansada, or-nomus darajasidagi ishlarni qo'zg'atish erkaklar tomonidan o'z ayollari va qizlarini o'ldirish darajasiga, ayrim ayollar esa o'z joniga qasd qilish holatlariga olib keladi. Albatta, bunday ayanchli voqealar tarix yuzini ko'rgan va bir qancha qurbonlariga ham ega. XX asrda ayollarni mana shunday qarashlardan ozod qiluvchi, oiladagi onalik, rafiqalik masuliyatidan voz kechmagan holda jamiyatda erkaklar bilan teng mehnat qilish, saylash va saylanish kabi huquqlarga ega bo'lish imkoniyatini yaratadi. Ayollarning bunday huquqlarga ega bo'lishini BMTda ishlab chiqilgan Xalqaro huquq – "Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi" (1948) hamda "Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi Konsepsiya (1979) kafolatladi. Bu hujjatlar xotin-qizlarga nisbatan har qanday cheklashlarni tugatib, ularning oilaviy holatidan qat'iy nazar, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida: siyosat, iqtisod, madaniyat va fuqarolikda xotin-qizlarning teng huquqlarini taminlashga chaqiradi. U davlatlarni xotin-qizlarning kamsitilishlariga qarshi milliy qonunchilik choralarini hamda oila va jamiyatda erkaklar va ayollar o'rtasida tenglikni tezlik bilan o'rnatishga, ularning huquqlari kamsitilishini saqlab qolishga imkon beruvchi ijtimoiy va madaniy modellarini o'rnatish choralarini ko'rishni tavsiya etadi. Hayot shiddat bilan o'zgarayotgan davrda jamiyat ham taraqqiy etar ekan, insonlar ham zamon bilan hamnafas bo'lishga harakat qiliadilar. Bu ayollarga ham tegishlidir.

Endilikda ayollar faqat uy ishlari, bola tarbiyasi bilan shug'ullanib, "yo oila, yo ish" degan fikrlar gender tengligiga to'sqinlik qiladi. Ko'rinib turibdiki, rivojlanishning eng o'tkir muammolaridan biri tenglikka erishish eng og'ir masalardan biridir. Afsuski, xotin-qizlar ko'pincha rivojlanish jarayonidan chetda qoladi va hatto unda ishtirok etgan taqdirda ham juda kata qiyinchiliklar, hatto yo'qotishlar (ko'pgina hollarda oilaviy nizolar, ajrimlar) evaziga erishadi. Bu kabi muammolar qadim o'tmishda ham birqancha olimlar tomonidan muhokama etilganiga guvohi bo'lamiz. Jumladan, Suqrot, Arastu, Aflotun kabi qadimgi yunon olimlari eng yaxshi davlat sifatida jamiyatda tenglik va adolat hukm surgan polis (davlat)ni nazarda tutishgan. Eng yaxshi qonunlar sifatida ham barcha tengligini kafolatlagan qonunlarni ilgari surishgan. Erkak va ayollar tengligi g'oyasini yunon olimi Antifont o'z asarida qo'llagan holda: "Tabiat barchani: ayollarni ham, erkaklarni ham teng qilib yaratadi, lekin, odamlar insonlarni tengsiz holatga soluvchi qonunlarni ishlab chiqishadi"²⁷, deb takidlagan. Shu jumladan, Sharq qomusiy olimlaridan Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida tenglik hukm surgan davlatni fozillikka intilgan davlat sifatida qayd etgan bo'lsa, 1791-yilda Olimpiya De Guj tomonidan tayyorlangan Fuqarolik va ayol huquqi deklaratsiyasida ilk bor ayollarning erkin fikirlash va o'z fikrini bildirish huquqiga ega ekanligi e'tirof etilgan. Gender tenglik muammolari borasidagi yechimlar, ayollar erkinligi va har sohada o'z o'rniga ega bo'lishi, huquq va qonunlar ishlab chiqilishi

²⁷ Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi Konsepsiya. – T.: BMTning

quvonarli albatta. O'zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarida shakllangan siyosat va iqtisodiyotga oid sohalarini tartibga soluvchi qonunchiligi, yaratilgan huquqiy mexanizmlar jamiyatning barcha sohalarida teng gender imkoniyatlarini taminlash siyosatini tanlanganligidan dalolat beradi²⁸.

Xulosa o'rnida takidlash joizki, O'zbekiston xotin-qizlari, millatidan qat'iy nazar, jahondagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy jarayonlarning yaratuvchi ishtirokchi sifatida o'z mavqelarini mustahkamlab bormoqdalar. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XIV sessiyasida qilgan maruzasida ham quyidagilarga to'xtalib o'tgan edi: "Ayollar o'rtasida olib boriladigan ishlarning shakllarini kengaytirish, ularning ilmiy va madaniy saviyasini ko'tarish kerak. Shuni unutmaylikki, jamiyatning ayollarga bo'lgan munosabati uning madaniy-manaviy saviyasini belgilaydi". O'zbekistonda xotin-qizlarni huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, siyosiy faoliyatini oshirish, kasbiy, jismoniy, manaviy hamda intellektual salohiyatini yuksaltirish, sog'lom oilani shakllantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Bu esa davlatning kelajagi uchun ahamiyati kattadir. Prezident Shavkat Mirziyoyev takilaganidek: "Biz gender siyosati masalalari borasida mamlakatimizning ijtimoi-siyosiy hayotida va ishbilarmonlik sohasida ayollarning roli tubdan oshirishga qaratilgan ishlarni qat'iy davom ettiramiz". Bu kabi islohotlar va bir qator chora-tadbirlar yuqoridagi muammolarning yechimini topishiga hamda davlatimizda ayollarga bo'lgan e'tiborni yanada oshishiga sabab bo'ladi, desak adashmaymiz .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolati to'g'risida Qaror (02.09.2019).BMT ma'lumotlari.
2. Ikromov, R. A., & Xojiev, R. B. U. (2020). Barkamol rivojlangan ta'lim avlodga oid davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Fan va ta'lim byulleteni, (14-1 (92)).
3. Tarixiy va nazariy O'zbekistonda demokratik huquqning o'rnatilishining ildizlari. EPRA xalqaro jurnali Multidisiplinar tadqiqotlar (IJMR), 6 (10), 507-510.Juraev, Yu. A., Ikromov, R. A. (2020).

²⁸ Антология мировой философии. Т.1. – М., 1969. – С. 322.



TURKIY TILLI DAVLATLAR TASHKILOTI – RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLAR

Jasurbek Pulatov Nigmatulla o'g'li

JIDU Magistratura talabasi

Madina Pulatova (Olimova) To'ychi qizi

Bucheon Universiteti talabasi

Annotatsiya: *Maqolada Xalqaro munosabatlar sohasining ajralmas bo'lagi bo'lgan xalqaro tashkilotlarning jahon siyosatidagi o'rni, Turkiy tilli davlatlar tashkilotining vujudga kelishi sabablari va uning kelajakdagi istiqboli, tashkilot rivoji yo'lida kuzatiladigan to'siq va muammolar, shuningdek, globallashuv zamonida dunyoda tashkilot va tuzilma, davlatlar va mintaqalar o'rtasida qarama – qarshiliklar, ularning jahon siyosatiga bo'lgan ta'siri, murakkab siyosiy jarayonlar zamirida Turkiy tilli davlatlar tashkilotining Jahonda yuz berayotgan o'zgarishlarga bo'lgan dastur va maqsadlari, hududiy va mintaqaviy tuzilmalar, davlatlararo aloqalar, jumladan Markaziy Osiyo davlatlari tashqi siyosatida tutgan o'rni va ro'li bayon etilgan. Unda mavzuga oid adabiyotlar tahlili, shuningdek mualliflarning fikr-mulohazalari, taklif va xulosalari berilgan.*

Kalit so'zlar: *Turkiy tilli davlatlar tashkiloti, Xalqaro munosabatlar, globallashuv, ko'p tomonlama aloqalar, balans, jahon siyosati, anarxizm, panturkizm, demokratiya, soft power, XXI asr, ko'p qutbli dunyo, Yangi O'zbekiston, sanksiyalar, Markaziy Osiyo, shaxmat taxtasi*

Jahon siyosiy jarayonidagi tendensiya sifatida davlatlararo hamkorlik munosabatlari zamonaviy dunyoning barcha hudud va mintaqalarida aktual holatga aylanganiga bugungi murakkab davrning o'zi guvoh bo'lib xizmat qilmoqda. Bu jarayon Jahon siyosati va Xalqaro munosabatlar sohasini yangi davrga o'tishiga olib kelayotgani, ulardagi ziddiyat va murosasizlik darajasini pasaytirishga yordam berayotgan ekanligi bilan xarakterlanmoqda.

Zamonaviy Xalqaro munosabatlarda davlatlararo hamkorlikni institutsionallashuvini tushunish uchun shuni hisobga olish lozim bo'lib, jahon siyosiy tizimining alohida davlatlar yoki bir toifaga mansublik (millat, til, hudud, do'stlik va boshqalar) doirasida siyosiy tashkilotlar orqali hamkorlik munosabatlarini yo'lga qo'yish, ayni shu davlatlar siyosiy rivojlanishiga ta'siri bilan bevosita bog'liqligini e'tirof etish zarurdir.

Tashkilot doirasida hamkorlik aloqalarini olib borish, ayni shu tuzilma tarkibidagi davlatlarga, nafaqat milliy, ijtimoiy-siyosiy tizimlarining rivojlanish tendensiyasiga, balki, jahon taraqqiyotining taraqqiy etishi sifatida ham tavsiflash imkonini beradi.

Bugungi globallashuv zamonida Xalqaro munosabatlar doirasida Xalqaro tashkilotlar va ular tomonidan olib boriladigan Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy qarorlar kishilik hamjamiyati rivojida katta ahamiyat kasb etmoqda.

Insoniyatning uzoq o'tmishidan boshlab to'planib kelgan tajribalar nuqtai nazaridan XX va XXI asrlarda xalqaro siyosiy tizim yaratilishida xalqaro tashkilotlarning o'rni va ro'li har qachongidan ham yuksalganligi, bugungi kunda 4000 dan ortiq global va mintaqaviy

tashkilotlar mavjudligi, zamonaviy dunyoda davlatlar, turli tuzilmalar va alohida liderlar o'rtasida bevosita va bilvosita qarama-qarshiliklar, rivojlanish uchun bo'layotgan intilishlar va albatta, kishilik hamjamiyati hayotidagi turli siyosiy va iqtisodiy muammolar qatori rivojlanish borasidagi strategik dasturlar, uzoq muddatga mo'ljallangan ijtimoiy yo'l xaritalari va ularning ijrosi, muammolarni hal etish borasidagi samarali ishlanmalar borasida xalqaro tuzilma sifatida xalqaro tashkilotlar yetakchi mavqe egallamoqda.

Xalqaro munosabatlar sohasida davlatlar o'z manfaatlari yo'lida har qanday vositalardan foydalanishlari va kerak bo'lsa, qonun – qoidalardan chekingan holatda faoliyat yuritishlari ham tabiiy holdir. Ayni shu bois, davlatlar o'z maqsad va vazifalariga erishuv yo'lida bir yoki bir necha tashkilot doirasida o'zaro aloqalar olib borishlari hayotiy zaruriyat hisoblanadi.

Jahonda yuz berayotgan keskin o'zgarishlar zamirida, davlatlararo aloqalar bunday holatda o'zaro belgilab olingan me'yorlar, nizomlar, shartnomalar, umumiy olib aytiladigan bo'linsa, munosabatlardagi balans buzilishi hodisasi sodir bo'ladi. Davlatlararo aloqalarda balans buzilishi, uni buzgan tomon yoki tomonlar uchun ma'lum bir vaqt davomida foyda keltirsada, keyinchalik aks ta'sir ko'rsatishi, jahon siyosatidagi yangi o'yinchilarning ham shu holatga intilishiga, siyosiy jarayonlarda tartibsizlik, yakdil bir yechimga kelina olmaslik natijasida xaos kelib chiqishini yuzaga keltiradi.

Globalashuv zamonida jahon siyosatida, siyosiy jarayonlar va siyosiy hayotda xaosning kelib chiqishi esa, mintaqalarda, turli tashkilotlar doirasida va hatto davlatlar ichida ham, anarxizmning avj olishiga, tinchlik va birodarlik tamoyillari darz ketishiga va shu bilan birgalikda, XX asrdagi jahon urushlaridan keskin farqli tarzda bo'lsa ham, navbatdagi jahon urushining kelib chiqishiga, kishilik jamiyati a'zolari boshiga yana bir bor og'ir sinovlar tushishiga olib kelishi mumkin.

Ayni shu holatlar nuqtai nazaridan, xalqaro munosabatlar sohasida o'z o'rnini va so'ziga ega bo'lgan davlatlar, turli xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarning jahonda yuz beruvchi siyosiy jarayonlardagi aloqalarida BMT nizomlari ostida davlatlararo munosabatlar balansni saqlagan holda tashkil etilishi lozim bo'ladi.

Kasbiy kompetentlikning ushbu ta'rifining uning tizimli tuzilmasidan darak beradi. Bu tuzilma tajribada amalga oshirilgan, shaxsga oid tegishli sifatlar asosida shakllanadigan kompetensiyalardan tarkib topadi.

Taniqli tadqiqotchi K.V.Shaposhnikov kasbiy kompetentlik deganda, mutaxassisning o'z kasbiy faoliyatini amalga oshirayotganda muhim va samarali qarorlarni qabul qilishga tayyorligi va layoqatini tushunadi. U shuningdek, "kasbiy kompetentlik integrallashtirilgan bilim, mahorat va tajribalarning majmui sifatida tavsiflanadi, shu bilan birga, insonga o'rab turgan olam bilan hamkorlikda kasbiy faoliyatni samarali loyihalashtirish va amalga oshirish imkoniyatini beruvchi sub'ektiv, kasbiy kompetentlikning ko'rsatkichlari asosida esa mutaxassisning dolzarb va potensial tavsifi yotishi mumkin" deb ta'kidlaydi [16, 26].

O'z navbatida kasbiy-pedagogik kompetentlik o'qituvchining o'ziga xos kasbiy-shaxsiy tavsifi hisoblanib, "uning kasbiy faoliyati sifatini, doimiy o'zgarib turuvchi kasbiy vaziyatlarda mustaqil, adekvat, mas'uliyat bilan o'ziga xos harakat qilish qobiliyatini, o'z-o'ziga baho berish va o'z kamoloti uchun tayyorligini ifodalaydi. Kasbiy-pedagogik kompetentlik pedagogning kasbiy faolligida namoyon bo'lib, uni pedagogik faoliyatning sub'ekti sifatida tavsiflash imkonini beradi" [15, 12].

Xulosa qilib aytganda, hozirgi davrda ta'lim samaradorligini oshirish, mutaxassislarning kasbiy kompetentlik darajasini rivojlantirish, pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga yo'naltirish, oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayoniga innovatsion ta'lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish va maqsadli yo'naltirish oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalashdagi dolzarb vazifalar sifatida qarash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Азизходжаева Н.Н. Формирование профессиональных компетенций будущих специалистов. Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. Вып. 12. Ч.1. СПб, 2014. – 63 с.
2. Ахмедова М. Т. Педагогик компетентлик - Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2016. - 84 бет.
3. Development and implementing local educational standards / Ed. by Meyers R. ERIC. – Clearing House on Assessment and Evaluation, 1998. – P. 15.
4. Введенский В.Н. Моделирование профессиональной компетентности педагога // Педагогика, 2003. – №10. – 51 с.
5. Зимняя И.А. Ключевые компетенции - новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. – 2003. – № 5. – С. 34.
6. Косогова А.С. Личностный и карьерный рост студента в контексте воспитания // Высшее образование в России. – 2005.–№12.–С. 24.
7. Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари – Тошкент, 2015. – 93 б.
8. Мусурмонова О. Юқори синф ўқувчилари маънавий маданиятини ривожлантиришнинг педагогик асослари: Пед. фан. док... дис. – Тошкент: 1993. – 4 б.



9. Ожегов С.И. Толковый словарь русского языка: 100 000 слов и фразеологических выражений // Российская академия наук. Институт русского языка им. В.В. Виноградова. – 4-е изд., дополненное. – М.: А ТЕМП, 2007. – С. 234
10. Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка. 80000 слов и фразеологических выражений.–4-е изд., дополненное, - М.: Азбуковник, 1999. – 261 с.
11. Равен Дж. Компетентность в современном обществе: выявление, развитие и реализация Пер. с англ. В.И. Белопольского. – М.: Когито-Центр, 2002. – 115 с.
12. Рахимова Ю.Э. Формирование профессиональной компетентности учащихся медицинского колледжа: Дисс. ... канд. пед. наук. – Ташкент, 2012. – 36 с.
13. Хуторской А.В. Дидактическая эвристика. Теория и технология креативного обучения– М.: Изд-во МГУ, 2003. – С. 58.
14. Хьелл Л., Зиглер Д. Теории личности. — СПб.: Питер, 1999. – 209 с.
15. Чанышева Г.Г. Формирование и развитие коммуникативных способностей будущих юристов: Дис.... докт. пед. наук : Казань, 2005. – С. 12.
16. Шапошников К.В. Контекстный подход в процессе формирования профессиональной компетентности будущих лингвистов-переводчиков: Автореф. дисс... канд.пед.наук – Йошкар-Ола, 2006 – С. 26.
17. Askarovich, M. S., Qizi, O. N. B., & Kizi, M. I. B. (2021). FORMATION OF PROFESSIONAL-PEDAGOGICAL COMPETENCES OF FUTURE TEACHERS OF CHEMISTRY. Вестник науки и образования, (6-3 (109)), 28-31.
18. Askarovich, M. S., Uljaevna, U. O., & Inomjohnovna, O. N. (2020). Applying case study-method in teaching chemistry. Проблемы современной науки и образования, (3 (148)), 62-64.
19. Ахмедов, Б. А. (2020). Сиддиков Бахтиёр Саидкулович, Джалалов Бахромжон Бегмурзаевич МОДЕРНИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ-ОСНОВНОЙ ФАКТОР В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ. Academy, 9, 60.
20. Ахмедов, Б. А., Сиддиков, Б. С., & Джалалов, Б. Б. (2020). МОДЕРНИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ-ОСНОВНОЙ ФАКТОР В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ. Academy, (9 (60)), 20-22.
21. Джалалов, Б. Б. (2018). РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION (pp. 53-55).
22. Джалалов, Б. Б. (2019). ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ. In EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY (pp. 43-44).



23. Джалалов, Б. Б. (2022). ВО 'LAJAK O 'QITUVCHILARNING INNOVATSION KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA SMART-TA'LIMNING IMKONIYATLARI. УЧИТЕЛЬ, 3(4).

24. Мамажонов, Ш. А., & Кизи, О. Н. Б. (2019). Формирование профессиональной компетенции преподавателя химии. Вестник науки и образования, (19-2 (73)), 31-33.



MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT BINOSINI INTERYER DIZAYNINI ZAMON TALABLARI ASOSIDA TASHKIL ETISH.

Xudoyberdiyev Dostonbek Rustambek o'g'li

O'zbekiston Respublikasi badiiy akademiyasi

Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomlik va

dizayn instituti magistratura talabasi

Annotatsiya: *Interer dizayneri kasbi jamiyatimizning rivojlanishi va sanoat jarayonlarining rivojlanishi natijasida paydo bo'lgan murakkab arxitekturaning natijasi sifatida qaraladi. Bizga berilgan makondan samarali foydalanishga intilish, foydalanuvchilarga qulaylik va funktsional dizayn zamonaviy interyer dizayni kasbining rivojlanishiga turtki bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu atama Buyuk Britaniyada kamroq tarqalgan bo'lib, bu yerda interyer dizayni kasbi hali ham tartibga solinmagan edi va, shuning uchun, qat'iy aytganda, bu hali rasmiy ravishda kasb emas edi. Keyinchalik esa bu holatlar o'zgarishga uchragan. Interer dizayneri kasbi ichki bezatish rolidan alohida va ajralib turadi, bu atama AQShda keng tarqalgan va kasb sifatida ommalashgan.*

Kalit so'zlar: *Interyer dizayni, ma'naviyat, stil, arxitektura uslublari, interyerda stil, chet el amaliy Skandinaviya uslubi, Art Deco uslubi, futurizm.*

Interyer dizayni - bu dizaynning odamlar o'rtasida qulaylik va estetik jihatdan yoqimli shovqinni ta'minlash uchun binolarning ichki qismiga qaratilgan bo'limi hisoblanib, bir so'z bilan aytganda go'zallik demakdir. Interer dizayni badiiy va sanoat dizaynini birlashtirgan holda ish yuridati. Dizayner xonadagi ishlarni optimallashtirishni amalga oshiradi, katta xonalarda navigatsiyani yaxshilaydi, ixtisoslashtirilgan xonalarning dizaynini ishlab chiqadi (masalan, ovoz yozish tadqiqoti, kino tahrirlash, fotografiya;) umumiy qilib aytganda yanada zamonaviylashtiradi. Dizayner xonaning tartibi, yorug'lik, shamollatish tizimlari, akustikadan boshlab, ichki dizaynning butun jarayonini boshqaradi; devorlarni bezash; va mebelni joylashtirish va navigatsiya belgilarini o'rnatish bilan yakunlanadi.

Ma'naviyat- ma'rifat markazlarini loyihalashda zamonaviy stillardan ham foydalanmog'imiz zarurdir. Keling mana shu stil so'ziga ham alohida to'xtalib o'tsak.

Stil (stilo, stylus, stylus - lot. stilus, boshqa yunoncha stolosdan stylus) - bronza tayoqcha yordamida, uchi mum bilan qoplangan planshetga matn yozish uchun ishlatilgan. Yozilgan narsalarni o'chirish uchun qarama-qarshi uchi tekis qilib qo'yilgan.

Barchamizga malumkin, muayyan davr va yo'nalishdagi san'atni yoki san'atkorning individual uslubini g'oyaviy mazmun va badiiy shaklga nisbatan tavsiflovchi xususiyatlar majmuidir. Arxitekturada Roman, Gotika, Barokko, Rokoko uslublari mavjud. Bu uslublar bizgacha asrlar davomida shakllanib yetib kelgan.

Interyerda stil - maxsus qoidalarga muvofiq makonning o'ziga xos dizayni deya ataladi va qo'llaniladi. Umumiy konsepsiya pardoqlash materiallari, dekor elementlari, mebellar joylashuvi, ranglar mosligi, xona dizayni va hatto tartibni tanlashni belgilaydigan vosita sanaladi. Uning tashqi ko'rinishini aniqlash, ichki uslublar uy egasining o'ziga xosligini ochib berishga, uning shaxsiy imtiyozlarini tushunishga yordam beradi. Har bir uslub

stilizatsion ichki dizayning tayyor ish sxemasi. Interyerning barcha uslublarini shartli ravishda to'rt guruhga bo'lish mumkin: zamonaviy, klassik, etnik, aralash.

Chet el amaliy Skandinaviya uslubi har bir kvadrat metrni behuda sarflamaydi, yorug'lik diapazoni tufayli bo'shliqni vizual ravishda kengaytiradi va yorug'lik bilan to'ldiradi bu esa ayni ko'zlangan maqsadlardan biri hisoblanadi. Skandinaviya interyerining asosi quidagilar hisoblanadi. Ular: ochiq ranglar, tabiiy materiallar, lakonik mebel va shimoliy dekorativ elementlardir. Bunday elementlar tufayli bu uslub boshqa uslublardan farq qiladi. Bundan tashqari, Skandinaviya uslubi funktsionallik, oddiy geometriya va toza chiziqlarga asoslangan bo'lib o'z jozibasiga ega.

Shu bilan birga AQSHda paydo bo'lgan zamonaviy uslub haqida so'z ketar ekan. Dastlab u eski keng binolarni tartibga solish uchun ishlatilgan edi. Yana bir uslub Endi loft uslubida, asosan, turar-joy va jamoat joylari jihozlangan edi. Uslub ochiq keng xonalar, qo'pol qoplamalar, jigarrang soyalar va rangli aksanlar qo'shilgan monoxrom ranglar bilan ajralib turadi va o'zgacha muhitni tashkil etadi. Ammo Loftni qo'pol, sovuq va yoqimsiz uslub sifatida qabul qilmaslik kerak, malakali yondashuv bilan u juda samimiy va qulay bo'ladi albatta bunga erishish uchun sabr hamda mehnat qilish lozim. To'g'ri bajarilgan loft uslubidagi ichki makon hech qachon odamga noqulaylik tug'dirmaydi aksincha hotirjamlik kabi o'zgacha his beradi. Uning elementlari: tokchalar, javonlar, yoritish moslamalari, armaturalar hisoblanadi.

Art Deco uslubi o'ziga xos uslublardan biri sanalib shakllantiruvchi asosiy element ekspressiv bezaklardir. Ko'pincha dekorda siz quyoshga o'xshash shakllarni topishingiz mumkin va o'cha hislarni beradi. Bu uslub odatda Qandilga alohida e'tibor beriladi, chunki u kompozitsiyaning markazida eng muhim rol o'ynaydi. Uning sof shaklida minimalizm kamdan-kam uchraydi: funktsionallik odatda susayadi. Ammo bu ko'pchilik zamonaviy uslublar uchun asosdir. U o'tmish va hozirgi zamon muhitini uyg'unlashtirib, shakl va ranglarning ta'riflab bo'lmaydigan uyg'unligini yaratadi.

Yana bir o'ziga xos uslublardan biri Futurizm hisoblanib, "Futurizm" so'zi inglizcha "kelajak" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "kelajak" deb tarjima qilinadi va o'z nomi bilan ham ajralib turadi. Bunday o'zgacha san'at harakati 1910-1920-yillarda tashkil etilgan. Uslub birinchi Italiya va Rossiyada tashkil etilgan hamda qo'llanilgan. Unda makonni joylashtirish va shakliga ham katta ahamiyat berilgan. Bunday sinchikovlik esa o'z sohasida o'sishga turtki bo'ladi. Ko'pgina individual elementlar orasida iloji boricha ko'rinadigan bo'lish uchun geometrik chiziqlar faol ravishda ishtirok etadi o'z ta'sirini ko'rsatmay o'tmaydi. Ushbu uslub nafaqat interyerning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi, balki rassomchilik, arxitektura va adabiyotga ham ta'sir ko'rsata oldi, albatta bu esa taxsinga sazovvardir. Futuristik yo'nalishning interyer g'oyalar ijodkorligi bilan ajralib turadigan eksklyuziv dizaynga egaligi, uni amalga oshirish uchun innovatsion materiallar bilan birgalikda maxsus texnologiyalar qo'llaniladi va maqsadga manashu asnodan erishiladi.

Futurizm uslubidagi interyerning asosiy belgilari: Assimetrik shakllar hisoblanadi va bu shakllarsiz ushbu yo'nalishni ta'savvur qilib bo'lmaydi. Xonalarning tartibi esa turli yo'nalishdagi tuzilmalarga eksklyuziv shakl berishga asoslanganligini ko'rishimiz mumkindir. Butun bir interyer ma'lum bir kosmik yo'nalishi bo'lishi kerak huddi bir yo'l kabi. Mana shu kabi boshqa ko'plab uslublar interyer dizaynlarida ishlatiladi va ko'zni quvontiradigan darajada tashkillashtiriladi.

Ma'naviyat markazlarini yuqori texnologiyalar minimal dekoratsiyadan foydalangan holda ishlab chiqishimiz lozim. Dizaynning muhim komponenti bu erkin harakat qilishingiz uchun katta maydonning mavjudligidir. Shunday ekan klub binolarini qarovsiz ahvoldaligini oldini olish va shu katta binolarni davlatga, jamiyatga qolaversa jamiyatimiz a'zolariga xizmat qilishi uchun ularni ma'naviyat markazlariga aylantirishimiz zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, yoshlarni mustaqil hayotga dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash maqsadida Vazirlar Mahkamasi karor qilgan. Mazkur qaror quidagilarni o'z ichiga olgan;

- Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi (keyingi o'rinlarda Konsepsiya deb ataladi)
- Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari rejasini (keyingi o'rinlarda Chora-tadbirlar rejasini deb ataladi)
- Konsepsiya va Chora-tadbirlar rejasini amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari etib belgilansin:

- 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida nazarda tutilgan aholi, ayniqsa yoshlar tarbiyasi bilan bog'liq vazifalarni samarali amalga oshirish, ularni tinch-osoyshta hayot uchun eng zarur tayanch kompetensiyalar bilan ta'minlash;

- ma'naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish;
- tarbiya jarayonida uzluksizlik, uzviylik tamoyillariga tayangan holda avvalo, onaning homiladorlik davrini to'g'ri tashkil etish, go'daklar va bolalarni ma'naviy tarbiyalash bo'yicha asosiy yo'nalishlarni belgilash;

- yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlik, mas'uliyatlik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarini bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish;

- homiladorlik davridan boshlab 30 yoshgacha davom etadigan uzluksiz ma'naviy tarbiyani amalga oshirishda ota-ona, tarbiyachi, o'qituvchi, uzluksiz ta'lim muassasalari va mahalla jamoatchiligining o'zaro samarali hamkorligi mexanizmini ishlab chiqish va hayotga joriy etish;

- aholining farzand tarbiyasi bo'yicha bilimlarini, pedagogik madaniyatini oshirish, fuqarolarni uzluksiz ma'naviy tarbiyaning jahon tajribasida sinovdan o'tgan samarali pedagogik texnologiyalari, usullari va amalga oshirish shakllari bilan muntazam tanishtirib borish;

- ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog'i orqali tarqatilayotgan g'arazli axborotlar, odob-axloqni yemiruvchi illatlar, yoshlarni zalolatga boshlovchi buzg'unchi g'oyalarga karshi sog'lom dunyokarashni shakllantirish;

- uzluksiz ma'naviy tarbiyani tashkil etishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va xususiy sektorning hamkorligini samarali yo'lga qo'yish.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Chora-tadbirlar rejasini bajarish yuzasidan vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish hamda uning o'z vaqtida va sifatli bajarilishi yuzasidan tizimli monitoring olib borilishini ta'minlasin.

Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Yoshlar siyosati, madaniyat, ma'naviyat, ommaviy axborot vositalari, ijodiy va jamoat tashkilotlari masalalari kotibiyatiga yuklansin deyilgan.

Ushbu qarorlarni amalga oshirish barchamizning zimmamizda. Mana shu qaror asosida ham klublarni ma'naviyat markazlariga aylantirishimiz juda o'rinlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 maydagi "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6000 sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4829149>;
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 avgustdagi «2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantiri bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida» gi PF-3217 sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/3311817>;
3. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov. Asarlar. 1-jild. O'zbekiston - milliy Istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura;
4. TURAR JOY VA JAMOAT BINOLARINI LOYIHALASHNING TIPOLOGIK ASOSLARI 1997 yil 29 avgust. X.M. Ubaydullayev, M.M. Inog'omova.



УДК: 611.37-611.637

**СУРУНКАЛИ АЛКОГОЛ ИНТОКСИКАЦИЯСИДА КАЛАМУШЛАРНИНГ
ТАНА ВАЗНИ КЎРСАТКИЧИ ВА ПРОСТАТА БЕЗИ АНАТОМИК
ПАРАМЕТРЛАРИНИНГ МОРФОМЕТРИК ТАҲЛИЛИ**

Раджабов А.Б

Бухоро давлат тиббиёт институти

Аннотация: Мақолада кечки постнатал онтогенез даврида ва сурункали алкоголизмда эркак каламушлар тана вазни кўрсаткичи ва простата безининг анатомик параметрларининг ўсиши ва ривожланиши кузатилди. Олиб борилган тадқиқотларга асосланиб тана вазни ва простата безининг органометрик кўрсаткичларининг (вазни, қалинлиги, кенглиги, узунлиги) ўсиш суръатлари аниқланди, вазн коэффициентлари ва ўртача кунлик тана вазни ортишининг таҳлили ўтказилди.

Эркак каламушларнинг тана вазни ва простата бези биометрик кўрсаткичларининг ўзгариши кечки постнатал онтогенез даврида ва сурункали алкоголизмда тўлқинсимон характерга эга эканлиги аниқланди. Бунда контрол гуруҳда тана вазни, простата оғирлиги, қалинлиги, эни ва узунлигининг энг юқориги ўсиш кўрсаткичлари ривожланишининг 6-чи ойида кузатилди. Постнатал онтогенезнинг барча даврларида простата безининг узунлиги доимо эни ва қалинлигидан баланд кўрсаткичига эгаллиги қайд этилди. 9 ойликан бошлаб безнинг кундаланг ўлчами аъзонинг узунасига бўлган ва олдинги орқа ўлчамларидан баландлиги аниқланди.

Сурункали алкоголизмга учраган каламушларда контролга нисбатдан барча ёшга доир гуруҳларда тана вазни етишимовчилиги, простата безининг оғирлиги, қалинлиги, эни ва узунлик кўрсаткичлари пасайиши кузатилди. Бу ҳолат айниқса 3 ойлик ва 1,5 ёшарлик каламушларда яққол намоён бўлди.

Калит сўзлар: каламуш простата бези, постнатал онтогенез, органометрик кўрсаткичлар, сурункали алкоголизм

**МОРФОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВЕСОВОГО ПОКАЗАТЕЛЯ ТЕЛА И
АНАТОМИЧЕСКИХ ПАРАМЕТРОВ ПРОСТАТЫ КРЫС ПРИ
ХРОНИЧЕСКОЙ АЛКОГОЛЬНОЙ ИНТОКСИКАЦИИ**

Раджабов А.Б

Бухарский государственный медицинский институт

Аннотация: В статье прослежено развитие и рост весового показателя тела и анатомических параметров простаты крыс-самцов на протяжении позднего постнатального онтогенеза и при хроническом алкоголизме. На основании проведённого исследования установлены темпы роста веса тела и органометрических

параметров простаты крыс (масса, толщина, ширина, длина), произведён анализ массового коэффициента и среднего ежедневного прироста массы тела.

Достоверно установлено, что изменение массы тела и биометрических показателей предстательной железы крыс-самцов на протяжении постнатального онтогенеза и при хроническом алкоголизме носит скачкообразный характер. При этом в контроле наибольший темп прироста массы тела, веса, толщины, ширины и длины простаты отмечен у крыс 6-месячного возраста. На всех этапах постнатального онтогенеза длина простаты всегда больше ширины и толщины, причём с 9-месячного возраста поперечный размер железы начинает преобладать над продольными и передне-задними размерами.

У крыс с хроническим алкоголизмом по сравнению с контролем, во всех возрастных группах наблюдается дефицит массы тела и уменьшение веса, толщины, ширины и длины простаты, наиболее это выражено у 3-месячных и полугодовалых животных.

Ключевые слова: простата крыс, постнатальный онтогенез, органомерические показатели, хронический алкоголизм

COMPARATIVE CHARACTERISTICS OF BODY WEIGHT AND BIOMETRIC PARAMETERS OF THE PROSTATE OF MALE RATS IN POSTNATAL ONTOGENESIS AND IN CHRONIC ALCOHOLISM

Radjabov A.B

Bukhara State Medical Institute

Resume: The article traces the development and growth of body weight and anatomical parameters of the prostate in male rats during late postnatal ontogenesis and in chronic alcoholism. On the basis of the study, the growth rates of body weight and organometric parameters of the rat prostate (mass, thickness, width, length) were established, the mass coefficient and the average daily weight gain were analyzed.

It has been reliably established that the change in body weight and biometric parameters of the prostate gland of male rats during postnatal ontogenesis and in chronic alcoholism is of a spasmodic nature. At the same time, in the control, the highest rate of increase in body weight, weight, thickness, width, and length of the prostate was noted in 6-month-old rats. At all stages of postnatal ontogenesis, the length of the prostate is always greater than the width and thickness, and from the age of 9 months, the transverse size of the gland begins to prevail over the longitudinal and anterior-posterior dimensions.

In rats with chronic alcoholism, in comparison with the control, in all age groups, there is a lack of body weight and a decrease in the weight, thickness, width, and length of the prostate, this is most pronounced in 3-month-old and 1.5-year-old animals.

Keywords: rat prostate, postnatal ontogenesis, organometric parameters, chronic alcoholism



XX-чи асрнинг ўрталаридан бошлаб экспериментал тадқиқотларда қўлланилиши бўйича лаборатор ҳайвонлар орасида оқ каламушлар биринчи ўринда туради [6,7,9].

Тадқиқотнинг муҳим жиҳати аксарият ҳолларда тана вазнига қараб ёшни белгилашдир. Тана вазнининг ўзгариши организмнинг физиологик ҳолатида намоён бўлади. Айрим муаллифларнинг илмий тадқиқотларида постнатал онтогенезда оқ каламушларнинг тана оғирлиги ҳақидаги маълумотлар келтирилган, аммо бу кўрсаткичлар онтогенезнинг маълум бир даврини ўз ичига олган бўлиб, бутун постнатал онтогенез давомида унинг ўсиши ва ривожланишига доир маълумотлар келтирилмаган [5,8,10,11].

Алкогол энг кенг тарқалган токсик ксенобиотиклардан биридир. Дунё бўйлаб спиртли ичимликларни истеъмол қилиш ҳар йили 3 миллион кишининг ўлимига сабаб бўлади, бу барча ўлимларнинг 5,3% ни ташкил этади. Алкогол касаллик ва жароҳатлар умумий глобал юқининг 5,1% ни ташкил қилади [2].

Мавжуд адабиётларда этанолнинг лаборатор ҳайвонлари турли органлари ва тизимларига патологик таъсири бўйича етарли миқдордаги экспериментал тадқиқотлар мавжуд. Алкогол организмга ҳам маҳаллий, ҳам тизимли патологик таъсир кўрсатиши мумкин. Этанол захарланишига энг заиф бўлган органларга бош мия, жигар, буйрақлар ва ўпкалар киради [1,4,12].

Шуни таъкидлаш керакки, мавжуд адабиётларда биз простата безининг ёшга доир органометрик ўзгаришларини, шунингдек сурункали алкоголь захарланишида комплекс тадқиқотлар бўйича ҳисоботларни топмадик. Ҳозирга қадар спиртли ичимликлардан захарланишнинг репродуктив органларига, хусусан, простата безининг шаклланиши ва морфологик ҳолатига таъсири ноаниқлигича қолмоқда.

Шу муносабат билан сурункали алкоголизм шароитида ҳайвонларда динамикада тана вазни ва простата безининг морфометрик кўрсаткичларини ўрганиш назарий ва амалий тиббиёт учун шубҳасиз қизиқиш уйғотади.

Тадқиқот мақсади: Постнатал онтогенез ва сурункали алкоголизмда каламушлар тана вазни, ҳамда простата безининг органометрик кўрсаткичлари ривожланиши ва ўсишини қиёсий таҳлил қилиш.

Тадқиқот материал ва усуллари: Тадқиқот 3,6,9,12,18 ойлик 110 та оқ эркак каламушларда ўтказилди. Ҳайвонларни сақлаш ва улар билан барча манипуляциялар халқаро стандартлар ва умуртқали лаборатория ҳайвонлари билан ишлаш қоидаларига мувофиқ олиб борилди. 10 та экспериментал гуруҳлар тузилди: 1– назорат гуруҳи, 3 ойлик (n=12); 2 – назорат гуруҳи, 6 ойлик (n =14); 3 – назорат гуруҳи, 9 ойлик (n =12); 4 – назорат гуруҳи, 12 ойлик (n =10); 5 – назорат гуруҳи, 18 ойлик (n =10); 6 – экспериментал гуруҳ, ёши 3 ойлик (n =12); 7–экспериментал гуруҳ, ёши 6 ойлик (n =12); 8 – экспериментал гуруҳ, ёши 9 ойлик (n =8); 9 – чи – экспериментал гуруҳ, ёши 12 ойлик (n =10); 10 – экспериментал гуруҳ, ёши 18 ойлик (n =10). Назорат ва экспериментал гуруҳдаги каламушлар ичимлик суви, экин илдиэлари ва донли маҳсулотлар билан озиқлантирилди.

Экспериментал гуруҳларда сурункали алкоголь захарланишни моделлаштириш мақсадида 40 % ли этанол эритмасидан фойдаланган ҳолда ҳайвонларни мажбурий алкоғолизация қилиш амалиёти бажарилди. Эритма кўрсатилган мудатдан олдин 1 ой давомида тана вазнининг 1 кг / 7 гр. умумий дозасида кунига 1 марта металл зонд ёрдамида интрагастрал юборилди. Назорат ҳайвонлари интрагастрал равишда тенг миқдорда 0,9% NaCl эритмасини олдилар. Тегишли ҳужжатлар билан тасдиқланган коидаларга мувофиқ каламушлар эфир наркоз остида декапитация йўли билан тажрибадан чиқарилди [3].

Ундан олдин каламушларнинг тана вазни ўлчанди. Қорин бўшлиғини очгандан сўнг, простата беши қуриб қолмаслиги мақсадида нам ҳолатда олинди ва аъзо оғирлиги, узунлиги, кенглиги, қалинлиги ўлчанди. Каламушлар тана ва простата безининг оғирлиги JW-1 ($e = 0,02$ г) Асом Inc. (Жанубий Корея) электрон тарозисида аниқланди, узунлиги, кенглиги ва қалинлиги эса миллиметрли лента ёрдамида ўлчанди. Оғирлик коэффициентлари $AB = \text{Аъзо вазни (г)} / \text{тана вазни (г)} \times 100\%$ формуласи бўйича ҳисоблаб чиқилди.

Математик таҳлил STTGRAPH 5.1 дастурининг имкониятларидан фойдаланган ҳолда тўғридан-тўғри Ехсел 7.0 умумий маълумотлар матрицасида амалга оширилди, стандарт оғиш кўрсаткичлари ва репрезентативлик хатоликлари аниқланди.

Тадқиқот натижалари:

Тадқиқот натижаси шуни кўрсатадики, ювенил ёшда (3 ойлик) тана вазни 104,1 дан 117,1 граммгача, ўртача $110,68 \pm 1,2$ граммни ташкил қилади. 6 ойлик каламушларда тана вазни 204,4 дан 225,4 граммгача, ўртача $213,07 \pm 1,72$ граммни ташкил этади. Ўсиш кўрсаткичи суръати 92,5%, ўртача кунлик ўсиш 1,1% ни ташкил қилади. Ҳаётнинг 9-ойлигида тана вазни 280,4 дан 296,7 граммгача, ўртача $289,01 \pm 1,5$ ни ташкил қилади. Ўсиш суръати 35,64%, кунлик вазн ортиши 1,1%. Ҳаётининг биринчи йилида каламушларнинг вазни 303,4-325,4 грамм, ўртача $315,37 \pm 2,38$ граммни ташкил этади. Ўсиш суръати - 9,12%, ўртача кунлик вазн ортиши - 1,1%. Кексалик даврида (18 ой) каламушларнинг вазни 318,7 дан 351,4 граммгача, ўртача $335,08 \pm 3,53$ граммни ташкил қилади. Ўсиш суръати - 6,25%, кунлик вазн ортиши - 0,56%.

Экспериментал гуруҳда сурункали алкоғолизмга чалинган 3 ойлик каламушларда тананинг вазн кўрсаткичи 65,2 дан 83,4 граммгача, ўртача $75,56 \pm 1,67$ граммни ташкил қилади. 3 ойлик назорат гуруҳига нисбатан тана вазни 31,73% га камаяди. Экспериментал гуруҳ каламушлари ривожланишининг 6-ойлигида тана вазни 182,1 дан 203,8 граммгача, ўртача $192,46 \pm 2,0$ ни ташкил қилади. Назорат гуруҳининг худди шу ёши билан солиштирганда тана оғирлиги 9,67% га камаяди. Ўртача кунлик вазн ортиши 1,1% ни ташкил қилади. Экспериментал гуруҳнинг 9 ойлик каламушларида тана вазни 235,6-256,1 грамм оралиғида, ўртача $245,22 \pm 2,73$ граммни ташкил қилади. 9 ойлик назорат каламушлари билан солиштирганда, тана вазн кўрсаткичи 15,5% га камаяди. Кунлик вазн ортиши 0,59% ни ташкил қилади. Тажрибанинг 12-ойлигида тана вазни 267,7 дан 289,1 граммгача, ўртача - $278,67 \pm 2,31$ граммни ташкил этади. Назорат



гуруҳи билан солиштирганда, вазн оғирлиги 11,63% га камаяди, кунлик вазн ортиши 1,1% ни ташкил қилади. 18 ойлик экспериментал каламушларда тана вазни 253,8 дан 298,6 граммгача, ўртача $267,0 \pm 4,83$ граммни ташкил қилади. Худди шу ёшдаги назорат билан солиштирганда, бу кўрсаткич 20,32% га камаяди. Ўртача кунлик вазн ортиши 0,56% га камаяди.

Аниқланишича, ювенил даврда простата безининг вазни 0,26-0,39 грамм, ўртача $0,34 \pm 0,001$ граммни ташкил қилади. Масса коэффициенти 0,21% ни ташкил қилади. 6 ойлик ёш каламушларда простата безининг оғирлиги 0,31 дан 0,83 граммгача, ўртача $0,60 \pm 0,04$ граммни ташкил этади. Ўсиш суръати - 76,5%, масса коэффициенти - 0,28%. Ривожланишнинг 9-ойлигида простата безининг вазни 0,66 дан 1,09 граммгача, ўртача $0,91 \pm 0,04$ граммни ташкил қилади. Аъзо оғирлигининг ўсиш тезлиги - 51,7%, масса коэффициенти - 0,31%. Ҳаётнинг 1-чи йилига келиб, аъзо вазни 0,86 дан 1,34 граммгача, ўртача $1,12 \pm 0,05$ граммни ташкил қилади. Ўсиш суръати - 23,1%, масса коэффициенти - 0,36%. Бир ярим ёшда простата массаси 0,96 дан 1,65 граммгача, ўртача $1,23 \pm 0,07$ ни ташкил қилади. Ўсиш суръати - 9,8%, оғирлик коэффициенти - 0,37%.

Экспериментда 3-ойлик каламушларда простата вазни 0,10 дан 0,28 граммгача, ўртача $0,20 \pm 0,02$ граммни ташкил қилади. Назорат гуруҳи билан солиштирганда безнинг оғирлиги 70,0% га камаяди, бу ҳолда масса коэффициенти 0,26% ни ташкил этади. Эксперимент гуруҳидаги 6 ойлик каламушларнинг простата оғирлиги 0,18 дан 0,63 граммгача, ўртача $0,45 \pm 0,04$ граммни ташкил қилади. Худди шу ёшдаги назорат гуруҳи билан солиштирганда простата безининг вазни 33,3% га камаяди, масса коэффициенти 0,23% ни ташкил этади. Ривожланишнинг 9-ойида простата массаси 0,61 дан 1,04 граммгача, ўртача $0,85 \pm 0,06$ граммни ташкил қилади. Назорат гуруҳи билан солиштирганда безнинг оғирлиги 7,1% га камаяди, масса коэффициенти 0,35% ни ташкил қилади. Эксперимент гуруҳида бир ёшли каламушларда простата оғирлиги 0,80-1,27 грамм оралиғида булиб, ўртача $1,03 \pm 0,05$ граммни ташкил қилади. Худди шу ёшдаги назорат гуруҳи билан солиштирилганда безнинг оғирлиги 8,74 марта камаяди. Масса коэффициенти 0,37% га тенг. 18-ойлик каламушларда простата массаси 0,61 дан 1,1 граммгача, ўртача $0,80 \pm 0,05$ граммни ташкил қилади. Назорат гуруҳи билан солиштирганда безнинг оғирлиги 53,8% га камаяди, масса коэффициенти 0,24% га тенг.

Аниқланишича, 3-ойлик каламушларда простата қалинлиги 4 дан 6 мм гача ўзгариб туради, ўртача - $5,0 \pm 0,18$ мм. 6 ойлик каламушларда простата қалинлиги 5-8 мм оралиғида, ўртача $6,7 \pm 0,25$ мм. Ўсиш суръати 34,0 фоизни ташкил этади. 9-ойлигида эса қалинлиги 6-8 мм, ўртача $7,5 \pm 0,18$ мм. Ўсиш суръати 11,9 фоизни ташкил этади. Ҳаётининг 1-чи йили охирига келиб, простата қалинлиги 6 дан 9 мм гача, ўртача $7,9 \pm 0,32$ мм. Ўсиш суръати 23,1 фоизни ташкил этади. 18-ойликдаги каламушларда простата безининг қалинлиги 7-10 мм оралиғида бўлиб, ўртача $8,4 \pm 0,32$ мм. Ўсиш суръати 9,8 фоизни ташкил этади.



3 ойлик каламушларда простата безининг қалинлиги 3-5 мм оралиғида, ўртача - $4,0 \pm 0,18$ мм. Назорат гуруҳининг худди шу ёши билан солиштирганда, у 20,0% га камайди. Эксперимент гуруҳидаги каламушларда 6 ойликда абзонинг қалинлиги 4-6 мм, ўртача $5,7 \pm 0,18$ мм. Назорат гуруҳи билан солиштирганда, у 14,9% га камаяди. Тажрибадаги 9 ойлик каламушларда абзо қалинлиги 5 дан 7 мм гача, ўртача $6,5 \pm 0,27$ мм гача ўзгариб туради. Худди шу ёшдаги назорат гуруҳи билан солиштирганда қалинлиги 13,3% га камайди. Тажриба гуруҳидагиларнинг 1-чи йилида простата қалинлиги 6-8 мм, ўртача $7,0 \pm 0,22$ мм. Назорат гуруҳи билан солиштирганда у 11,4% га камаяди. 18 ойлик тажриба гуруҳидаги каламушларда простата қалинлиги 6-8 мм оралиғида, ўртача $7,1 \pm 0,22$ мм. Худди шу ёшдаги назорат гуруҳидагилар билан солиштирганда, абзонинг бу кўрсаткичи 15,5% га камаяди.

Тадқиқот натижалари шуни кўрсатдики, ривожланишнинг 3-ойлигида абзо кенглиги 5 дан 7 мм гача, ўртача $6,2 \pm 0,18$ ни ташкил қилади. 6 ойлик каламушларда простата безининг кенглиги 7-10 мм, ўртача $8,9 \pm 0,25$ мм ни ташкил қилади. Ўсиш суръати 43,5 фоизни ташкил этади. 9-ойига келиб простата безининг кенглиги 12 дан 18 мм гача, ўртача $15,0 \pm 0,55$ мм ни ташкил қилади. Абзо кенглигининг ўсиш тезлиги 68,55% ни ташкил қилади. Бир ёшли каламушларда абзонинг кенглиги 14 дан 18 мм гача, ўртача $16,1 \pm 0,43$ мм. Ўсиш суръати 7,3 фоизни ташкил этади. 18 ойлигида простата безининг кенглиги 16 дан 20 мм гача, ўртача $17,4 \pm 0,43$ мм. Ўсиш суръати 8,1 фоизни ташкил этади.

3 ойлик каламушларда ўтказилган тажрибада простата безининг кенглиги 4 дан 6 мм гача, ўртача $5,1 \pm 0,18$ мм. Худди шу ёшдаги назорат гуруҳидагилар билан солиштирганда, у 17,7% га камаяди. 6 ойлигида абзо кенглиги 7 дан 11 мм гача, ўртача $8,1 \pm 0,37$ мм. Назорат гуруҳи билан солиштирилганда 9,0% га камаяди. Тажрибанинг 9-ойига келиб простата безининг кенглиги 11 дан 17 мм гача, ўртача $13,4 \pm 0,8$ мм ни ташкил қилади. Назорат гуруҳидагилар билан солиштирганда, у 10,6% га камаяди. 12 ойлик тажриба гуруҳидаги каламушларда простата безининг кенглиги 13 дан 18 мм гача, ўртача $15,2 \pm 0,54$ мм ни ташкил қилади. Назорат гуруҳи билан солиштирганда абзонинг кенглиги 5,6% га камайди. Тажрибада ривожланишнинг 18-ойлигида простата безининг кенглиги 12-17 мм оралиғида, ўртача $14,4 \pm 0,54$ мм. Худди шу ёшдаги назорат гуруҳидагилар билан солиштирилганда, у 17,2% га камаяди.

Ривожланишнинг 3-ойлигида абзонинг узунлиги 8 дан 11 мм гача оралиғида бўлиши аниқланди, ўртача $10,1 \pm 0,28$ мм. 6 ойлик каламушларда простата безининг узунлиги 10 дан 15 мм гача, ўртача $13,0 \pm 0,41$ мм. Ўсиш суръати 28,7 фоизни ташкил этади. Ривожланишнинг 9-ойида простата безининг узунлиги 11 дан 16 мм гача, ўртача $14,1 \pm 0,46$ мм. Ўсиш суръати 8,5% ни ташкил қилади. 12 ойлик каламушларда простата узунлиги 13 дан 17 мм гача, ўртача $15,2 \pm 0,43$ мм ни ташкил қилади. Ўсиш суръати 7,8 фоизни ташкил этади. Ривожланишнинг 18-ойида простата безининг узунлиги 14 дан 18 мм гача, ўртача $16,1 \pm 0,43$ мм. Абзо узунлигининг ўсиш тезлиги 5,9% ни ташкил қилади.



3 ойлик каламушларда ўтказилган тажрибада простата узунлиги 6-9 мм оралиғида, ўртача $7,9 \pm 0,28$ мм ташкил этади. Худди шу ёшдаги назорат гуруҳидагилар билан солиштирилганда, аъзо узунлиги 21,8% га камаяди. Экспериментал гуруҳнинг 6 ойлик каламушларида простата узунлиги 7 дан 13 мм гача, ўртача $11,0 \pm 0,55$ мм. Назорат гуруҳидагилар билан солиштирилганда простата узунлиги 15,4% га қисқаради. Тажрибадаги 9 ойлик каламушларда аъзонинг узунлиги 10 дан 15 мм гача, ўртача $12,2 \pm 0,67$ мм. Назорат гуруҳидагилар билан солиштирилганда, безнинг бу кўрсаткичи 13,4% га камаяди. Экспериментал гуруҳнинг 12 ойлик каламушларида безнинг узунлиги 11 дан 16 мм гача, ўртача $13,9 \pm 0,54$ мм ни ташкил қилади. Назорат гуруҳидагилар билан солиштирилганда, у 8,6% га камаяди. Тажрибадаги 1,5 ёшли каламушларда простата узунлиги 11 дан 15 мм гача, ўртача $13,0 \pm 0,43$ мм ни ташкил қилади. Худди шу ёшдаги назорат гуруҳидагилар билан солиштирилганда безнинг узунлиги 19,3% га камаяди.

Хулоса: Кечки постнатал онтогенез даврида тана вазни, простата оғирлиги, қалинлиги, кенглиги ва узунлигининг энг катта ўсиши 6 ойлик эркак каламушларда кузатилади, кейин туғруқдан кейинги онтогенез тугагунга қадар ўсиш тезлиги аста-секин пасаяди. Постнатал онтогенезнинг барча босқичларида простата безининг узунлиги доимо кенглиги ва қалинлигидан каттароқ бўлади ва 9 ойликдан бошлаб безнинг кўндаланг ўлчами бўйлама ва олд-орқа ўлчовлардан устун кела бошлайди.

Бир ёшга тўлгунга қадар, каламушлар ўртача кунлик вазн ортишининг бир хил қийматини кўрсатди, 18-ойга келиб бу кўрсаткич 2 баравар камаяди. Постнатал онтогенез даврида аъзонинг оғирлик коэффициенти 18 ойликка қадар аста-секин ўсиб боради.

Сурункали алкоголизмга учраган каламушларда, назорат гуруҳидагилар билан солиштирилганда, барча ёш гуруҳларида тана вазнининг етишмаслиги ва простата безининг вазни, қалинлиги, кенглиги ва узунлигининг пасайиши кузатилади, бу 3 ойлик ва 1,5 ёшли ҳайвонларда яққол намоён бўлди.

Тажрибада ўртача кунлик вазн ортиши назорат гуруҳи билан солиштирилганда кўзга қуринайдиган ўзгаришларга дуч келмайди. 18 ойлик даври бундан истисно бўлиб, бу кўрсаткич салбий қийматга эга бўлиб, ўсиш ўрнига пасайиш кузатилади. Сурункали алкоголизмга учраган каламушларда оғирлик коэффициенти кўрсаткичи назорат гуруҳига нисбатан 6 ва 12 ойликларда пасаяди, бошқа ёш гуруҳларида бироз ўсиш кузатилади.

Шундай қилиб, кечки постнатал онтогенезда ва сурункали алкоголизмда тананинг вазн кўрсаткичи ва простата биометрик кўрсаткичларининг ўсиш жараёни нотекис кечади ва бу ҳолат организмнинг анатоми – физиологик ва ёшга доир хусусиятлари билан чамбарчас боғлиқ.

АДАБИЁТЛАР:

1. Вовченко А.Ф. Структурно-функциональные изменения сердца, легких, печени и почек при хронической алкогольной интоксикации. Автореф. канд. биол. наук. - 2017 год. Астрахань. – С. 15.
2. Информационный бюллетень ВОЗ. Алкоголь [Электронный ресурс] // Всемирная организация здравоохранения. – Сентябрь, 2018. URL: <https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/alcohol>.
3. Использование лабораторных животных в токсикологическом эксперименте: методические рекомендации. Под ред. Сидорова П.И. Архангельск. 2002; 15.
4. Камолов Х.Ё. Морфологическая характеристика легкого при хроническом алкоголизме // Журнал «Новый день в медицине». – 2021. - №2 (34). – С. 235-237 бет
5. Красникова Е. С. И др. Изучение динамики массы тела и внутренних органов лабораторных крыс при экспериментальной инфекции вирусом лейкоза крупного рогатого скота// Ветеринария сегодня. – 2021. -№ 2 (37). – С. 121–127. DOI: 10.29326/2304-196X-2021-2-37-121-127
6. Малинин М.Л. и др. Половые различия по биохимическим показателям крови у разных видов лабораторных животных // Известия Саратовского университета. – 2008. – Т.8, вып.1. – С. 51-54.
7. Ноздрачев А.Д., Поляков Е.Л. Анатомия крысы (Лабораторные животные) / СПб. Издательство «Лань», 2001. 464 с.
8. Райкова К. А., Авдеева О. С., Гавриченко Е. П. Масса внутренних органов как критерий возрастных изменений// Бюллетень медицинских интернет-конференций. – 2020. - № 10 (1). – С. 24. ID: 2020-01-6-T-18847
9. Hofstetter J., Suckow M.A., Hickman D.L. Morphophysiology. Chapter 4 in book: The laboratory rat. Edited by Suckow M.A., Weisbroth S.H., Franklin C.L. Elsevier Academic Press, USA. -2006. – pp. 929.
10. Hudelson K.S. Exotic companion medicine handbook for veterinarians. Zoological education network. 2008.
11. Radjabov A.B. (2022). Growth dynamics of the body weight index and anatomical parameters of the prostate of male rats during postnatal ontogenesis// British Medical Journal, - Volume-2 (1). - P. 278-283
12. Xamroyev X. N. The morphofunctional changes in internal organs during alcohol intoxication// EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE, 2022. - Vol. 2 No. 2. - P. 9 -11

MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTON TO‘QIMACHILIK
SANOATINING RIVOJLANISHI.

Toirjonova Malohatxon Baxtiyorjon qizi

Farg‘ona sanoat va xizmat ko‘rsatish texnikumi talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida ilgor horijiy texnologiyalar «O‘zbekengilsanoat» tizimidagi mavjud qo‘shma korxonalar haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: korxonalar, firma, Zucker Myuller, gazlama, Beninger, paxta, ip, dastgoh.

THE DEVELOPMENT OF THE TEXTILE INDUSTRY OF UZBEKISTAN IN
THE YEARS OF INDEPENDENCE.

Annotation: This article provides information on existing joint ventures in the Uzbekengilsanoat system of advanced foreign technologies in the textile industry of Uzbekistan.

Keywords: enterprises, firm, Zucker Müller, fabric, Beninger, cotton, yarn, machine.

Kirish. O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida ilg‘or horijiy texnologiyalar "O‘zbekistonning horijiy mamlakatlar bilan hamkorlik aloqalari tobora rivojlanib bormoqda. Mamlakatimiz iqtisodiyotiga kiritilayotgan sarmoya hajmi oshib, chet ellik sheriklar bilan birgalikda barpo etilayotgan qo‘shma korxonalar soni ko‘paymoqda. Jumladan, 29 - aprel 1996 - yil 116 - sonli Vazirlar Mahkamasining "Yengil va Mahalliy sanoatga davlat yordami to‘g‘risidagi, 27 - iyun 1997 - yil 326 - sonli, "O‘zbekyengilsanoat uyushmasi bilan chet el kompaniyalarining qo‘shma loyihalarini joriy etish to‘g‘risida"gi qarorlari, yangi quvvatlarni yaratish, yangi qo‘shma korxonalarining ko‘rilishini tugatish, mavjud korxonalariga yangi texnika va texnologiya keltirishdagi asosiy dastur bo‘lib keldi. Bu qarorlarni bajarishda chet el investitsiyasini jalb etish asosiy omil edi. Natijada O‘zbekistonga 1996- y. - 81,4 mln. AQSh dollari, 1997 y. - 90,1 mln., 1998 yilda esa 119,5 mln. AQSh dollari hajmida chet el investitsiyasini keltirildi. Bulardan tashqari 1995- 97 yillarda to‘qimachilik sanoatining rivojlanishiga o‘z manbalarimizdan 58 mln. AQSh dollari sarflandi. [1-5]

Asosiy qism.

Chet el ilgor to‘qimachilik texnologiyasi 1993-94 yillarda Buxoro ip gazlamalar ishlab chiqarish birlashmasiga (hozirgi "Buxoroteks" H,J) birinchilar qatorida keltirildi. Shveysariyani "Riter" firmasining avtomatik yigiruv tizimi, "Beninger" firmasining tandalash mashinasi, Olmoniyaning "Zukker Myuller" firmasi ohorlash mashinasi, Shveysariyaning "Zul‘cer Ryutti" firmasidan sochiq bob gazlama ishlab chiqaruvchi yuqori unumli to‘quv dastgohlari o‘rnatildi. Bu texnologiyalar ishlab chiqarish unumdorligini oshiribgina



qolmasdan, mahsulot sifatini dunyo bozoridagi mahsulotlar bilan raqobat qila olishini ta'minlanadi.

1995 - 1999 yillarda O'zbekistonda faoliyat qilayotgan qo'shma korxonalar, ularning investitsiya hajmi va ishlab chiqarish quvvatlari keltirilgan. Jadval tahdididan ko'rinib turibdiki, chet el investitsiya hajmi bo'yicha eng ko'pi Janubiy Koreyaning "Qabul" kompaniyasini — 186 mln. AQSH dollarini tashkil etadi. Chiqariladigan mahsulotlarini paxta tolasidan yigirilgan ip, ip gazlamalar va boshqalar tashkil etadi. [2-10]

Namangan viloyati Kosonsoy shahridagi "Kosonsoy Tikmen" qo'shma korxonasi ishga tushishi bilan O'zbekistonda ilk bor jun va himiyaviy tolalar aralashmasidan kostyum hamda paltobob gazlamalar, shu tolalardan jun choyshab va qo'lda to'qiladigan gilamlar uchun yigirilgan ip ishlab chiqariladi.

Bu korxonada texnologiyasi ham noyob bo'lib, eng yuqori sifatli jun va himiyaviy tolalar aralashmasidan, yuqori sifatli ingichka yigirilgan ip ishlab chiqariladi. Ulardan esa qimmatbaho kostyumbob gazlamalar tuqiladi.

Ingichka yigirilgan ip ishlab chiqarishda hosil bo'lgan chiqindi kalta tolalarni dag'al jun tolalari va ikkilamchi qayta ishlangan xom ashyoning aralashmalaridan apparat tizimida yigirilgan yugon ip ishlab chiqariladi. Bu iplardan esa paltobob va jun choyshablar to'qiladi.

"Kosonsoy Tikmen" qo'shma korxonasi ip yigiruv, ip pishituv, to'quvchilik va pardozlash jarayonlarida eng zamonaviy jun tolalarini qayta ishlashga mo'ljallangan dunyodagi mashhur firmalarning jihozlari o'rnatilgan. Shveysariyaning "Riter" firmasi yigiruv tizimi, "Avtokoner" qayta o'rash avtomatlari, "Beninger" firmasining tandalash, Belgiyaning "Pikanol" firmasi to'quv dastgohlari o'rnatilgan. Dastgohlarning aksariyati shahsiy kompyuter bilan jihozlangan bo'lib, ular orqali texnologik jarayon markazdan boshqariladi. To'quv dastgohiga o'rnatilgan Jakkard mashinasining elektron qurilmasi dastgohda ishlab chiqarilayotgan to'qima naqshining o'rniga yaigisini ishlab chiqarish imkonini bergan. Eski dastgohdarni yangi naqsh ishlab chiqarishga qayta tayyorlash uchun bir ishchi bir oyga yaqin vaqt sarf etardi.[1-20]

1999 yil 1 dekabr kuni "Qabul-O'zbek Ko" O'zbekiston -Janubiy Koreya qo'shma korxonasi qarashli mazkur ulkan ishlab chiqarish majmuining rasmiy ochilish marosimi bo'ldi. Unda mamlakatimiz Prezidenti qatnashdi va MA'RUZA qildi.

Davlatimiz rahbari bu yil yurtimizda ko'plab inshootlar bunyod etilganligini mamnuniyat bilan qayd etar ekan, ular orasida Janubiy Koreyaning "Qabul tekstile" kompaniyasi bilan hamkorlikda barpo qilingan mazkur ishlab chiqarish korxonasi alohida o'rin tutishini takidlagi.

Mustaqillik yillarida yengil sanoat mamlakatimiz makroiqtisodiy kompleksida mustahkam o'rin egalladi.

Chet el investitsiyalari va zamonaviy texnologiyalarni keng jalb etish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, kichik biznes va xususiy

tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan samarali loyihalar ishlab chiqarish sohasida yuqori ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlayotir.

Mustaqillik yillarida tarmoqqa 2,5 milliard dollardan ortiq sarmoya jalb etilib, 200 dan ziyod yirik investitsiya loyihasi hayotga tatbiq etildi. "O'zbekyengilsanoat" aksiyadorlik jamiyati korxonalari tomonidan qiymati 31 trillion so'mlikdan ziyod sanoat mahsulotlari, 13 trillion so'mlikdan ortiq xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarildi. Korxonalarda paxta kalava va gazlama, to'qimachilik matolari, tikuvchilik va paypoq buyumlari, ip kalava, tayyor kiyimlar bilan birga tibbiyot uchun mo'ljallangan mahsulotlar va maxsus kiyimlar ham ishlab chiqarilmoqda.

"O'zbekyengilsanoat" aksiyadorlik jamiyatida joriy yilning 9 oyida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 18,5 foiz, xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarish 23 foizga o'sdi.

Bugungi kunda jamiyat tarkibiga zamonaviy texnika bilan ta'minlangan 380 dan ortiq to'qimachilik, tikuvchilik va trikotaj, shuningdek, shoyi mahsulotlari ishlab chiqaradigan korxonalar kiradi. Ularning qariyb 360 tasi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektidir.

Ushbu korxonalar ip kalavadan tortib tayyor buyumgacha bo'lgan keng turdagi mahsulotlarni ichki va tashqi bozorga yetkazib bermoqda. Zamonaviy dizayn va yuqori sifat ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatbardoshligini ta'minlab, ularning xalqaro bozorda munosib o'rin egallashi uchun imkoniyat bermoqda. [1-6]

Rivojlanishning asosiy omillaridan biri ishlab chiqariladigan mahsulotning jahon bozoriga eksport qilinishidir, deydi "O'zbekyengilsanoat" aksiyadorlik jamiyati boshqarma boshlig'i o'rinbosari Avaz Muhiddinov. – Ayni paytda jamiyat korxonalari o'z mahsulotlarini dunyoning 60 dan ziyod mamlakatiga eksport qilmoqda.

"O'zbekyengilsanoat" aksiyadorlik jamiyati ma'lumotlariga ko'ra, shu yilning o'tgan uch choragida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2,7 trillion so'mdan ortgan, xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarish esa 1,2 trillion so'mni tashkil qilgan. Ayni paytda ip va gazlama, trikotaj mato va undan tayyorlangan buyumlar, noto'qima materiallar, xom ipak kabi asosiy turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi o'sdi.

Bugungi kunda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash, mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni xalqaro bozorlarga chiqarish, innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun xalqaro hamkorlikni mustahkamlash va xorijiy sheriklarni jalb etish "O'zbekyengilsanoat" aksiyadorlik jamiyatining muhim vazifalaridan biridir. Bularning barchasi mamlakatimiz yengil sanoatini sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish imkonini beradi.

Mamlakatimizda bu sohani yanada rivojlantirish maqsadida sifat o'zgarishlarini ta'minlashga qaratilgan islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, to'xtab qolgan eski ip-yigiruv kombinatlari o'rniga zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan xorijiy va qo'shma korxonalar tashkil etilmoqda. Ko'plab tarmoq korxonalari modernizatsiya qilindi, ularda jahon andozalari darajasidagi raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarilishi yo'lga

qo'yildi. Tarmoqda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida berilgan imtiyoz va preferensiyalar ularning tashqi bozorda mustahkam o'rin egallashiga imkon yaratmoqda. [2-10]

"Asaka textile production" korxonasida bo'yalgan ip kalava, "Indorama Kokand textile" qo'shma korxonasida ip kalava ishlab chiqarishning to'rtinchi bosqichi, "Jizzax grant textile" korxonasida paypoq mahsulotlari ishlab chiqarish kabi yangi quvvatlar foydalanishga topshirilgani buning yaqqol dalilidir. Shuningdek, "Uztex Toshkent" va "Humo to'qimachi" korxonalarini modernizatsiya qilish ishlari yakuniga yetkazildi.

Tarmoqda sport mahsulotlari ishlab chiqarishga alohida e'tibor berilmoqda. Bugungi kunda 57 korxonada 60 dan ortiq turdagi sport buyumlari ishlab chiqarilayotir.

Chet el investitsiyalarini jalb etish, yangi qo'shma korxonalar tashkil qilish va mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish mamlakatimiz yengil sanoatini rivojlantirish imkonini bermoqda. Joriy yilning o'tgan davrida sohaga 153,7 million AQSh dollari jalb qilindi. Buning samarasida 25 investitsiyaviy loyiha amalga oshirilib, 2 mingdan ortiq yangi ish o'rni yaratildi.

Paxta tolasini chuqur qayta ishlashni yo'lga qo'yish orqali yurtimizda yengil sanoat tarmog'ini yanada rivojlantirish bo'yicha tegishli dasturlar ishlab chiqilayotir. Jumladan, yurtimizda qabul qilingan 2015-2019 yillarda ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilish dasturi asosida to'qimachilik sanoatida umumiy qiymati qariyb bir milliard dollarga teng bo'lgan 77 muhim loyiha amalga oshirilmoqda.

Tarmoqni yanada rivojlantirish maqsadida 2017-2021yillarda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida umumiy qiymati 2,2 milliard dollardan ortiq bo'lgan 140 loyiha amalga oshirilishi ko'zda tutilmoqda.

Joriy yilda qiymati 90 million dollarga teng 25 yangi sanoat korxonasi ishga tushirildi.

Yengil sanoat korxonalari mahsulot eksportini kengaytirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Shu yilning o'tgan 9 oyida eksport hajmi 767,3 million dollarni tashkil etdi. Bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 17,9 foiz ko'pdir. O'tgan davrda eksport qiluvchi korxonalar soni 38 taga ko'payib, 250 taga yetdi. [1-15]

Xulosa.

Bugungi kunda jamiyat korxonalari eksport qilinayotgan tayyor mahsulotlar turini kengaytirish borasida faol ish olib bormoqda. Xususan, tarmoq korxonalari eksporti tarkibiga olachipor, zich tayyorlangan va bambukli ip, tayyor to'quv-trikotaj buyumlarining yangi modellari, yotoqxon va oshxona choyshablari, yorliqlar, poplin, satin va paxmoq gazlamalar, bolalar ko'ylagi va boshqa yangi turdagi mahsulotlar kiritildi. Bozor talablari inobatga olingan holda, tikuvchilik-trikotaj buyumlari turi yangilandi. Bugungi kunda umumiy eksport hajmida yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ulushi 42 foizni tashkil etmoqda.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. E. Olimboev, Sh.R. Davirov «O'zbekiston to'qimachilik sanoati mahsulotlari va ularni ishlab chiqarish texnologiyasi», Toshkent, 2002.
2. M.T. Budnikov, Sh.R. Marasulov «Paxta, kimyoviy tolalarni yigirish» 1-kism, 1979.
3. Khakimova, K. R., Madaminova, S. S., Yokubov, S. S., & Berdaliyeva, Y. K. (2022). SOME TECHNOLOGICAL ISSUES OF USING GIS IN MAPPING OF IRRIGATED LANDS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(4), 226-233.
4. Shavkat o'g'li, Y. S., Zuxriddinovna, M. S., & Qizi, O. D. S. (2022). ARC Create an Agricultural Card in GIS and Panorama Applications. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL & APPLIED SCIENCES*, 3(6), 429-434.
5. Shavkat o'g'li, Y. S., Zuxriddinovna, M. S., & Shuxratbek qizi Olimova, D. (2022). RAQAMLI TASVIRLARNI QAYTA ISHLASH VA QAYTA ISHLASHNI TOIFALASHTIRISH. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 2(18), 425-429.
6. Shavkat o'g'li, Y. S. (2022). QISHLOQ XO 'JALIK KARTALARINI YARATISHDAGI GEODEZIK ISHLAR. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, 1(5), 460-466.
7. Абдукадилова, М. А., & ўғли Ёкубов, Ш. Ш. (2022, May). ЭЛЕКТРОН РАҚАМЛИ ХАРИТАЛАРДАГИ КОНТУРЛАР ЧЕГАРАСИ УЛАРНИ МАЙДОН (ПОЛИГОН) КЎРИНИШДА ЧИЗИШНИНГ ARCGIS ДАСТУРИЙ ТАЪМИНОТИ ОРҚАЛИ АВТОМАТЛАШГАН УСУЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. In *INTERNATIONAL CONFERENCES ON LEARNING AND TEACHING* (Vol. 1, No. 8, pp. 133-136).
8. Arabboevna, A. M., & Shavkat o'g'li, Y. S. (2022). The Use of Geoinformation Systems in the Study of the Land Fund of Household and Dekhkan Farms. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 8, 163-164.
9. Ахмедов, Б. М., & ўғли Ёкубов, Ш. Ш. (2022, May). КАДАСТР СЌМКАСИНИ БАЖАРИШ УЧУН ТОПОГРАФИК АСОСЛАР. In *INTERNATIONAL CONFERENCES ON LEARNING AND TEACHING* (Vol. 1, No. 8, pp. 287-291).
10. Abduraxmonov, A. A. (2022, May). DAVLAT YER KADASTRIDA GIS TEXNALOGIYALARIDAN FOYDALANISH. In *INTERNATIONAL CONFERENCES ON LEARNING AND TEACHING* (Vol. 1, No. 8, pp. 228-233).
11. Ogli, Y. S. S., & O'G'Li, A. P. A. (2022). KOSMIK MA'LUMOTLAR YORDAMIDA YER TUZISH LOYIHA ISHLARINI OLIB BORISH. *Ta'lim fidoyilari*, 25(5), 23-25.
12. Berdaliyeva, Y. X. (2022, April). Gis Dasturlari Yordamida Geografik Asos Qatlamlarini Joylashtirish Va Ularni Boshqarish. In *International Conferences On Learning And Teaching* (Vol. 1, No. 6, pp. 312-314).



13. Arabboyevna, A. M. (2022). Biological Activity of Typical Irrigated Gray Soils. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL & APPLIED SCIENCES, 3(6), 285-289.
14. Хакимова, К. Р., Абдукадирова, М. А., & Абдухалилов, Б. К. (2019). РАЗРАБОТКА ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ В КАРТОГРАФИЧЕСКОМ ОПИСАНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ. Актуальная наука, (11), 34-38.
15. Хакимова, К. Р., Абдукадирова, М. А., & Абдухалилов, Б. К. (2019). РАЗРАБОТКА ТЕМАТИЧЕСКИХ СЛОЕВ НА ОСНОВЕ СОВРЕМЕННЫХ ГИС-ПРОГРАММ КАРТ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО АТЛАСА. Актуальная наука, (11), 39-43.
16. Mirzaakbarovna, M. S., & Sultanbayevich, T. N. (2021). Wood Processing For Construction. The American Journal of Applied sciences, 3(05), 186-189.
17. Мирзабабаева, С. М., & Мирзаахмедова, Ў. А. (2022, April). ДРЕВЕСИНЫ И СТРОИТЕЛЬСТВОv. In INTERNATIONAL CONFERENCES ON LEARNING AND TEACHING (Vol. 1, No. 6, pp. 96-101).
18. Ilmidinovich, K. S. (2021). The methodologies of learning english vocabulary among foreign language learners. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(4), 501-505.
19. Ilmidinovich, K. S. (2020). Methods Of Teaching English To Young Learners. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(11), 65-69.
20. Arabboyevna, A. M. (2022). Biological Activity of Typical Irrigated Gray Soils. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL & APPLIED SCIENCES, 3(6), 285-289.

ADAPTIV SPORT O'YINLARINI (VOLEYBOL) O'QITISH METODIKASIDA
SITSBOL O'YINLARIDA HUJUM ZARBASI VA HUJUM BO'YICHA TAKTIK
KO'RSATMALARI

L.T.Davlatova

O'zDJTSU AJTvaS kafedrası katta o'qituvchisi

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы повышения подвижности спортсменов за счет использования ряда специальных упражнений для обучения и отработки техники движений в методике обучения адаптивным видам спорта (волейбол), атакующему удару и тактике нападения в бейсболе.

Научно обоснована роль и значение конкретных упражнений в развитии техники движений в рамках продолжительности того или иного движения.

Ключевые слова: адаптивный, ампутиационный, фазовый, стандартный, вертикальный, комбинированный, технический, инновационный, траектория, ситсбол

Annotatsiya: Mazkur maqolada adaptiv sport o'yinlarini (voleybol) o'qitish metodikasida sitsbol o'yinlarida hujum zarbasi va hujum bo'yicha taktik ko'rsatmalar o'qitish metodikasida harakat uslublarini o'rgatish va rivojlantirish bo'yicha bir qancha maxsus mashqlar yordamida sportchilarni harakat imkoniyatlarini oshirish masalalari yoritib berilgan.

Ma'lum bir harakatlarni bajarish davomiyligi doirasida harakat uslublarini bajarish texnikasini rivojlantirishda maxsus mashqlarning roli va ahamiyati ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: adaptiv, amputatsiya, faza, standart, vertikal, kombinatsiya, texnik, innovatsion, traektoriya, sitsbol

Dolzarbligi. Mamlakatimizda paralimpiya sporti sohasida amalga oshirilib kelayotgan tizim orqali bugungi kunda nufuzli xalqaro maydonlarda Vatanimiz bayrog'ini baland ko'tarib kelayotgan mashhur sportchilar yetishib chiqmoqda. Eng muhimi, ushbu musobaqalar yoshlarimizni ommaviy tarzda sportga, sog'lom turmush tarziga oshno qilish vositasiga aylanmoqda.

Jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan shaxslarga sport bilan shug'ullanish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ularning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta'minlash va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash maqsadida, bugungi kunda aholining barcha qatlamini jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan qamrab olish, mamlakatimizning barcha hududida jismoniy tarbiya va ommaviy sport inson va oila hayotidagi muhim ahamiyati, uning jismoniy va ma'naviy sog'lomlik yetuklikning asosiy shartlaridan biri ekanligini faol targ'ib etish, yoshlarga o'z qobiliyat va iste'dodlarini ro'yobga chiqarishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ular orasidan sport sohasida alohida iqtidor egalarini saralab olish va maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish kabi masalalar tizimidagi muammolarni bartaraf etish borasida bir qator tashvqot va targ'ibot ishlari amalga oshirilib kelinmoqda.



Mashg’ulotda harakat texnikasi va usullari. Hujumda: - o’yinchi gavdasining old tomonidagi to’pga zarba berish uchun sharoit yaratuvchi vaziyatni egallaydi;

- to’p to’r ustidan maqbul balandlikda uchib o’tishi lozim, toki to’siqni chetlab o’tsin;
- zarbani raqib maydonchasidagi bo’sh joylarga yoki himoyada kuchsiz bo’lgan o’yinchilarga yo’naltirish;
- bir kishilik to’siq qo’yishda yo’nalishni emas, to’pni to’sish;
- o’z vaqtida, vaziyatga qarab, qanday to’siq qo’yishni (bir kishilikmi yoki ikki kishilikmi) yoki ikki kishilik to’siqda kim to’pga to’siq qo’yishini hal qilib olish;
- boshqa o’yinchilarning to’siqni qanday qo’yishlariga e’tibor berish;

Maydonda himoya:

- gavdaga yaqin uchub kelgan to’pni imkon bo’lsa, ikki qo’llab urib yuborish;
- himoyadagi harakatlarda to’pga qo’l tekkizishning o’zi kamlik qiladi, uni faol ravishda o’yinga kiritishga urinish;
- to’p polga tegmagunicha uni yo’qotilgan deb hisoblamaslik;
- yengil qabul qilinadigan to’plarni yuqoridan raqibga uzatishga intilish;
- uzatishdan so’ng darhol o’z joyiga qaytish.

To’pni o’yinga kiritish bo’yicha taktik ko’rsatmalar.

To’pni o’yinga kiritish zarbasining aniq va bexato bo’lishi, ayniqsa, jamoa uchun tang holat yuzaga kelgan paytda kuchli zarbadan ko’ra muhimroqdir.

To’pni o’yinga kiritish zarbasi:

- maydonchani raqibga qarashli tomonida to’r yaqinidagi, yon yoki old chiziq yaqinidagi bo’sh joylarga;
- himoyada kuchsizroq bo’lgan o’yinchilar zonasiga;
- endigina almashtirilgan o’yinchilarga;
- bundan avval xato qilgan o’yinchilarga yo’naltirilishi lozim.

To’pni o’yinga kiritish zarbasi turini, to’p trayektoriyasini (baland, past, qisqa, uzun) o’zgartirish, tashqi sharoitlardan foydalanish yo’li bilan raqib jamoasida ishonchsizlik hosil qilish mumkin.

Sitsbol va o’tirib o’ynaladigan voleybol mashg’ulotlari jarayonida sportchilarda koordinatsiya bilan bog’liq sifatlar rivojlanadi, bu markaziy asab tizimi, harakar apparati, vegetativ tizimlar va hokazolar faoliyatiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Voleybol va sitsbol bilan shug’ullanganda rivojlanuvchi asosiy koordinativ sifatlar

Koordinativ sifatlar	O’yinda ishtirok etish va undagi ahamiyat
Reaksiya	Kutilgan va kutilmagan qo’zg’atishlarga harakatlarning tez boshlanishi (uzatish, to’siq qo’yish)
Tabaqalashtirish	O’yindagi harakatlarda (uzatishlar, to’pni o’yinga kiritish) kuch, vaqt va makon o’lchamlarining aniq muvofiqligi)
Mo’ljal olish	O’zining va boshqalarning vaziyatlarini aniq bilib olish (raqiblar, sheriklar, to’p, to’r, maydon chiziqlari)
Harakatlarning bog’liqligi (zanjiri)	To’p bilan va to’psiz harakat qismlari va harakat majmuasining makondagi – vaqtdagi – dinamik koordinatsiyasi
Qayta qurish	Texnikani sharoitga moslab qurish; har xil sharoitlarda alohida va majmual



	harakatlarni bajarish; vaziyatning qarshi tipi; rejalashtirilgan, lekin bajarilmagan harakatlarni o'zgartirish va nazorat qilish; zarur to'g'ri harakatni saralab olishda servariantlik va turli-tumanlik
Muvozanat	Burilish, tez harakatlanish, uzatish, himoyadan keyin muvozanatni saqlash
Ritmga solish	Masofa – vaqt – kuch orasidagi maqbul nisbat

Adaptiv sport o'yinlari (voleybol) o'qirish metodikasida harakat uslublarini takomillashtirish samaradorligiga erishishda faollikni oshirish uchun muhim bo'lgan individual yondoshish va maxsus mashqlarni qo'llash orqali erishiladi.

Mashg'uloti jarayonida harakatlar ikkita bosqichda amalga oshiriladi:

Birinchi bosqichda asosiy e'tibor qo'llarning to'g'ri joylashishiga, ayniqsa barmoqlar va qo'llarning to'p bilan ishlash paytidagi holatiga qaratiladi. 2.Ikkinchi bosqichida raqib to'pni aniq tashlaganida, qo'llar va barmoqlarning harakatlarini to'liq muvofiqlashtirishga qaratilgan mashqlar qo'llanilishi orqali namoyon etiladi.

Adaptiv sport o'yinlari (voleybol) o'qirish metodikasida bunday mashqlar o'rganish paytida asosiy mashqlar hisoblanadi. Ular mashqlarni o'zlashtirgandan keyingina maxsus mashqlarga o'tadilar, bunda to'pni uzatish o'yinda bo'lgani kabi amalga oshiriladi.

To'g'ridan-to'g'ri va yon tomondan zarbalarni amalga oshirish harakat uslubi. Adaptiv sport o'yinlari (voleybol) o'qirish metodikasida texnik usullar turlicha bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri va yon tomondan zarbalarni amalga oshirishda harakatni bajarish asosan yon hujumning samarali usuli hisoblanadi, bunda to'p to'r ustidan o'tib keyingi maydonga aniq tushishi zarur bo'lgan zaruriy holat harakatidir. Asosiy va eng keng tarqalgan usul - bu harakatda to'g'ridan-to'g'ri hujum qilish harakatidir. Bu zarbali harakatdan keyin to'pning yo'nalishi voleybolchining harakat yo'nalishiga to'g'ri keladi.

Adaptiv sport o'yinlari (voleybol) o'qirish metodikasida to'pni o'yinga tashlash holat harakatlarini bajarishda asosiy e'tibor kerakli harakatlarni tanlashga qaratiladi. O'yinchining to'rga qarab harakatlanishi to'pning traektoriyasiga bog'liq: traektoriya qanchalik baland bo'lsa, harakat tezligi shunchalik past bo'ladi yoki aksincha.

Xulosa. Adaptiv sport o'yinlarini (voleybol) o'qitish metodikasida sitsbol o'yinlarida hujum zarbasi va hujum bo'yicha taktik ko'rsatmalar va voleybolda harakat uslublarini takomillashtirish samaradorligiga erishishda faollikni oshirish uchun muhim bo'lgan individual yondoshish va maxsus mashqlarni qo'llash orqali erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Саломов Р. С., Миржамолов М. Х. Жисмоний имконияти чекланган ўқувчиларнинг спорт машғулотларига мослашиши. Ўқув услубий қўлланма. – 2014.
2. М. Х. Миржамолов, Р. Ф. Одилов, Н. Ю. Валиева, Д. Б. Бахтиёров МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ КООРДИНАЦИИ ДВИЖЕНИЙ У СТУДЕНТОВ С НАРУШЕНИЯМИ ЗРЕНИЯ // Scientific progress. 2022. №1. URL:



3. Lola Tilapovna Davlatova JISMONIY TARBIYA VA SPORTDA SOG'LOMLASHTIRISH TEXNOLOGIYALARINING DOLZARBLIGI VA AHAMIYATI // Scientific progress. 2021. №8. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/jismoniy-tarbiya-va-sportda-sog-lomlashtirish-texnologiyalarining-dolzarbligi-va-ahamiyati> (дата обращения: 14.06.2022).

4. ТАЯНЧ-ҲАРАКАТ АППАРАТИ ШИКАСТЛАНГАН ЮҚОРИ МАЛАКАЛИ УЛОҚТИРУВЧИЛАРНИ ЮКЛАМАЛАРИНИ ТАҚСИМЛАШ ВА МАШҒУЛОТ РЕЖАЛАРИНИ ИШЛАБ ЧИҚИШ Собирова Л.Б., Абдиев Ш.А. Фан-Спортга. 2021. № 8. С. 35-38.

5. РИО-ДЕ ЖАНЕЙРО ШАҲРИДА БЎЛИБ ЎТГАН XV ВА ТОКИОДА БЎЛИБ ЎТГАН XVI ПАРАЛИМПИАДА ЎЙИНЛАРИ ТАҲЛИЛИ Миржамолов М.Х. Фан-Спортга. 2021. № 6. С. 11-13.

6. М. Х. Миржамолов ТАЯНЧ – ҲАРАКАТ АЪЗОЛАРИ ШИКАСТЛАНГАН ЎҚУВЧИЛАРДА МУСКУЛ ФАОЛИЯТИНИНГ БУЗИЛИШ ТАРТИБИ УЧУН ФУНКЦИОНАЛ ТИЗИМ ДИНАМИКАСИ // Scientific progress. 2021. №8. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tayanch-arakat-azolari-shikastlangan-uvchilarda-muskul-faoliyatining-buzilish-tartibi-uchun-funksional-tizim-dinamikasi> (дата обращения: 14.06.2022).

7. Sherali Hoshimovich G'Ofurov QISQA MASOFAGA YUGURUVCHI SPORTCHILARNI MASHG'ULOTLARINI RIVOJLANTIRISHNING USULLARI // Scientific progress. 2021. №8. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/qisqa-masofaga-yuguruvchi-sportchilarni-mashg-ulotlarini-rivojlantirishning-usullari> (дата обращения: 14.06.2022).

8. БОЛАЛАР ВА ЎСМИРЛАР СПОРТ МАКТАБЛАРИДА БОШЛАНГИЧ ТАЙЁРЛОВ ГУРУҲИДА ШУҒУЛЛАНУВЧИ ЕНГИЛ АТЛЕТИКАЧИЛАР МАШҒУЛОТЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ Гофуров Ш.Х. Фан-Спортга. 2020. № 5. С. 38-40.

9. ОБОСНОВАНИЕ ЭФФЕКТИВНЫХ СРЕДСТВ ЮНЫХ ДЗЮДОИСТОВ НА ЭТАПЕ НАЧАЛЬНОЙ СПОРТИВНОЙ СПЕЦИАЛИЗАЦИИ Дадабаев О.Ж., Собирова Л.Б. В сборнике: Актуальные проблемы совершенствования системы непрерывного физкультурного образования. Сборник материалов V Международной научно-практической конференции. Грозный, 2021. С. 71-78.

10. Lola Tilapovna Davlatova ADAPTIV SPORT O'YINLARINI (VOLEYBOL) O'QITISH METODIKASIDA HARAKAT USLUBLARI VA QOIDALARI // Scientific progress. 2022. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/adaptiv-sport-o-yinlarini-volleybol-o-qitish-metodikasida-harakat-uslublari-va-qoidalari> (дата обращения: 14.06.2022).

11. Sherali Hoshimovich G'Ofurov, Dilshod Baxtiyor O'G'Li Baxtiyorov, Umid Abdugaforovich Saidov МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI YENGIL АТЛЕТИКА MASHQLARI ORQALI MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH // Scientific progress.



2022. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-yoshdagi-bolalarni-yengil-atletika-mashqlari-orqali-mashg-ulotlarini-tashkil-etish> (дата обращения: 14.06.2022).

12. Миржамолов М. Х., Юнусов С. А., Светличная Н. К. Паралимпия тарихи ва ўйин қоидалари. Ўқув-услубий қўлланма. Тошкент //Т.: Илмий техника ахборот-пресс. – 2019. – С. 13-14.

13. РИО-ДЕ ЖАНЕЙРО ШАҲРИДА БЎЛИБ ЎТГАН XV ВА ТОКИОДА БЎЛИБ ЎТГАН XVI ПАРАЛИМПИА УЙИНЛАРИ ТАҲЛИЛИ Миржамолов М.Х. Фан-Спортга. 2021. № 6. С. 11-13.

14. Лайло Бахромовна Собирова, Шохсанам Бахромовна Собирова АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРИ ПОДГОТОВКЕ СПЕЦИАЛИСТОВ ПО СИНХРОННОМУ ПЛАВАНИЮ // Scientific progress. 2021. №8. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/aktualnye-problemy-pri-podgotovke-spetsialistov-po-sinhronnomu-plavaniyu> (дата обращения: 14.06.2022).

15. ОБОСНОВАНИЕ ЭФФЕКТИВНЫХ СРЕДСТВ ЮНЫХ ДЗЮДОИСТОВ НА ЭТАПЕ НАЧАЛЬНОЙ СПОРТИВНОЙ СПЕЦИАЛИЗАЦИИ Дадабаев О.Ж., Собирова Л.Б. В сборнике: Актуальные проблемы совершенствования системы непрерывного физкультурного образования. Сборник материалов V Международной научно-практической конференции. Грозный, 2021. С. 71-78.



BANOKAT-SHOHRUXIYA – TOSHKENT VOXASINING YIRIK SHAHAR
MARKAZI

Karimov A
O'zMU magistranti

Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumani S.Segizboyev qishloq fuqarolari yig'ini hududida Sirdaryoning o'ng sohilida, Ohangaron (Iloq) daryosining Sirdaryoga qo'shilish joyidagi karvon yo'li yoqasida bir zamonlar gullab-yashnagan Shohruxiya shahri xarobalari saqlanib qolgan. Ushbu shaharga Amir Temur hukmronligi davrida asos solingan. Lekin bu shaharning o'rnida dastlab boshqa shahar mavjud bo'lgan. U ilk o'rta asrlarda Banokat nomi bilan atalgan.

Yodgorlikda dastlab 1876-yil o'kashunoslar D.K.Zatsepin va N.Pandusovlar tomonidan tekshirish ishlari olib borilgan. XIX asrning oxirlarida Turkiston xavaskor arxeologlar to'garagi a'zolari Ye.T.Smirnov va I.A.Belyayevlar qisman qazishma ishlarini amalga oshirishgan. 1923-yili I.A.Kastanye tashrif buyurib, yodgorlik to'g'risida ma'lumotlar yozib qoldirgan.¹

Yodgorlikda dastlabki arxeologik qazishma ishlari O'zR FA Arxeologiya instituti xodimlari tomonidan 1973-1974 yillar olib borilib, 1978-1998 yillarda davom ettirilgan.² 2002-yilda O'zR FA Arxeologiya instituti va Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti "Vatan tarixi" kafedrasi bilan hamkorlikda qazishma ishlari davom ettirilgan. Ilmiy tadqiqot ishlari 2004-2006-yillarda Temuriylar tarixi davlat muzeyi tomonidan tashkil etilgan.³

Taxminlarga ko'ra shaharga dastlab milodiy I asrda qang'arlar tomonidan asos solingan. Dastlab uning mudofaa devorlari bo'lmagan. Atrofidagi daryo, shuningdek jarliklar tabiiy mudofaa vositasi rolini o'tagan. Ilk o'rta asrlarda (V-VI asrlar) burjli mustahkam mudofaa devori bilan o'ralgan. Banokat hududi 22 ga bo'lib, arki taxminan 1 ga ni egallagan. Keyinchalik XII-XIII asr boshlarida kengayib 140 ga ni tashkil etgan.

Shohruxiya o'rta asrlar davri sharq shaharlari uchun xos ark, shahriston va rabot qismlaridan iborat bo'lib, ular Sirdaryoga shimoldan oqib quyiladigan qadimgi tabiiy soylar bilan ajralib turadi.⁴

Sirdaryoning qayrilgan baland joyida o'z davrida kvadrat shaklga ega bo'lgan (tomonlari 600×600 m.) shahriston daryoga nisbatan 25m balandlikda joylashgan. Uning janubi-g'arbiy qismidagi eng baland joyda ark o'rin olgan.

¹ Кухна Шаркия шахри//Тошкент археологияси Т., 2011. Б 34-36.

²Буряков.Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса Т., "Фан" 1982 -С. 43-44, он же. Древний и средневековый город Восточного Мавераннахра Т., "Фан", 1990. -С 78-99.

³Кухна Шаркия шахри//Тошкент археологияси.Т.,2011 Б 34-36

⁴Буряков.Ю.Ф. Канка и Шахрухия. Древние города Чача и Илака на Велоком шелковом пути. Т., 2011. -С.

Shahristonning shimoliy burchagida kirish darvozoning o'rne saqlanib qolgan. Shahristonning baland joyidagi madaniy qatlamning qalindigi 14 metrdan ortiq bo'lgan. Hozirgi paytda ko'hna shaharning dastlabki shakllangan qismini Sirdaryo toshqinining yuvib borishi davomida janubi-g'arbiy burchagida joylashgan arki butunlay nobud bo'lgan. Mavjud arxeologik ma'lumotlarga ko'ra manzilgoh I asrda shaharga aylangan.¹ Ko'hna shahar Buyuk Ipak yo'lida, Sirdaryo kechuvida joylashgan. Xalqaro Savdo yo'li faoliyat yuritib boshlagan davrida daryo kechuvida aholi manzilgohi shakllanishi tabiiy edi.

Ko'hna shaharning ark va shahristin qismlari yaxshi o'rganilmagan. Arxeologiya qazishma ishlari asosan rabot qismida hunarmandlar mashallasida olib borilib, IX – XII, XV asrlarga oid hunarmandchilik ishlab chiqarish inshootlari va temuriylar davri mudofaa devorlari o'rganilgan.

Ko'hna shahar tarixiga oid ma'lumotlar o'rta asrlar davriga oid. O'rta asrlar davri arab ma'lumotlarida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, Banokat Chochdagi ikkinchi yirik shahar Shuturkent maydoniga tenglashtiriladi. Shaharning asosiy bozorlari rabodda joylashgan. Bozor yaqinida jome masjidi bo'lgan. Muqaddasiyning ta'kidlashicha, Banokat mudofaa devorlariga ega bo'lmagan, chunki uning aholisi juda erksevar bo'lib, bo'ysunmas ruhga ega bo'lgan.

Qoraxoniylar davrida Banokat mustaqil viloyatning poytaxti shahri sifatida faoliyat yuritadi. XIII asrlar boshlarida Banokat shahri mo'g'ullar bosqini natijasida tushkunlikka uchraydi. Manbalarda keltirilishicha shahar to'rt kunlik qamaldan so'ng mo'g'ullarning qo'shinari tomonidan vayron qilinadi.²

Sohibqiron Amir Temur buyrug'i bilan 1392-yilda shahar qayta tiklanib, Shohruxiya nomi bilan yuritila boshlaydi. Bu davrda Shohruxiya Amir Temur davlatining muhim strategik ahamiyatga ega bo'lgan yirik shahar markaziga aylanadi. Shahar mamlakatning shimolidagi istehkomi bo'lib, shimoliy hududlarga amalga oshiriladigan harbiy yurishlar mana shu yerdan boshlangan.

¹ Древний и средневековый город Восточного Мавераннахра Т., "Фан", 1990. -С 78-80.

² Буряков Ю.Ф. Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса (историко-археологический очерк Чача-лака). Ташкент, 1975. -С. 30.

Amir Temurning Xitoyga qilgan yurishi davomida vafot etgandan so'ng uning mayiti bir kun davomida Shohruxiyada saqlangan ekan. Mirzo Ulug'bek davrida ham Shohruxiya mamlakatning sharqidagi eng muhim chegara qal'a hisoblangan. 1502-yil Shayboniylar tomonidan egallangan va ularning Toshkent mulki tarkibiga kiritilgan. Shohruxiyada odatda valiahd shahzoda noib bo'lgan, chunonchi Suyunchxo'jaxon vafotidan so'ng taxtga o'g'li, Shohruxiya hokimi Keldi Muhammad o'tirgan.

Shohruxiyaning iqtisodiy, harbiy-ma'muriy mavqei XVII asr oxirigacha baland bo'lgan. Lekin XVIII asr birinchi yarmidagi o'zaro ichki kurushlar va jung'orlar xujumi natijasida tanazzulga uchragan.



Ma'lum muddatli inqirozlar bilan sal kam yigirma asr davomida faoliyat yuritib, voxaning yirik shahar markazlaridan biri bo'lgan Banokat-Shohruxiya nafaqat Toshkent qolaversa, butun Markaziy Osiyo tarixida muhim o'rin tutgan shaharlardan biri bo'lgan.

¹ Буряков Ю.Ф. По древним караваным путям Ташкентского оазиса Т., "Фан", 1978. -С 16.

BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARIDA KASBIY-GRAFIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Bahodirov Bunyod Bahodirovich

Farg'ona davlat universiteti 1-bosqich magistranti

Jahonda globallashuv va integratsiya jarayonlari jadallashib borayotgan hozirgi sharoitda tasviriy san'at o'qituvchisining axborot-kommunikatsiya kompetensiyalarini rivojlantirish orqali kasbiy grafik kompetentligini takomillashtirishga ehtiyoj kuchaymoqda. Shu bois YUNESKO ning "O'qituvchilar AKT kompetentligining tarkibiy tuzilmasi", "Barcha ta'lim uchun malakali o'qituvchilar" strategik loyihalarida belgilangan me'yorlar va xalqaro standartlarga asoslanib, 3D o'lchamdagi raqamli texnologiyalarni qo'llash, AKT bilan samarali ishlash ko'nikmalari va kasbiy grafik kompetentlikni rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon amaliyotida tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy-grafik kompetentligini rivojlantirishda grafik bilimlar, ob'ektlarning funksional va konstruktiv o'ziga xosligini bilishga asoslangan ko'nikma va malakalar (kompetensiyalar)ni samarali qo'llash, grafik kasbiy yo'nalganlik va faoliyat tajribasi, grafik axborot texnologiyalari bo'yicha erkin ijodkorlik muhitini yaratish, muvaffaqiyatli kasbiy-pedagogik faoliyat, uning ahamiyati va muayyan san'at masalalarga munosabat, tasviriy san'at o'qituvchisi yo'l qo'yadigan xatolarning oldini olishga qaratilgan korreksion mashqlar tizimi alohida ahamiyatga ega. Shu jihatdan oliy ta'lim muassasalarida tasviriy san'at yo'nalishida o'qituvchilar tayyorlaydigan davlat talim standartlari, malaka talablari, o'quv dasturlarida konstruktorlik, ishlab chiqarish texnologik va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida kasbiy grafik kompetentlikni rivojlantirishning ilmiy asoslangan tizimini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda tasviriy san'at ta'limi samaradorligini oshirish bo'yicha keng qamrovli ishlar olib borilib, ta'lim mazmunini loyihalash, kasbiy grafik kompetensiyalarni tuzilmalarga ajratish, o'qitishning yangi metodik modellarini yaratish va ularni ta'lim amaliyotida qo'llashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ta'lim mazmunini modernizatsiyalash sharoitida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilaridan kasbiy grafik bilim, ko'nikma va malakalarni egallash va ularni ta'lim jarayonida qo'llash talab etiladi.

Oliy malakali mutaxassislar tayyorlash va rivojlantirish jarayoni qonuniyatlari va tendensiyalari, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash muammolari R.X.Djurayev, A.R.Xodjaboyev, N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, Q.T.Olimov, O'.Q.Tolipov, M.B.Urazova, R.G.Isyanov, N.N.Azixxodjaeva, D.O.Himmataliyev, J.A.Hamidov, O.A.Qo'ysinov, B.A.Nazarova, Sh.N.Muslimov kabilar tomonidan o'rganilgan.

MDH mamlakatlari olimlari L.V.Antropova, I.R.Absalyamova, V.I.Baydenko, I.E.Bryakova, V.P.Bespalko, A.A.Verbitskiy, A.D.Grigorev, I.F.Isaev, E.F.Zeer, L.V.Kolyasnikova, S.N.Mironenko, A.V.Xutorskoy, V.A.Slastyonin va boshqalar kasbiy kompetentlikni shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari bo'yicha izlanishlar olib borgan.

E.P.Vox, G.A.Galenyuk, S.V.Jilich, G.M.Klochkova, T.K.Musalimov, T.P.Petlina, A.V.Petuxova, N.V.Fedotova, A.Abduraxmonov, I.R.Absalyamova, D.F.Ko'chkarova, Sh.K.Murodov, U.A.Nasritdinova, T.Rixsiyoyev, D.C.Saidahmedova, S.S.Saydaliyev, A.K.Xamraqulov, Ch.T.Shokirovalarning ilmiy ishlarida bo'lajak mutaxassislarining aynan grafik tayyorgarligi va grafik-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish muammolari tadqiq etilgan.

Xorijlik olimlar Anjela Stof, Benjamin Blum, Brayan Kol, Drapeau Patti, Jaslin Golberg, Merriembar Jeron pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi, kompetentligi va kasbiy-pedagogik salohiyatini rivojlantirish muammolariga doir tadqiqotlar olib borgan[4, 6].

"Kompetentlilik" psixologiya va pedagogikaga oid adabiyotlarda professional faoliyatning ma'lum turlari bilan bog'liq sifatlarga ega bo'lishni bildiradi. S.I.Ojegovning izohli lug'atida "xabardorlik, bilganlik, biror sohada obro'-e'tibor qozonish"ni anglatadi[6, 234]. Shuningdek, L.Xell va D.Zigler kompetentlilikka "psixosotsiologik sifat bo'lib, kuch va ishonchni bildiruvchi, o'z ishining muvaffaqiyatli va foydali ekanligidan kelib chiqqan tuyg'u bo'lib, insonga uning atrofida bilganlari bilan hamkorlikda samarali harakat qilishi mumkinligini anglatadi",[8, 209] deya ta'rif berganlar.

N.A.Muslimov va boshqalar kompetentlilikni quyidagicha ta'rifladilar: "...faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish" [3, 93].

Yu.E.Rahimovning ta'kidlashicha, "Kasbiy kompetentlilik – bu integrativ tavsif bo'lib, tizimlashtirilgan bilim, ko'nikma, malaka hamda shaxsga oid fazilatlarni ifodalaydi, ular bozor sharoitida raqobatbardosh bo'lish imkonini beradi" [7, 36].

"Bitiruvchini tayyorlash modeli nafaqat bitiruvchining bilim, ko'nikma va malakalar tizimi bilan belgilanuvchi kasbiy kvalifikatsiyasini, shuningdek, zamonaviy xalqaro amaliyotda tayanch kompetensiyalar deb tavsiflanuvchi shaxsga oid sifatlar va tizimli shakllantirilgan universal mahorat va qobiliyatlarni ham o'z ichiga oladi"[1, 63].

Demak, "kasbiy kompetentlilik– mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi" dir[9, 4].

Sohaning yetakchi tadqiqotchilaridan biri A.S.Kosogovning fikricha, pedagogik nuqtai nazardan "o'qituvchining kasbiy kompetentligi – bu, tajriba, nazariy bilimlar, amaliy malakalar va muhim ahamiyatli shaxsiy sifatlar integratsiyasi asosida shakllangan murakkab individual-psixologik tuzilma bo'lib, o'qituvchining pedagogik faoliyatni to'laqonli bajarishga tayyorligini anglatadi" [2, 24].

Kasbiy kompetentlilikning ushbu ta'rifi uning tizimli tuzilmasidan darak beradi. Bu tuzilma tajribada amalga oshirilgan, shaxsga oid tegishli sifatlar asosida shakllanadigan kompetensiyalardan tarkib topadi.

Taniqli tadqiqotchi K.V.Shaposhnikov kasbiy kompetentlilik deganda, mutaxassisning o'z kasbiy faoliyatini amalga oshirayotganda muhim va samarali qarorlarni qabul qilishga tayyorligi va layoqatini tushunadi. U shuningdek, "kasbiy kompetentlilik integrallashtirilgan bilim, mahorat va tajribalarning majmui sifatida tavsiflanadi, shu bilan birga, insonga o'rab turgan olam bilan hamkorlikda kasbiy faoliyatni samarali

loyihalashtirish va amalga oshirish imkoniyatini beruvchi sub'ektiv, kasbiy kompetentlikning ko'rsatkichlari asosida esa mutaxassisning dolzarb va potensial tavsifi yotishi mumkin" deb ta'kidlaydi [9, 26].

O'z navbatida kasbiy-pedagogik kompetentlik o'qituvchining o'ziga xos kasbiy-shaxsiy tavsifi hisoblanib, "uning kasbiy faoliyati sifatini, doimiy o'zgarib turuvchi kasbiy vaziyatlarda mustaqil, adekvat, mas'uliyat bilan o'ziga xos harakat qilish qobiliyatini, o'z-o'ziga baho berish va o'z kamoloti uchun tayyorligini ifodalaydi. Kasbiy-pedagogik kompetentlik pedagogning kasbiy faolligida namoyon bo'lib, uni pedagogik faoliyatning sub'ekti sifatida tavsiflash imkonini beradi"[8, 12].

Kasbiy grafik kompetentlik – bo'lajak mutaxassisning tegishli ta'lim yo'nalishi bo'yicha nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar, ta'lim jarayonida orttirilgan shaxsiy hamda kasbiy sifatlarga egaligi va kasbiy faoliyatda ularni to'la namoyon eta olishga tayyorligi[4, 11].

Hozirgi sharoitda tasviriy san'at yo'nalishi bitiruvchilaridan quyidagi sifatlar talab qilinadi: tasviriy san'at va pedagogik bilimlarni tahlil qilish, yangi nostandart g'oyalarni ilgari surish, zamonaviy ishlab chiqarish va maktab talablariga javob beradigan shart-sharoitlar, metod va vositalar, innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida kasbiy-grafik kompetentlikni rivojlantirish, ularni innovatsion faoliyatga yo'naltirish, o'quv jarayoniga innovatsion ta'lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish, ilg'or tajribalarni o'zlashtirish va maqsadli yo'naltirish ta'lim tizimini modernizatsiyalashdagi dolzarb vazifalar sifatida qaraladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Азизходжаева Н.Н. Формирование профессиональных компетенций будущих специалистов. Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. Вып. 12. Ч.1. СПб, 2014. – 63 с.
2. Косогова А.С. Личностный и карьерный рост студента в контексте воспитания // Высшее образование в России. – 2005.–№12.–С. 24.
3. Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари – Тошкент, 2015. – 93 б.
4. Муслимов Ш.Н. Бўлажак технологик таълим ўқитувчиларининг касбий график компетентлигини ривожлантириш методикасини такомиллаштириш: п.ф.б.ф.д. (PhD) диссер.автореф. –Т.: 2020. – Б. 11.
5. Мусурмонова О. Юқори синф ўқувчилари маънавий маданиятини ривожлантиришнинг педагогик асослари: Пед. фан. док... дис. – Тошкент: 1993. – 4 б.
6. Ожегов С.И. Толковый словарь русского языка: 100 000 слов и фразеологических выражений // Российская академия наук. Институт русского языка им. В.В. Виноградова. – 4-е изд., дополненное. – М.: А ТЕМП, 2007. – С. 234



7. Рахимова Ю.Э. Формирование профессиональной компетентности учащихся медицинского колледжа: Дисс. ... канд. пед. наук. – Ташкент, 2012. – 36 с.
8. Чанышева Г.Г. Формирование и развитие коммуникативных способностей будущих юристов: Дис.... докт. пед. наук : Казань, 2005. – С. 12.
9. Шапошников К.В. Контекстный подход в процессе формирования профессиональной компетентности будущих лингвистов-переводчиков: Автореф. дисс... канд.пед.наук – Йошкар-Ола, 2006 – С. 26.
10. Begmurzayevich, D. B. (2022). BO 'LAJAK BOSHLANG 'ICH SINF O 'QITUVCHILARIDA REFLEKSIV MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(6), 154-160.
11. <https://cyberleninka.ru/article/n/bo-lajak-chizmachilik-o-qituvchilarning-grafik-kompetentligini-muhandislik-kompyuter-grafikasi-asosida-shakllantirish-metodikasi/viewer>
12. Siddikov, B., & Djalalov, B. (2020, December). MODERNIZATION OF EDUCATION-THE FUTURE INNOVATIVE COMPETENCE OF TEACHERS AS A MAIN FACTOR OF FORMATION. In Конференции.
13. Siddiqov, B. S., & Mexmonaliyev, S. N. (2022). PEDAGOGIK AMALIYOTNING BO 'LAJAK O 'QITUVCHINING KASBIY TAYYORGARLIK FAOLIYATIDA TUTGAN O 'RNI. Academic research in educational sciences, 3(1), 10-16.
14. Tuychieva, I. (2015). The concept of pedagogical innovation in modern education. The Advanced Science Journal, 87-90.
15. Tuychiyeva, I. I. (2017). Question of Using Linguo-cultural Material for Learning Native Tongue in Professional Colleges. Eastern European Scientific Journal, (4), 84-88.
16. Urinova, N., & Abdullaeva, N. (2020). Opportunities for formulating research skills for higher education students. Молодой ученый, (11), 193-195.
17. Ахмедов, Б. А. (2020). Сиддиков Бахтиёр Саидкулович, Джалалов Бахромжон Бегмурзаевич МОДЕРНИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ-ОСНОВНОЙ ФАКТОР В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ. Academy, 9, 60.
18. Ахмедов, Б. А., Сиддиков, Б. С., & Джалалов, Б. Б. (2020). МОДЕРНИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ-ОСНОВНОЙ ФАКТОР В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ. Academy, (9 (60)), 20-22.
19. Джалалов Б.Б. (2016). МЕСТО И РОЛЬ ВОЗДЕЙСТВИЯ ВОСПИТАНИЯ В ПОВЫШЕНИИ ОБЩЕСТВЕННОЙ АКТИВНОСТИ УЧАЩИХСЯ. Ученый XXI века, (5-1 (18)), 38-41.
20. Джалалов, Б. Б. (2018). РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА. In INTERNATIONAL



SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION (pp. 53-55).

21. Джалалов, Б. Б. (2019). ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ. In EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY (pp. 43-44).

22. Джалалов, Б. Б. (2022). ВО ‘LAJAK O ‘QITUVCHILARNING INNOVATSION KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA SMART-TA’LIMNING IMKONIYATLARI. УЧИТЕЛЬ, 3(4).

23. Ибрагимова, Ш. (2022). ВО ‘LAJAK BOSHLANG ‘ICH SINFI O ‘QITUVCHILARIDA METODIK KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH-PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. УЧИТЕЛЬ, 3(4).

24. Мирзахамдамовна, Қ. Б. (2022). БЎЛАЖАК ТАСВИРИЙ САЊЪАТ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИ МАКТАБ ЎҚУВЧИЛАРИДА БАДИИЙ ТАФАККУРНИ ШАКЛЛАНТИРИШГА ТАЙЁРЛАШ ШАКЛ ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(5), 185-198.



DEVELOPING THE SOCIAL COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS

Mehmonaliev Shodibek Navfal's son

Master of Fergana State University

Yuldasheva Dildorakhon Jamoldinovna

District of Uzbekistan School 19 Mother tongue and literature teacher

Abstract: *This article discusses the main functions of social competence, such as adaptation, social orientation, the combination of personal and social experiences, the philosophical, socio-political, religious, national-spiritual, pedagogical-psychological factors of developing the social competence of future teachers.*

Keywords: *social competence, social orientation, social activity, talent, ability, worldview.*

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING IJTIMOY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Mehmonaliev Shodibek Navfal o'g'li

Farg'ona davlat universiteti magistri

Yuldasheva Dildoraxon Jamoldinovna

O'zbekiston tumani 19-maktab Ona tili va adabiyot o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ijtimoiy kompetentsiyaning moslashuv, ijtimoiy yo'nalish, shaxsiy va ijtimoiy tajribalarning uyg'unligi, ijtimoiy kompetentsiyani rivojlantirishning falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, diniy, milliy-ma'naviy, pedagogik-psixologik omillari kabi asosiy funksiyalari muhokama qilinadi. kelajak o'qituvchilari.*

Kalit so'zlar: *ijtimoiy kompetentsiya, ijtimoiy yo'nalish, ijtimoiy faollik, iste'dod, qobiliyat, dunyoqarash.*

РАЗВИТИЕ СОЦИАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Мехмоналиев Шодибек Навфал сын

магистр Ферганского государственного университета

Юлдашева Дилдорахон Джамолдиновна

район Узбекистана Школа 19 Учитель родного языка и литературы

Аннотация: *В данной статье рассматриваются основные функции социальной компетентности, такие как адаптация, социальная направленность, сочетание личностного и социального опыта, философские, общественно-политические, религиозные, национально-духовные, педагогико-психологические факторы развития социальной компетентности личности. будущие учителя.*

Ключевые слова: *социальная компетентность, социальная направленность, социальная активность, талант, способность, мировоззрение.*

Introduction: Being able to withstand strong competition, which is a priority in the labor market in the context of market relations, requires every specialist to have professional competence, to constantly increase it.

Main part: Among the main functions of social competence are concepts such as adaptation, social orientation, the combination of personal and social experiences. The level of social competence of an individual plays an important role in the process of interaction and organization of activities.

At the same time, according to the results of research conducted by psychologists, the formation of the level of social competence in people plays a special role in the process of adaptation of citizens to the new social conditions of globalization. Ecological, political, ideological, social changes not only determine the development of social thinking, but also affect people's self-awareness, life values, personal problems.

This puts before the science of psychology the task of creating programs aimed at increasing the level of a person's competence in solving problems related to socialization, social adaptation. In our view, this task is especially relevant to the work of teachers, who are responsible not only for themselves, but also for the formation of students as a harmoniously developed person.

Social competence plays an important role among the various forms of psychological competence that modern psychology studies. It also reflects the creative features of man as a subject of social interaction, cooperation. Mechanisms of formation of competent social behavior of the subject, tendencies of manifestation, motivation, interest in the content are characterized, first of all, by the influence of the nature of the "human-society" interaction on social development[6].

Philosophical, socio-political, religious, national-spiritual, pedagogical-psychological factors of development of social competence of future teachers can be specified. In particular, the Action Strategy for the further development of Uzbekistan in 2017-2021 covers aspects of the development of social competence[1].

Psychological factors are analyzed in relation to the intellectual, emotional and motivational spheres and include motive, purpose, emotions, personality traits. Pedagogical factors include national education, educational paradigms, communication, information culture, preparation for socialization.

The development of social competence of future teachers should be based on the following factors:

- high level of self-awareness;
- citizenship, self-esteem, self-esteem, discipline, integrity;
- attention to spiritual values;
- a sense of independence and responsibility in decision-making;
- free choice of the content of life activities;

- kindness, goodness; altruism, patience, endurance, humility;
- striving for peace, good neighborliness, understanding of national and universal values;
- the need for knowledge and deep understanding of self-awareness, beauty, reflection, communication and the meaning of life;
- autonomy of the inner world, integrity; advanced skills;
- the need for activity-changing scientific knowledge, skills, abilities, intellect, institution, creative life;
- knowledge of the basics of economics;
- diligence, thrift;
- learning foreign languages;
- knowledge of national and religious traditions;
- healthy lifestyle;
- physical recovery;
- aesthetic taste, good deeds;
- cleanliness, beautification of the environment and ensuring the well-being of the family; erudition, competence;
- Entrepreneurship, competitiveness, management skills;
- Entrepreneurship;
- ability to think creatively, know the history, culture of different peoples, etc[3].

Therefore, in the development of a person's social competence, his individuality is manifested. Social competence in students of higher education institutions is developed through their socio-political, labor, cognitive processes, daily lifestyle, a certain amount of knowledge and the acquisition of moral norms in society.

The social competence of future teachers is reflected in the ability to set goals, work with a high level of energy, courage, enthusiasm and work to achieve them. In-depth knowledge, sufficient qualifications, requires a free place in the life of society and work with high results.

The development of social competence is the development of a future specialist who can meet many needs with skill and entrepreneurship[8].

This is closely related to the fight against harmful and alien ideas, those who harm the environment, the prevention of social, mental, economic conditions that negatively affect members of society, fostering the qualities of stability and peace.

To develop an integral part of the way of life based on the development of social competence, the development of people useful to the state and society, their involvement in maintaining peace, focusing their activities on the interests of the people, meaningful leisure, building a strong, just, legal and democratic society. One of the main tasks of higher education institutions is to carry out the tasks of educating in the spirit of[4].

The development of social competence of future teachers, in turn, required the identification of criteria that guarantee the effectiveness of this process. These criteria are: the degree of formation of ideological, spiritual perceptions that characterize the level of awareness of social competence; the degree of acquisition of practical professional skills as

a necessary component of social competence; level of development of social competence motivation; independence and initiative, ingenuity, the level of development of entrepreneurship, etc[9].

Kindness, responsiveness to others as indicators of the level of development of social competence in future teachers; initiative in public affairs; competence in social tasks; caring for family members; the existence of an understanding and aspiration for independence; ability to plan future activities and act according to plan; demonstration of perseverance in the implementation of the established; it is possible to determine the ability to self-monitor, analyze and evaluate their own work[5].

Responsibility is one of the criteria for the development of social competence, in which the student develops a sense of responsibility, the ability to fully understand the benefits of the product for himself and others. A responsible student can always plan his work carefully, anticipate its causes and consequences, and be able to mobilize all his strength and potential to achieve the desired result[7].

In the development of social competence is understood a system of views, imagination, feelings and beliefs formed by approaching the environment, establishing social relations, expressing their attitude to socio-psychological phenomena, understanding the content of national values, gaining in-depth knowledge, getting acquainted with the essence of ideas and theories.

Kalit so`zlar: ajdodlarimiz, avlodlarimiz, ta`lim-tarbiya, bilim, intilish, qiziqish, qiziqtirish, o`quvchi, tarbiya, o`qituvchi, kelajagimiz, mustahkamlash, poydevor.

Yomon yoki bilimsiz o`uvchi bo`lmaydi. O`sha o`quvchini tarbiyalamagan yoki bilim bermagan, qiziqishini uyg`ota olmagan o`qituvchi bo`lishi mumkin. Bugungacha buyuk ajdodlarimiz Al-Xorazmiy, AL-Bruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug`bek, Alisher Navoiy ajdodlarimiz deb maqtanishni odat qilganmiz. Xo`sh, ushbu ajdodlarimizga munosib avlod tarbiyalay olyapmizmi? Yoki o`quvchilarimiz buyuk ajdodlarimizga munosib avlodmi?

Hozirgi kungacha bir paytlar jahon-ahlini lol qoldirgan buyuk ajdodlarimiz kabi avlodni tarbiyalashga qodirmizmi? Yoki kelajakda o`quvchilarimiz orasida yuqori intellektli o`quvchilarni yetishtirishda nima halaqit bermoqda?

Ushbu maqolamda bu boradagi kamchiliklarimiz va kelajakda qilinishi lozim bo`lgan masalalarga o`z fikr-mulohazamni yoritmoqchiman. Mening nazarimda birinchi navbatda tarbiyalanuvchilar hamda o`quvchilarda, talabalarda mendan buyuk chiqmasa kerak degan fikrini faqat sendan va albatta sendan chiqadi- deb o`sb kelayotgan yosh avlod ongiga singdirishimiz kerak.

Ta`lim-tarbiya mustahkam poydevor bo`lmog`i lozim. Endi savol tug`iladi bunday poydevorni qanday quramiz? Birinchidan, ta`lim-tarbiyaning negizi tub negizni maktabgacha ya`lim muassasalaridan boshlash kerak. Sababi 5yoshgacha bola umri davomida o`rganadigan narsalarni 70% ni o`zlashtiradi. "Bilim poydevorini qanchalik mustahkam qo`ysak, bino yillar, asrlar davomidasayqallanib olamga ko`rk berib turadi. Buning uchun maktabgacha ta`lim muassasalarni jahon andozalariga mos tarzda ta`mirlashimiz va milliy ruhda tayyorlangan ta`lim-tarbiyaga oid ko`rgazma, video, audio ta`limiy muloqotlardan foydalangan holda tarbiya berish lozim.

Ikkinchidan esa umumiy o`rta ta`lim va akademik litsey o`quvchilari bilim, ko`nikma va malakasini rivolantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqish lozim.

Insoniyat rivoji, xalq, millat ravnaqi, ma`naviy takomili va yuksalishi ilm-u ma`rifatning yuqori cho`qqiga yetganligidan dalolatdir. Bu esa, o`sha millat, xalq, davlat va jamiyat tamaddunining yuksak darajasini belgilovchi muhim mezondir. Inchunin, yuksak tamaddunga ega millatning ildizi ma`rifat chashmasiga to`yingan, tanasi bilim, mevasi esa yetuklik, barkamollik, komillikdir. O`zbek xalqi ana shunday ma`rifat chashmasidan



oziqlangan, ildizi baquvvat, tarixda bir nechta renessans davrini boshlab bergan va dunyo tamadduniga ko'plab daholarni yetishtirgan millatdir.

Buyuklar qoldirgan chashma shu qadar pok va takrorlanmaski, undan ichganing sari mudom bu chashmaga intilaverasan. Intilganing sari o'zingda komillik, yetuklik, ezgulik kasb etib boraverasan. Darhaqiqat, bugungi avlod ham ajdodlar qoldirgan ana shu ma'rifat chashmasiga intilib yashashi va ular merosini chuqur o'rgangan holda tadqiq etishi va bu asosida, jamiyat ma'naviy yuksalishiga xizmat qilishi lozim. Buyuk faqih Burhonuddin Marg'inoniyning "Hidoya" asari qimmatli manbalardan bo'lib, necha asrdan buyon fiqh ilmiga oid izchil va mukammal qo'llanma sifatida o'qib kelingan. Mazkur asar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan holda, islom huquqiga oid qimmatli manba sifatida soha mutaxassisleri tomonidan huquq va majburiyatlarni belgilashda muayyan darajada asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Ta'kidlash lozimki, "Hidoya" asari jami 6 jilddan iborat bo'lib, 2 jildi to'liq va mukammal holda joriy alifboda nashr etildi. Olimlar tomonidan asarning qolgan 4 jildini nashr etish ustida izlanishlar olib borilmoqda. Bu albatta, bizga boy merosimizdan bahramand bo'lish, ma'naviy kamolotimiz yo'lida istifoda etish imkonini beradi.

Yoki arab tili grammatikasini chuqur o'rganib, arablarga o'z tilidan saboq bergan va "Xorazm faxri", "Arab va g'ayri arablar ustoz" degan yuksak nomlarga sazovor bo'lgan Mahmud Zamaxshariy faoliyati ham o'ziga xos va arab tilshunosligini o'rganishda alohida o'ringa ega. Zamaxshariy tafsir, hadis, adabiyot, fiqh ilmlari bo'yicha ham bebaho asarlar yaratgan yirik olimdir. Ayniqsa, mashhur "al Kashshof" asari dunyoning islom oliy dargohlarida Qur'on tafsiriga oid muhim darslik sifatida o'qitib kelinadi.

Binobarin, olimning arab tilshunosligi va grammatikasi hamda Qur'onni o'rganishga doir qarashlari o'z ma'rifiy ahamiyatini yo'qotmagan holda, bugungi kunda ko'plab yangi-yangi tadqiqotlarni yuzaga keltirmoqda.

Shuningdek, insonni komillik sari intilishiga va jamiyatda halol, pok, kamtarin bo'lishga, hamisha ezgu ishlar qilishga chorlab kelgan tasavvuf ta'limoti ham ezgu g'oyalari bilan jamiyat ma'naviy rivojiga beqiyos hissa qo'shib kelgan. Bugun yetti pir sifatida e'tirof etilayotgan avliyo zotlar amaliy faoliyatida ilm-u irfon nurini ko'ramiz.

Chunonchi, Xojagon tariqati asoschisi, orif zot Abduxoliq G'ijduvoni irfoniy qarashlari orqali yuksak insoniy sifatlarni, umuminsoniy g'oyalarni o'z asar va o'gitlarida ilgari surgan. Xususan, alloma "Vasiyatnoma" risolasida, "Ey, farzand! Men senga barcha holatlarda ilm, adab va taqvoda bo'lishingni vasiyat qilaman! O'tgan ulamolarning izidan yurishing lozim. Ahli sunnat va jamoatning mulozimi bo'l!", deya komillik va yetuklikka chaqiradi.

Xalqni ilm-ma'rifatli qilish, san'at va madaniyatni rivojlantirish, nashr ishlarini kengaytirish, turli davlatlar bilan ilmiy-ma'rifiy aloqalarni yanada kuchaytirish, eng muhimi, ta'lim-tarbiya masalalariga alohida e'tibor berib, o'z asarlari, she'rlari orqali ma'rifatga chorlagan buyuk ma'rifatparvarlarimizning amaliy faoliyati va tinimsiz sa'y-harakatlari beqiyosdir.

Umuman olganda, har bir davrda bo'lgani kabi bugungi kunda ham allomalar ilmiy merosini tadqiq etish, sodda va tushunarli qilib xalqqa yetkazish, ayniqsa, yoshlar ong-u shuuriga ma'rifiy jihatlarni singdirish olimlar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

Bu borada, yunon olimi Aristotelning "Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi" degan so'zlari negizida ham ulkan ma'no mujassam. Shubhasiz, yoshlar ertangi kun egalari, ular qanchalik barkamol bo'lsa, jamiyat shunchalik taraqqiy etadi.

Bugungi avlod ham ajdodlarga munosib voris bo'lgan holda turli fan sohalarini bilishlari, ilm sirlarini chuqur egallashlari, ma'rifatli, intellektual salohiyatli, keng dunyoqarash va mustaqil fikrga ega shaxs bo'lishlarini globallashuv jarayonlari taqozo etadi.

Zero, allomalar merosi bebaho ma'naviy boylik, bilim duriga limmo-lim xazinadirki, bu ilm-u irfon injulariga to'la xazina bizni hamisha tarbiyalaydi va ulug' ajdodlarga munosib avlod sifatida buyuk maqsadlar, ulkan ishlarni amalga oshirishga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Umumiy pedagogika O.Koldibekovanning umumiy tahriri ostida. – Toshkent:2013.
2. Mavlanova R.A va boshqalar Pedagogika-T.: O`qituvchi 2001
3. Tursunov.I.Nishonaliyev U. Pedagogika ko`rki. T O`qituvchi 1997



BUGUNGI KUNDA ZOOLOGIYA FANINING OLDIGA QO'YGAN MAQSAD VAZIFALARI

Aliboyeva Nigora Abdullayevna
Ichki ishlar vazirligining ixtisoslashtirilgan
maktab internati biologiya o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zoologiya – hayvonlarni o'rganadigan fanligi haqida, Zoologiya – eng qadimiy fanligi haqida, Hayvonlar tabiatda va inson faoliyatida katta ahamiyatga ega ekanligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: zoologiya, hayvon, organizm, fan, tabiat, inson, faoliyat, tuzilish, maqsad, vazifa, ko'payish, urug'lanish.

Zoologiya – hayvonlarni o'rganadigan fan. Zoologiya (zoon – hayvon, logos – fan) – hayvonlarning tuzilishi, hayot kechirishi, ko'payishi va rivojlanishini o'rganadigan fan. Hayvonlarning xilma-xilligi va tarqalishi, tabiatda va inson hayotidagi ahamiyati, kelib chiqishini o'rganish zoologiyaning vazifasiga kiradi. Zoologiya bir qancha fanlardan tarkib topgan. Ulardan bir guruhi hayvonlarning tuzilishi, ko'payishi, rivojlanishi, yer yuzida tarqalishini, boshqalari alohida guruhlarini o'rganadi. Zoologiya – eng qadimiy fan. Zoologiyaga oid eng qadimgi asarlarni eramizdan 4 asr oldin buyuk yunon olimi Arastu yozgan. Uning asarlarida 500 ga yaqin hayvon turiga tavsif berilgan. 16–17-asrlarda yashagan golland olimi Anton Levenguk mikroskopda ko'rinadigan hayvonlarni kashf etgan. Shved olimi Karl Linney 18-asrda hayvonlarni tur, urug', turkum va sinflarga ajratib o'rganishni taklif etgan. Ingliz olimi Ch. Darvin 19-asr o'rtalarida hayvonlarni o'rganish orqali o'zining olamshumul evolyutsion ta'limotini yaratdi. Zoologiya tibbiyot, chorvachilik va xalq xo'jaligining boshqa sohalari bilan bog'liq. Zoologiya fanining rivojlanishiga o'zbekistonlik olimlar ham katta hissa qo'shishgan. D. N. Kashkarov birinchilar qatorida hayvonlar ekologiyasini o'rganishni boshlab berdi. L. M. Isayev va P. F. Borovskiy olib borgan tadqiqotlar O'rta Osiyoda rishta, bezgak parazit va leyshmaniya kabi xavfli parazit hayvonlarning tugatilishi uchun asos bo'ldi. T. Z. Zohidov, O. P. Bogdanov va boshqa olimlar umurtqali hayvonlarni; A. M. Muhammadiyev, V. V. Yaxontov, A. T. To'laganov, J. A. Azimov, M. A. Sultonov, S. N. Alimuhamedov umurtqasiz hayvonlarni o'rganishgan. Hayvonlarning xilma-xilligi va yashash muhiti. Yer yuzida hayvonlarning 2 mln ga yaqin turi tarqalgan. Quruqlik, havo, tuproq, suv havzalari hayvonlar uchun asosiy yashash muhiti hisoblanadi. Parazit hayvonlar uchun esa odam, hayvon va o'simlik organizmi yashash muhiti bo'ladi. Hayvonlarning tuzilishi va hayot kechirishi xususiyatlari muayyan muhitga moslashgan. Masalan, suv hayvonlarining gavdasi suyri shaklda, oyoqlari eshkakka aylangan. Quruqlikda yashovchi hayvonlarning tanasi yapaloq, oyoqlari yaxshi rivojlangan bo'ladi. Yashash muhiti tarkibiy qismlarini tashkil etuvchi namlik, harorat, yorug'lik va boshqalar ekologik omillar deyiladi. Hayvonlarning gavda o'lchami har xil bo'ladi (1-rasm). Ular qatorida og'irligi 150 tonnaga yetadigan gigant kitlardan tortib faqat mikroskopda



ko'rinadigan, uzunligi millimetrning o'ndan bir, hatto yuzdan bir ulushiga teng keladigan turlari ham bor. Hayvonlarning ahamiyati. Hayvonlar tabiatda va inson faoliyatida katta ahamiyatga ega. Ko'pchilik hayvonlar yashil o'simliklar bilan oziqlanadi. Ular o'txo'r hayvonlar deyiladi. Boshqa hayvonlarni yeydigan hayvonlar yirtqich; odam, boshqa hayvon va o'simlik to'qimalarida yashaydigan hayvonlar esa parazit hisoblanadi. O'txo'r hayvonlar o'simliklar va ularning qoldiqlarini maydalab, chirishini tezlashtiradi. Ular faoliyati tufayli o'simlik uchun zarur bo'lgan mineral moddalar to'planadi; tuproq unumdorligi oshadi. Hayvonlar orasida hayvonlar murdasi, organik qoldiqlar va mikroorganizmlarni suvdan filtrlab oziqlanadigan turlari ko'p uchraydi. Bunday hayvonlar tabiiy sanitarlar deyiladi. Ular yer yuzini va suv havzalarini ifloslanishdan saqlaydi. Uy hayvonlari faqat go'sht va sut beribgina qolmasdan, sanoat uchun mo'yna, ipak va boshqa mahsulotlar ham beradi. Arilar, kapalaklar o'simliklarni changlatib, ular hosildorligini oshirishga yordam beradi. Hasharotxo'r va yirtqich hayvonlar, qushlar, ko'rshapalaklar, baqalar o'rmon va qishloq xo'jalik zararkunandalarini qirib, foyda keltiradi. Hayvonlar orasida odamlar, chorva mollari va o'simliklarga ziyon keltiradigan turlari ham ko'p uchraydi. Qon so'ruvchi hasharotlar va kanalar parazitlik qilish bilan birga, o'lat, terlama, bezgak kasalliklarini tarqatadi. Atoqli vatandoshimiz Abu Ali ibn Sino o'zining «Tib qonunlari» asarida kasallik paydo qiladigan hayvonlardan saqlanish haqida yozib qoldirgan.

Hayvonlarni muhofaza qilish. Odamlar qadimdan yovvoyi hayvonlarni ovlashgan; ularning go'shti, terisi va boshqa mahsulotlaridan foydalanishgan; hayvonlarni qo'lga o'rgatishgan; ulardan uy qo'riqchisi va ishchi kuchi sifatida foydalanishgan. Keyinchalik aholi sonining ortib borishi, ov qurollarining tobora takomillashuvi, hayvonlar uchun zarur bo'lgan tabiiy sharoitning buzilishi ta'sirida Yevropa turi (qoramollar nasl boshi), tarpan (otlar nasl boshi), Stellerov sigiri (dengiz hayvoni) yo'q bo'lib ketdi; Prjevalskiy oti, zubr, bizon, jayron, xongul kabi hayvonlar uchun qirilib ketish xavfi tug'ildi. Bu hol hayvonlar va ular yashaydigan muhitni muhofaza qilishni talab etadi. Respublikamiz hududida noyob va soni kamayib borayotgan hayvonlarni asrab qolish va ko'paytirish maqsadida Badayto'qay, Qizilqum, Zarafshon, Surxon va Hisor davlat qo'riqxonalari, Chotqol biosfera qo'riqxonasi, bir qancha milliy bog'lar va buyurtma qo'riqxonalar tashkil etilgan. O'zbekiston Respublikasi «Qizil kitobi»ning so'nggi 2016-yilgi nashriga noyob va soni kamayib borayotgan hayvonlarning 205 turi kiritilgan.

Zoologiya fanining asosiy o'rganadigan obyekt va predmeti – Hayvonot dunyosidir. Shuning uchun zoologiya fanining maqsadi va vazifalari – hayvonot dunyosini planetamizda tutgan o'rni, biosfera va insoniyat hayotidagi ahamiyatini o'rganishdan iboratdir.

Eramizdan bir yarim mlyard yilcha muqaddam eng sodda shaklda paydo bo'lgan va uzoq davrlar mobaynida murakkab takomillanish jarayonlari asosida rivojlanib, hozirgi davrda yer planetasining deyarli hamma qismini egallagan hayvonlar dunyosi nihoyatda xilma-xildir.

Hozirgi zamon biologiya faniga asos solgan CH.Darvin evolyusion ta'limotining vujudga kelishi (1859 y.) ilmiy materialistik zoologiya fanining rivojlanishiga sabab bo'ldi. Chunki bu ta'limot "hayvon va o'simliklarning turlarini bir-birlari bilan bog'lanmagan holda



yakka-yakka xudo tomonidan yaratilganligi haqidagi dunyo-qarashlarga qattiq zarba berdi va biologiyani to'liq ilmiy asosga qo'ydi".XIX asrning ikkinchi yarmi ilmiy materialistik zoologiyaning rivojlanish davri bo'ldi.

Hayvonlarning tuzilishi va individ (embrion) rivojlanishini Morfologiya fani tekshiradi.Morfologiya o'z navbatida anatomiya, gistologiya, sitologiya, embriologiya, qiyosiy anatomiya, qiyosiy embriologiya, molekulyar biologiya kabi qator fanlarga ajraladi.

Sistematika – hayvonot dunyosining sistematik takson guruhlari va ularning o'zaro qarindoshlik munosabatlarini o'rganadi.

Filogeniya – har bir guruh vakillari o'rtasidagi o'zaro o'xshashliklarni, embrion taraqqiyoti hamda ularning qadimgi (paleontologik) avlodlarning tuzilish hususiyatlari asosida turlarning kelib chiqishi va tarixiy rivojlanishi masalasini o'rganadi.

Paleozoologiya - hayvonlarning toshga aylangan qadimgi qazilma avlodlari va ular bilan hozirgi guruhlar o'rtasidagi qarindoshlik (filogenetik) munosabatlarni o'rganish bilan shug'ullanadi.

Ekologiya - hayvon organizmlarini, ular yashab turgan organik muhit (o'simlik va boshqa hayvon turlari) va noorganik muhit o'rtasidagi munosabatlar, moslanishini o'rganadi.

Odamzod hayotining dastlabki rivojlanishi, hayvonot dunyosi bilan mustahkam bog'langan holda borgan. Turli arxeologik qazilmalar odamzodning rivojlanishi va hayotida turli xil hayvonlar katta o'rin tutganligidan dalolat beradi. Odamzod ibtidoiy rivojlanish davrlarida turli xil umurtqasizlar, baliqlar va sut emizuvchi hayvonlarni ovlab hayot kechirgan bo'lsa, keyinchalik ba'zi sut emizuvchi hayvonlarni o'ziga o'rgatib, xonakilashtira borgan.

F. Engelsning ko'rsatishicha mazkur hodisa, ya'ni hayvonot mahsuloti (go'sht, hayvon oqsili)dan foydalanish insonning shakllanishida ahamiyatga ega bo'lgan. Shuning uchun ham qadimgi davr odamlarida bir qancha hayvonlarning tuzilishi, hayoti hatto ularning o'zaro munosabatlari va xulq-atvori to'g'risidagi ma'lumotlar to'plana borganligi aniqlangan.

Zoologiya qisqacha ifoda etganda, hayvonlar to'g'risidagi fandır, aslida esa u hayvonlar dunyosining xilma-xilligi, tuzilishi, hayoti, sistematik guruhlari o'zaro qarindoshlik munosabatlari va kelib chiqishi (filogeniyasi) hamda geografik tarqalishi to'g'risidagi fandır. (grekcha, Zoo - "hayvon", Logos - "fan").

Eramizdan bir mlyard yilcha muqaddam eng sodda shaklda paydo bo'lgan va uzoq davrlar mobaynida murakkab takomillanish jarayonlari asosida rivojlanib, hozirgi davrda yer planetasining deyarli hamma qismini egallagan hayvonlar dunyosi nihoyatda xilma-xildir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

- 1.Amirqulov N. Umumiy ekologiya. Toshkent, 2002 y.
- 2.Baratov P. Tabiatni muhofaza qilish. Toshkent, 1991 y.



3.Mavlonov O. Zoologiya. 7 sinf darslik. Toshkent, 2005 y.

4.To`raqulov Yo.H. va boshqalar. Umumiy biologiya. Toshkent, 1996 y.

5.Hamdamov I.H. Tabiat ilmining zamonaviy konsepsiyasi. Ma`ruza matni. Samarqand, 2000 y.

6.Hamdamov I.H. va boshqalar. Табиий фанлар zamonaviy konsepsiyasi. Тошкент, 2007 y.



НЕОБХОДИМОСТЬ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА ПЕРЕДОВЫМИ ПЕДАГОГИЧЕСКИМИ ТЕХНОЛОГИЯМИ

Негматова Навруза Нодировна

*Самаркандский филиал Ташкентского
государственного аграрного университета, ассистент*

Аннотация: *В современных условиях при подготовке высококвалифицированных кадров целесообразно проводить обучение на основе современных систем и новых педагогических технологий. Суть новых педагогических технологий заключается в том, что учебный процесс спланирован и реализован так, что гарантирует достижение поставленных целей. На самом деле, процент успешного обучения зависит от правильного проектирования, организации и реализации процесса обучения.*

Ключевые слова: *проектирование, приоритет, интересы личности, кадры, педагогические и информационные технологий, инновация*

В настоящее время, когда наше государство неуклонно движется к построению демократического государства, основанного на верховенстве закона и справедливом гражданском обществе, система образования была радикально реформирована, а интересы личности и образование стали приоритетом в социальной политике государства. Необходимость обеспечения образовательного процесса передовыми педагогическими технологиями также является одним из условий реализации Национальной программы подготовки кадров. Поэтому мы придерживаемся исторического подхода к изучению возникновения и развития этого педагогического феномена.

Президент Республики Ш.М. Мирзиёев на XIV заседании Олий Мажлиса подчеркнул необходимость "контроля за своевременной разработкой и внедрением новых учебников, современных педагогических и информационных технологий" (7). Ученые и педагоги сегодня должны серьезно заниматься разработкой передовых педагогических технологий, и они несут ответственность за эту работу. Этому направлению уделяется внимание и за рубежом. Требованием времени является постоянное оснащение профессоров и преподавателей, работающих в системе высшего (среднего специального, профессионального, школьного) образования в стране, с новой системой знаний о передовых педагогических и информационных технологиях. Сегодня педагогическая технология как отдельный предмет включена в учебные планы высших и средних специальных учебных заведений.

В современных условиях при подготовке высококвалифицированных кадров целесообразно проводить обучение на основе современных систем и новых педагогических технологий. Суть новых педагогических технологий заключается в том, что учебный процесс спланирован и реализован так, что гарантирует достижение



поставленных целей. На самом деле, процент успешного обучения зависит от правильного проектирования, организации и реализации процесса обучения (1).

При проектировании образовательного процесса необходимо правильное определение содержания обучения, цели обучения, ожидаемых результатов, правильный выбор методов обучения, форм и инструментов, заранее разработать четкие критерии оценки знаний, навыков и умений учащихся.

Современные педагогические технологии имеют свою теорию, связанную с педагогикой и другими научными достижениями; она в первую очередь направлена на построение учебного процесса на научной основе; создает основу для совместной деятельности преподавателей и студентов на основе широкого использования носителей информации, дидактических материалов, активных методов обучения(3). В будущем, как реальный двигатель развития образования, это окажет положительное влияние на обновление педагогической деятельности, оптимальное построение учебного процесса, формирование свободного мышления, тяга к знаниям, верность Отечеству.

Развитие современного образования привело к появлению нового направления - инновационная педагогика». Термин "инновационная педагогика" и специальные исследования появились в Западной Европе и США (60-е годы). Инновационная деятельность изучается в работах О.Н. Гоноболина, В.А. Сластенина, Н.В. Кузьмина, А.И. Щерванов и других (4).

Растет интерес к использованию интерактивных методов, инновационных технологий, педагогических и информационных технологий в образовательном процессе, к обучению студентов самостоятельно искать знания, самостоятельно анализировать и даже делать собственные выводы. В этом процессе учитель создает условия для развития, формирования, приобретения и воспитания личности. В процессе обучения студент становится ключевой фигурой. Поэтому роль и место современных методов обучения - интерактивных методов, инновационных технологий в подготовке квалифицированных специалистов в области высшего образования огромны(2). В то же время знания, опыт и интерактивные методы преподавания, технологии и навыки преподавания гарантируют, что учащиеся будут обладают глубокими знаниями и зрелыми навыками.

Инновационные технологии - это инновации и изменения в педагогическом процессе и в деятельности преподавателей и студентов, реализация которой основана на всестороннем использовании интерактивных методов. Интерактивные методы включают коллективное мышление, то есть методы педагогического воздействия, которые являются неотъемлемой частью содержания образования. Особенностью этих методов является то, что они осуществляются только через взаимодействие преподавателей и студентов (6). Процесс такого педагогического сотрудничества имеет свои особенности, которые включают:



- принуждение студента к самостоятельному мышлению, творчеству и самостоятельным исследованиям, а не быть равнодушным во время урока;
- Обеспечение постоянного интереса студентов к знаниям в процессе обучения;
- самостоятельно укреплять интерес студентов к знаниям с помощью творческого подхода к каждому вопросу;
- Организация совместной деятельности преподавателей и студентов.

Каждый урок имеет свою собственную предметную технологию, т.е. педагогическая технология в процессе обучения -это индивидуальный процесс, представляющий собой целенаправленный, заранее спланированный и гарантированный педагогический процесс, основанный на потребностях учащегося.

Учитель и ученик, преподаватель и студент сами выбирают, какую технологию использовать для достижения цели, потому что главная цель обеих сторон ясна: достичь результата в зависимости от уровня знаний студентов, поведения группы и используемой технологии. Например, для достижения результата можно использовать фильмы, раздаточные материалы, рисунки и плакаты, различные публикации, информационные технологии.

Для учителя важно иметь возможность видеть каждый урок в целом и планировать будущий процесс урока таким образом, чтобы визуализировать его. В этом случае учитель создает технологическую карту будущего урока по каждому предмету, изучаемому предмету для каждого урока, исходя из характера предмета, возможностей и потребностей учащихся. Создать такую технологическую карту непросто, потому что для этого требуются знания педагогики, психологии, частной методологии, педагогики и информационных технологий, а также знания многих методов и приёмов.

Разнообразие и увлекательность каждого урока зависят от тщательно разработанной схемы проведения урока. Внешний вид или форма технологической карты урока зависит от опыта, целей и воли учителя или преподавателя. Какой бы ни была технологическая карта, она должна отражать учебный процесс в целом, четко определять цель, задачу и гарантированный результат организации учебного процесса. Структура технологической карты избавляет учителя от написания расширенной программы урока, поскольку такая карта отражает все аспекты образовательного процесса.

Использование различных педагогических технологий и современных методов позволяет студентам самостоятельно мыслить, исследовать, иметь творческий подход к каждому вопросу, чувство ответственности к исследованию, анализ, эффективное использование научной литературы. Достижение такого результата требует использования инновационных и информационных технологий в образовательном процессе на практике.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

- 1.Багаутдинова А.Ш. Инновационные образовательные технологии в высшем образовании. – 2014.
- 2.Елашкина Н. В. Инновации в системе высшего образования: проблемы, решения, предложения.- Уфа, 2012.
- 3.Зеер Э.Ф. Профессиональное образование как фактор развития личности // Психология профессионального развития. - М., 2006.
- 4.Кинелев В.Г. Образование и XXI век: информационные и коммуникативные технологии. - М., 1999.
- 5.Михалевская Г.И. Основы профессиональной педагогической грамотности. - СПб, 2001.
- 6.Полат Е.С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. - М., 2002.
- 7.Стратегия действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах. г. Ташкент,07.02.2017 г.,№ УП-4947.



O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARINING O'RNI

Artikova Iroda Akmalovna

Samarqand shahar 16-maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada umumta'lim maktabi o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda yangi pedagogik texnologiyalarining o'rni haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *texnologiya, o'quvchi, kasb, munosabat*

Har bir inson o'z hayotida hurmat va shuhrat qozonishni, atrofdagilarning ye'tibori va ye'tirofida bo'lishni, ularning qo'llab-quvvatlashini, barchaning sevgisiga, muhabbatiga yerishishni, shu bilan birga mustaqil hayot kechirishni xohlaydi. Sanab o'tilganlarning barchasiga birvarakayiga yerishishning yo'li bor, u ham bo'lsa-qiziqishingiz va qobiliyatingizga mos bo'lgan "qadrdon" kasbni tanlashdir. Kasbni tanlash, ayniqsa, qiziqish va qobiliyatga mos kasbni tanlash atrofdagilar ko'zi o'ngida o'zini ifoda yetishni va hayotda o'z o'rni, qadr-qimmatini topishni xohlagan, imkoniyatlarini yuqori baholashga moyil bo'lgan o'quvchilarga xos jihatdir.

Kimki baliq tutish bilan shug'ullangan bo'lsa, bunday faoliyat uchun baliqchining o'zi ham ma'lum talablarga javob berishi zarurligi to'g'risida xabari bo'ladi. Bu talablarga: baliq va uning fe'l-atvori haqidagi bilimlar; zarur uskuna va yarog'lar; ob-havo va muhitning holati haqidagi joriy axborotlar; paydo bo'lishi mumkin bo'lgan tasodiflarga tayyorgarlik; amaliy tajriba va boshqalar kiradi. Birgina baliq tutishga shuncha talab!

Kasb bizning yagona tiriklik manbaimiz yekan, unga qo'yadigan talablarimizni qondirish uchun, biz ham qandaydir talablarga javob berishimiz zarur.

Bugungi kunda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohatlar jarayonida asosiy bo'g'in hisoblangan umumiy o'rta ta'lim maktablari faoliyatida o'quvchilarni hayotga tayyorlash va kasb tanlashga yo'naltirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Kasbga yo'naltirishdan asosiy maqsad o'sib kelayotgan yosh avlodni ongli va mustaqil ravishda kasb tanlashga tayyorlashdan iborat bo'lib, bu jarayon shaxsning bo'lg'usi kasbiy faoliyat subekti sifatida shakllanishini nazarda tutadi hamda uning bozor iqtisodiyoti munosabatlariga moslashib borishiga ko'maklashadi.

Respublikamizda ta'lim islohatlari bosqichma-bosqich amalga oshirib borilayotgan hozirgi davrda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablaridan va islohotning bosh maqsadidan kelib chiqqan holda, kasb-hunarga yo'naltirish sohasida mavjud bo'lgan ilmiy xulosalar va tavsiyalar hamda umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish, xususan ulkan ummon bo'lgan kasblar olami bilan tanishtirish usullarini yangilash zarurati yuzaga kelmoqda. Zero, umumta'lim muassasalari o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish, ularning kasb-hunarni ongli ravishda va to'g'ri tanlashiga ko'maklashish masalasi ta'lim sohasida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Uzluksiz ta'lim tizimi rivojlanishining hozirgi sharoitida o'quvchilar bilan olib boriladigan kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini takomillashtirish, ularni ongli kasb tanlashga, kelgusidagi kasbini o'zi belgilashga tayyorlash umumta'lim maktablarining muhim vazifalaridan sanaladi.

Bugungi kunda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish samarali natijalar beradi. Jumladan "Aqliy xujum", "Bumerang", "Tarozi", "Yelpig'ich", "Kichik guruhlarda ishlash", "Venn diagrammasi" "Sinkven" kabi pedagogik texnologiyalardan foydalanish tavsiya etiladi.

Skarabey texnologiyasi interaktiv texnologiya bo'lib, u o'quvchilarda fikriy bog'liqlik, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi va har qanday muammoni hal qilishda o'z fikrini ochiq va yerkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Ushbu texnologiya o'quvchilarga mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini xolis baholash, o'rganilayotgan mavzu haqida tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi. Ushbu texnologiya o'quvchilar tajribasidan foydalanishni ko'zda tutadi va reflektiv kuzatishlarni amalga oshiradi, faol ijodiy izlash hamda fikriy tajriba o'tkazish imkoniyatlariga yega bo'ladi. "Tarozi" texnologiyasini munozarali, murakkab mazmunli mavzularni o'rganishda qo'llash mumkin. U tanqidiy tafakkur, mantiq, ijodiy improvizasiya, fikran tajribalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan bulib o'quvchini dalillash qobiliyatini rivojlantirish, o'z dalillarini yozma va og'zaki shaklda ishonchli va lo'nda ifodalashni shakllantiradi, o'z nuqtai nazarini himoya qilish, muxoliflarni ishontirish va munozara madaniyatiga o'rgatadi. "Yelpig'ich" texnologiyasi murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar muammoli turidagi mavzularni o'rganishga qaratilgan bo'lib, uning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir yo'la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama yetiladi. Bu interaktiv texnologiya tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'z g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklini ixcham bayon yetish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. Bu texnologiya umumiy mavzuning ayrim tarmoqlarini muhokama qiluvchi kichik guruhlarining, har bir qatnashuvchining, guruhning faol ishlashiga qaratilgan.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlari ta'lim-tarbiya bilan uzviy kechadigan, uning barcha qirralarini qamrab oladigan uzluksiz jarayondir.

Bunday hamkorlik o'sib kelayotgan yosh avlodga ongli kasb tanlash, o'z kasbiy istiqbolini belgilash hamda jamiyat ravnaqiga munosib hissa qo'shish imkonini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Avlayev O., Jurayeva S.N., Mirzayeva S.R. "Ta'lim metodlari" T. "Navro'z". 2017 y
2. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish – T.: "Fan va texnika" 2008 y
3. Zokirov A., Farfiyeva K., Burxonova G., Alimxodjayeva S. Kasb-hunarga yo'naltirish jarayonida o'quvchi shaxsini o'rganish metodikalari. T.2016 y



O'SMIRLARDA XULQI OG'ISHGANLIK HOLATLARI VUJUDGA KELISHIDA OILANING O'RNI

Xursandova Dilnoza Xudoyberdiyevna
Samarqand shahar 80-maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'smirlilik yoshida xulqi og'ishish holatlarining vujudga kelishi, ularga turtki beruvchi omillar, deviant xulq muomala belgilari, diagnostika qilish masalalari va inson kamolotida oilaviy tarbiyaning o'rniga oid qarashlar taxlil qilinib, tavsiyalar yoritilgan

Kalit so'zlar: deviant xulq, tarbiya, xulqi og'ishganlik, oila, diagnostika, psixik rivojlanish

Ma'lumki, inson ongining yuksak belgilaridan biri uning o'zini anglashidir. Uning o'zini anglashi o'z navbatida shaxsning muhim belgisi hisoblanadi. Inson o'z tevarak-atrofidagi olamni biluvchi va shu olamga ta'sir etuvchi sub'ektdir. Insonning idrok etadigan, tasavvur qiladigan narsalari uning uchun ob'ektdir. Ana shu nuqtai-nazardan olganda, insonning o'zini anglashi sub'ektiv ravishda o'zini «men» deb his qilishida ifodalanadi. Inson ijtimoiy zot bo'lganligidan unga o'zligini anglash qobiliyati xosdir. Faqat ijtimoiy hayotda, o'zga kishilar bilan qiladigan har turli munosabatlarda odamning o'zini anglashi, o'zini «men» deb bilishi vujudga keladi va taraqqiy etadi. Odam o'zini alohida shaxs sifatida kim deb bilishi, o'zining o'tmishi va kelajagini anglashi, o'z xuquq va burchini anglashi va nihoyat o'zining fazilat hamda kamchiliklarini anglashi o'zini anglashiga kiradi.

Insonning shaxs sifatida shakllanishi uning biologik va ijtimoiy omillariga bog'liq ekan. Demak, bolalar xulq-atvorining salbiy tomonga og'ishida ham bevosita o'ziga xos yuqoridagi uch omilning o'rni bor. Bolaning xulq-atvori ko'pincha o'z oldiga quygan maqsadlari, qiziqishlari, ideallari va e'tiqodlari majmuida yaqqol namoyon bo'ladi. Xulq-atvordagi o'zgarishlar bevosita yosh krizis davrlarining kechishi bilan bog'liq yuz berishi tabiiydir. Hech kimga sir emaski bugungi kun bolalari o'zlarining yigirma yil oldingi tengdoshlaridan farq qilishadi. Hozirgi yoshlar tez ta'sirlanuvchan, musaqqillikka moyilligi yuqoriligi va shu bilan birga nisbatan befarq, o'z vaqtlarini mazmunli ijtimoiy foydali faoliyatga sarflagilari kelmaydi. Vaholanki inson tabitan o'ziga xos oson va ko'ngilochar mashg'ulotlarga moyil bo'ladi. Inson xulq-atvori tarkibining aksariyati tabiiy instinktlari tazyiqi ostida bo'lishini inobatga olsak ushbu tazyiqlarni to'g'ri muvofiqlashtirish insondan irodaviylikni talab qiladi Bu holatni zamonaviy texnikaning rivojlanganligi ta'siri deb ham izohlash mumkindir. Ko'pchilik hollarda bolalardagi bu o'zgarishlarga ota-ona va jamiyat a'zolarining e'tiborsizligi va befarqligi ularning xulq-atvorida salbiy og'ishlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Ma'lumki, bolalar va o'smirlar o'rtasida xulq og'ishining oldini olish tadbirlari eng avvalo, xulq og'ishini keltirib chiqaradigan shart-sharoit va sabablarni bartaraf qilishni taqozo qiladi. Masalaning dolzarbligidan kelib chiqqan holda bugungi kunda butun dunyo miqyosida, shu jumladan Respublikamizda voyaga etmaganlar o'rtasida xulq og'ishining oldini olish borasida bir qator ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Respublikamizda bu yo'nalishda olib borilayotgan amaliy

ishlardan biri sifatida Toshkent shahri, viloyatlar va tumanlarda voyaga etmaganlar bilan ishlash komissiyalarining tuzilishi va ularning faoliyatini belgilash to'g'risida Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan hujjatning qabul qilinishi va ushbu hujjatda "voyaga etmaganlar o'rtasida qonunbuzarliklarga barham berish va ularning oldini olish" ga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlar bolalar va o'smirlar yosh va individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan va har tomonlama ilmiy asoslangan holda ishlab chiqilishi va ularning ta'sirchanlik darajasini oshirishga alohida e'tibor qaratilsin", deb ta'kidlanishini ko'rsatish mumkin.

Deviant xulq-atvor – jamiyatda o'rnatilgan axloq me'yorlariga mos kelmaydigan insoniy faoliyat yoki xatti-harakat, ijtimoiy hodisa bo'lib, yolg'onchilik, dangasalik, o'g'irlik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, o'z joniga qasd qilish va boshqa ko'plab shu kabi holatlar ushbu xulq-atvor xususiyatlari hisoblanadi. Deviant xulq-atvor muammosini sosiologiya fani doirasida dastlab E.Dyurkgeym maxsus o'rgangan bo'lsa-da, jamiyatning eng qadimiy muammolaridan biri sifatida deviant holatlarga munosabatlar qadim davrlardan shakllanib kelgan. Qadimgi xalqlarning diniy-mifologik tasavvurlari, xususan Misr, Hindiston va Xitoy diniy qonun-qoidalaridagi axloqiy me'yorlar bu sohada dastlabki qarashlar edi. Qadimgi Yunon va Rim faylasuflari ham o'z asarlarida mazkur muammolarni tahlil qilib berganlar. O'rta asrlarda axloq me'yorlari diniy qarashlar ta'siri ostida rivojlandi va ulardan chekinish diniy nuqtai nazardan baholangan. Evropada xristian dini barcha sohada hukmronlik qilgan bo'lsa, Sharq dunyosida axloqiy-huquqiy me'yorlar va ular haqidagi ta'limotlar islom falsafasi ta'sirida rivojlandi. XVII-XVIII asrlarga kelib, Evropada jamiyat rivojining kuchayishi axloq me'yorlarining xristiancha talablari doirasiga sig'may qoldi. XVIII asr mutafakkirlari ijtimoiy me'yor va undan chekinish muammosini yanada chuqurroq tahlil qildilar. Sh.L.Monteske, J.J.Russo, Ch.Bekkaria, Gelvesiy, D.Didro, P.Golbax, Morelliva, Sh.Furelar o'z ilmiy izlanishlarida ijtimoiy me'yorlar, qadriyatlar uchun umumiy bo'lgan qonuniyatlarni topishga intilganlar. XIX asr oxirlarida tabiiy fanlarda erishilgan ilmiy yutuqlar ijtimoiy fanlar taraqqiyotiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Xususan, sotsiologiyada ijtimoiy me'yordan og'ish holatlarini tushuntiruvchi dastlabki ta'limot — E.Dyurkgeymning — anomiya g'oyasi yaratildi. Ma'lumki, sotsiologiyaning fan bo'lib shakllanishida ijtimoiy patologiya omiliga e'tibor qaratilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada E.Dyurkgeymning to'rtta asari chop etilgan bo'lib, shulardan biri «O'z joniga qasd qilish» (1897) kitobi deviantlik muammosiga bag'ishlangan edi. Amerika sotsiologiyasida muhim o'rin tutuvchi ta'limotlardan biri E.Saterlendning differensial aloqalar ta'limotidir. Bunga ko'ra, har qanday xulq-atvor, shu jumladan, deviant xulq-atvor ham o'rganiladi, ya'ni mavjud jamiyat a'zolari tomonidan mazkur xulq-atvor boshqalarga o'rgatiladi. Deviant xulq-atvor muammolarini tahlil qilishda R.Merton ishlab chiqqan ta'limot sotsiologiyada yetakchi o'rin tutadi. E.Dyurkgeymning anomiya g'oyasini rivojlantirib, Merton devian txulq-atvorga quyidagicha ta'rif beradi: - Deviant xulq-atvor jamiyatda e'lon qilingan qadriyatlar va rasmiy xulq-atvor standartlari bilan aholi xulq-atvor motivlari hamda mavjud imkoniyatlarining bir-biriga mos kelmay qolishi natijasidir. Jamiyatda o'rnatilgan ijtimoiy me'yorlardan chetga chiqish holatlarini o'rganuvchi deviant xulq-atvor sotsiologiyasi muammolari O'zbekistonda istiqloq sharofati bilan o'rganila boshlandi. Deviant xulq-

atvorning turli ko'rinishlarini mamlakatimiz olimlari o'z tadqiqot obektlari doirasida o'rganganlar. Respublika faylasuflari X.Shayxova, Q.Nazarov, M.Xolmatova, N.Komilov (shaxs tarbiyasida ma'naviy-axloqiy tarbiya ta'siri masalalari), sotsiolog M.B.Bekmurodov (ijtimoiy me'yorlarga jamoatchilik fikrining ta'siri jarayonlari), huquqshunoslar A.Qulahmetov, Y.Karaketov, M.Usmonaliyev (jinoyatchilikning umumiy jihatlari va o'smirlar jinoyatchiligi masalalari), psixolog olimlar G'.B.Shoumarov, N.A. Sog'inov, S.A.Axunjanova, Z.R.Qodirova, E.Sh.Usmonov, B.M.Umarov (o'z joniga qasd qilish va jinoyatchilik muammolarining ruhiy-psixologik asoslari), pedagog-olimlar O.Musurmonova, D.J.Sharipovalarning (oilada barkamol shaxsni tarbiyalash hamda giyohvandlik, ichkilikbozlik, chekish kabi illatlarning oldini olish muammolari) olib borgan ilmiy ishlarini shunday ishlar jumlasiga kiritish mumkin.

Voyaga yetmaganlarda xulq og'ishi va tarbiya buzilishining oldini olishda ijtimoiy-psixologik, individual-psixologik, sotsiologik, hududiy va kriminologik xususiyatlarini hisobga olish talab etiladi. Shuningdek, voyaga etmaganlar o'rtasida yuzaga kelayotgan xulq-og'ishi va tarbiya buzilishining oldini olish ishlari umumiy va maxsus-individual tarzda olib borilishi bilan xarakterlanadi.

O'zaro samimiy munosabat, shaxsiy namuna, oila va muassasadagi kishilarning ishga ijobiy munosabatigina yoshlarda shunday bo'lishga havas tug'diradi. Eng muhimi shundaki, tarbiyalanuvchilarga ishonish kerak. Yoshlarni be'mani hordiq chiqarish va ko'cha-ko'yda maqsadsiz yurishlariga yo'l qo'ymaslik lozim. Ta'lim muassasasida pedagoglar psixologlar bilan hamkorlikda o'quvchilarda eng yaxshi insoniy fazilatlarni rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor berishimiz lozim: a) bolalarni o'z xulq-atvorini o'zi baholashga o'rgatish; b) o'quvchilarning ijobiy xatti-harakat qilishlarini muntazam nazoratga olish va ularga ishonish; v) oilada, muassasada bolalarning oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishda erishgan yutuqlarini rag'batlantirish; g) o'quvchilarga individual yondashuv har biriga aniq maxsus pedagogik ta'sir o'tkazish; d) darsdan tashqari faoliyatlarda bolalarga mustaqil faoliyat (o'qish, o'yin, mehnat, xobbi va qiziqishlari)ni tanlash uchun imkoniyat berish; e) har bir bola uchun ularni aqlan hamda axloqan rivojlanishiga yo'naltirilgan tarbiyaviy ishlarni tashkil etish; j)ota-onalar bilan ishlash jarayonida xududiy "Oila markaz"lari, mahalla fuqarolar yig'ini va shifokorlar bilan hamkorlik qilish.Umuman psixik rivojlanishi sustlashgan yoki xulqida ma'lum bir anomaliyalari bo'lgan bolalarni vaqtida psixologik-pedagogik tekshirishlar o'tkazib ularga to'g'ri tashxis qo'yilib, korreksion ishlar o'z vaqtida boshlansa, boladagi nuqsonlarni tuzatish va ularni kompensatsiya qilish orqali bolaga yordam ko'rsatish mumkin bo'ladi.

ADABIYOTLAR:

- 1.Raximov X. Oila – mustahkam jamiyatning mustahkam negizi. – Toshkent: «Ma'naviyat»2006., 25-46-b
2. Романова Е.С. Психологическая диагностика. СПб.: Речь, 2005. 42 стр
3. Rasulov A. I. Psixodiagnostika.-Toshkent, "Mumtoz so'z" – 2010., - 169 b



4. Asadov Yu. "O'smirlar deviant xatti-xarakatining psixologik xususiyatlari" - Toshkent.2011., 22-26 b
5. Yadgarova N.F. "Psixopatologik sindromlar to'plami" - Toshkent.2014. 35 b
6. Hakimova L. M. "Deviant xulq-atvor psixologiyasi"- Toshkent.2014. 15 b
7. Байярд Р.Т., Байярд Д. «Ваш беспокойный подросток». М.: "Просвещение", 1991.33 стр
8. Захаров А.И. «Как предупредить отклонения в поведении ребёнка»: 1986. 12 стр

TA'LIM MENEJMENTIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Xatamova G.Q.

Navoiy davlat pedagogika institut, katta o'qituvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O'zbekiston sharoitida ta'limda bo'layotgan o'zgarishlar va uning o'ziga xos xususiyatlari, ta'lim menejmentida innovatsion yondashuvning asosiy bosqichlari, innovatsion munosabat yoki jarayonga yangilik kiritishning dinamik tizimi haqida so'z yuritiladi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются изменения, происходящие в образовании в условиях Нового Узбекистана и его особенности, основные этапы инновационного подхода к управлению образованием, инновационный подход или динамическая система инноваций в процессе.

Annotation: This article discusses the changes taking place in education in the context of New Uzbekistan and its peculiarities, the main stages of the innovative approach to education management, the innovative approach or the dynamic system of innovation in the process.

Tayanch so'zlar : Innovatsiya, menejment, menejer, innovatsion faoliyat, innovatsion texnologiya, motivatsiya

Respublikamiz ijtimoiy hayotiga shiddatli tezlikda axborotlar oqimi kirib kelmoqda va keng ko'lamni qamrab olmoqda. Axborotlarni tezkor sur'atda qabul qilib olish, ularni tahlil etish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash hamda talabaga yetkazib berishni yo'lga qo'yish ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Yangi O'zbekiston sharoitida ta'lim jarayonida mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, yaratuvchanlikka intiluvchi shijoatkor, kadrlar yetishtirishga katta e'tibor berilmoqda. Ma'lumki, barcha davrlarda ham o'qitish mazmuni, ta'lim tizimi ijtimoiy taraqqiyot bilan o'zaro muvofiqlikda rivojlanib kelgan. Ro'y bergan ijtimoiy o'zgarishlarning barchasi muayyan darajada ta'lim mazmunida o'z aksini topadi. Buni ilm-fan, texnika va texnologiya sohalarida ro'y bergan o'zgarishlarning o'qitish jarayoniga tatbiqi misolida ham ko'rish mumkin. YOshlarni ta'lim olishga moyilligi, layoqatlari, bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning tanlagan kasblarini egallashlari uchun umumkasbiy fanlarni o'qitish, mustaqil va ijodiy ishlashlarini samarali tashkil qilish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Respublikamizga turli sohalarda keng qamrovli tafakkuri rivojlangan, mustaqil fikrlay oladigan mutaxassislar zarur.

Respublikamiz ijtimoiy hayotiga shiddatli tezlikda axborotlar oqimi kirib kelmoqda va keng ko'lamni qamrab olmoqda. Axborotlarni tezkor sur'atda qabul qilib olish, ularni tahlil etish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash hamda talabaga yetkazib berishni yo'lga qo'yish ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyani tatbiq etish yuqorida qayd etilgan dolzarb muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiladi.

Mohiyatiga ko'ra innovatsiyalar munosabat yoki jarayonga yangilik kiritishning dinamik tizimi sanaladi. O'z-o'zidan tizim sifatida yangilik kiritish munosabat yoki jarayonning, birinchidan, ichki mantig'ini, ikkinchidan, kiritilayotgan yangilikning muayyan vaqt oralig'ida izchil rivojlanishi va atrof-muhitga ko'rsatadigan o'zaro ta'sirini ifodalaydi.

